

**VOXIDOVA NORPOSHSHAXON XABIBULLAEVNA**

**ZAXRO MIRSHADMONOVNA XALIKOVA**

# **PEDAGOGIKA**

**(Darslik)**

**TOSHKENT-2022**

## Аннотация

Мазкур дarslikda Pedagogika fanining asosiy mavzulari qamrab olingan bo'lib, u orqali talabalarda pedagogikaning fan sifatida ahamiyatini anglash, Pedagogikaning fanlar tizimidagi o'rni, ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslari haqida tushuncha berish hamda ta'lim shakllari, vositalari va metodlaridan samarali foydalanishni o'rgatish, pedagogik jarayonlarni loyihalash, ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholashning ilg'or usullarini o'rgatish, natijada, bo'lajak mutaxassislarda mustaqil ravishda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga erishiladi.

Ushbu darslik filologiya va tillarni o'qitish, tarix, siyosatshunoslik, xorijiy mamalakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavriat bosqichi talabalari uchun mo'ljallangan.

### **Тақризчилар:**

Pedagogika fanlari doktori, professor

**Dilnoz Ruziyeva**

Pedagogika fanlari doktori,

**SH.SHodmonova**

## Аннотация

В данном учебнике освещены основные темы педагогической науки, с помощью которых осуществляется осознание учащимися значения педагогики как науки, понимание роли педагогики в

системе наук, научных основ организации учебно-воспитательного процесса и обучение эффективному использованию форм, средств и методов обучения, конструированию педагогических процессов, передовым методам контроля и оценки результатов образования, а также обучение студентов основам и методам организации образовательного процесса., достигается формирование у будущих специалистов знаний, умений и навыков, необходимых для самостоятельного занятия педагогической деятельностью.

Данное учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата, обучающихся по направлениям филология и языкознание, история, политология, экономика иностранных государств и страноведение.

### Annotation

This textbook highlights the main topics of pedagogical science, through which students realize the importance of pedagogy as a science, understanding the role of pedagogy in the system of sciences, the scientific foundations of the organization of the educational process and teaching the effective use of forms, means and methods of teaching, the design of pedagogical processes, advanced methods of monitoring and evaluating educational results, as well as training students learn the basics and methods of organizing the educational process, the formation of future specialists' knowledge, skills and abilities necessary for independent teaching activities is achieved.

This textbook is intended for undergraduate students studying in the fields of philology and linguistics, history, political science, economics of foreign countries and country studies.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 25 noyabrdagi № 388 sonli buyrug'i asosida nashr ettirildi.

## **KIRISH**

Bugungi kunda Respublika ta'lim tizimining har bir bo'g'inida malakali pedagog kadrlarga ehtiyoj juda yuqori. Malakali pedagoglarni tayyorlashda nopedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarini pedagogik bilimlar bilan qurollantirish, ularni yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim berish jarayoniga kasbiy nuqtai nazardan yo'naltirish muhim ahamiyatga ega.

Darslik pedagogika haqida ixcham ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Talaba pedagogikaning fan sifatida ahamiyati va eng so'nggi yutuqlari, jahon ta'lim tizimlarining tuzilishi, zamonaviy pedagogik faoliyatning shakllari va yo'nalishlarining xilma-xilligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy tendensiyalari, Respublikamiz va jahon ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida tanishadilar. Ushbu darslik bo'lajak mutaxassisga kelajakda o'z pedagogik faoliyatini tashkil etishga hamda zamonaviy pedagogik bilimlarni amaliyotda qo'llashga yordam beradi.

## ZAMONAVIY TA'LIM-TARBIYA VA UNING MOHIYATI

### Reja:

1. Ta'limning mohiyati va uning zamonaviy jamiyatdagi o'rni.
2. Ta'lim tizimi va uning rivojlanish tendentsiyalari.
3. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar

**Tayanch tushunchalar:** tarbiya, ta'lim, o'qitish, kompetensiya, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, davlat ta'lim standartlari, malaka.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida tarbiya va ta'lim tushunchalariga quyidagicha ta'rif berilgan<sup>1</sup>:

**Tarbiya** — aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

**Ta'lim** — ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka

Tarixdan ma'lumki, hamma davrlarda ham ta'lim insoniyat sivilizatsiyasi rivojining asosiy omili bo'lgan. Eng qadimgi davrlarda ta'lim eng muhim, hayotiy ma'lumotlar va mehnat ko'nikmalarini yetkazishni anglatar edi. Asta-sekinlik bilan ta'lim jamiyatning mustaqil funksiyasiga aylandi. XXI asr –ta'lim asri bo'lib, unda jamiyat hayotining turli jabhalarida ta'limning sezilarli natijalar namoyon bo'ldi. Bugungi kunda ta'lim jamiyatda muhim ahamiyatga ega.

**Birinchidan**, ta'lim tufayli insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari ancha kengaydi.

**Ikkinchidan**, ta'lim madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishiga faol hissa qo'shadi.

---

<sup>1</sup><https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 7-avgust

**Uchinidan**, ta'lim insonning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadi, uning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishga imkon beradi.

**To'rtinchidan**, ta'lim odamlarga muloqot qilishda yordam beradi, ta'lim sababli ular o'rtasida ma'naviy va professional va boshqa umumiy manfaatlar paydo bo'ladi.

**Beshinchidan**, bilim kapitalga aylanadi, ta'lim va fanga qilingan sarmoyalar darhol foyda keltiradi.

Zamonaviy ta'limining vazifasi – ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qilish, davlatning madaniy va kadrlar salohiyatini rivojlantirishdan iborat. Zamonaviy ta'lim strategiyasining negizi insonning eng oliy qadriyat sifatida so'zsiz tan olinishiga asoslangan insonparvarlik kontseptsiyasi hisoblanadi.

Pedagogika fanining rivojlanish tarixi davomida ta'lim tushunchasiga turlicha yondoshuvlar mavjud bo'lgan: ta'lim – jarayon sifatida, ta'lim – natija sifatida, ta'lim – tizim va qadriyat sifatida. Zamonaviy jamiyat ta'limni biroz boshqacha tomondan: ta'lim insoniyat madaniyatining tarkibiy qismi sifatida, jamlangan inson kapitali sifatida hamda ijtimoiy manfaat sifatida o'rganishni taqazo etmoqda.

**Ta'lim jarayon sifatida** — shaxsni ta'lim muassasasida yoki mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni, kognitiv va amaliy faoliyat tajribasini, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, o'qituvchi va talabalar orasidagi munosabatlarni ularning o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

**Ta'lim natija sifatida** — o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat va munosabatlarni rivojlantirishdagi yutuqlari darajasini belgilaydi. Ta'limning mohiyati natijadan iborat bo'ladi.

**Ta'lim tizim sifatida**— bu maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya, madaniy va ma'rifiy muassasalar, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalardir. U yerda o'quv-tarbiya jarayoni standartlar, o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq maxsus tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar tomonidan amalga oshiradi.

Ta'limga tizim sifatida yondashuv uzviylikdagi ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, ularni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari tarmog'i va ta'lim organlarini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 6-moddasida yagona va uzluksiz ekanligi ta'kidlangan va ta'lim tizimining tarkibiy qismlari sanab o'tilgan.

### **Ta'lim turlari quyidagilardan iborat<sup>2</sup>:**

Ta'lim – pedagogik jarayonning elementlaridan biri. O'qitish – bu o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning maqsadli jarayoni, buning natijasida bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlar shakllanadi. O'qitish - bu o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, u o'qituvchining faoliyati - o'qitish va o'quvchining faoliyatini o'z ichiga oladi.


#### **TA'LIM TURLARI**

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

---

<sup>2</sup><https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 7-avgust





1. Maktabgacha ta'lim va tarbiya.<sup>3</sup> Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

2. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim.<sup>4</sup> Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);
- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

<sup>3</sup><https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" g'ijonuni 2020-yil 7-avgust

<sup>4</sup>O'sha manba

Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch o‘rta ta’lim doirasida (VII sinfdan so‘ng) ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi.

O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi.

**Professional ta’lim**<sup>5</sup> Professional ta’lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo‘yicha quyidagi darajalarni o‘z ichiga oladi:

- boshlang‘ich professional ta’lim;
- o‘rta professional ta’lim;
- o‘rta maxsus professional ta’lim.

Boshlang‘ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha umumta’lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

**Oliy ta’lim.** Oliy ta’lim bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta’minlaydi.

---

<sup>5</sup><https://lex.uz/docs/-5013007> O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 7-avgust

Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu qonun kuchga kirguniga qadar o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga — bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.**<sup>6</sup> Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkiletiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc)) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

**Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.**<sup>7</sup> Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

---

<sup>6</sup><https://lex.uz/docs/-5013007>O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 7-avgust

<sup>7</sup> O'sha manba

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

## **TA'LIM OLISH SHAKLLARI**

- ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi);
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);
- dual ta'lim;
- oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish;
- katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish;
- inklyuziv ta'lim;
- eksternat tartibidagi ta'lim;
- mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Ta'limning mohiyati uning funksiyalarida namoyon bo'ladi. Ta'limning funksiyalari quyidagilar:

- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- dunyoqarash va ongini shakllantirish;
- jismoniy, fiziologik va aqliy rivojlantirish;
- kasbga yo'naltirish;
- amaliy mashg'ulotlar davomida uzluksiz ta'limga tayyorgarlik;

Ta'limning mazmuni davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari, darsliklar va o'quv -uslubiy qo'llanmalar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida asosiy tushunchalarga quyidagicha ta'rif berilgan<sup>8</sup>:

Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari — ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

davlat ta'lim muassasasi — davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

davlat ta'lim standartlari — davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

davlat ta'lim talablari — ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi;

mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

---

<sup>8</sup><https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 7-avgust

O‘qitishda yetakchi rol o‘qituvchi bajaradi. U ta’limning asosiy tamoyillari, usullari va shakllaridan foydalanadi; o‘quv jarayonini va uning natijalarini kuzatadi va tahlil qiladi. O‘qituvchi, shuningdek, o‘quvchilarning faolligini rag‘batlantiradi, bilim olishlariga yordam beradi.

O‘qitish samaradorligi siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, moliyaviy kabi qator shartlarga shu bilan birga o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga, tinglovchilarning qobiliyati va imkoniyatlariga, o‘quv bazasining holatiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga alohida to‘xtalib o‘tilgan<sup>9</sup>:

Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadi, o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro‘cini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o‘z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi.

Bugungi kunda bilim, ko‘nikma va malakalarga emas, balki kompetentlik va kompetensiyalarga asoslangan ta’lim dolzarblashmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta’riflangan<sup>10</sup>.

---

<sup>9</sup><https://lex.uz/docs/-5013007> O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 2020-yil 7-avgust

<sup>10</sup><https://lex.uz/docs/3153714> Ўзбекистон Республикаси вазирлар маҳкамасининг қарори “Умумий ўрта ва ўрта махсус таълимнинг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”

Ta'limga tizim sifatida yondashuv uzviylikdagi ta'lim dasturlari va davlat ta'lim standartlari, ularni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari tarmog'i va ta'lim organlarini nazarda tutadi.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplari O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 7-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida belgilab berilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik<sup>11</sup>.

---

<sup>11</sup><https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni 2020-yil 7-avgust

Ta'limning asosiy g'oyasi - bu shaxsni faoliyat subyekti sifatida uzluksiz rivojlantirishdir. Rivojlanishni uzluksiz jarayon sifatida tushunish, rivojlantiruvchi ta'lim ta'moyili, ta'lim faoliyatini nafaqat dunyoni bilishga, balki uni o'zgartirishga yo'naltirish bilan birlashtirilishi kerak. Bu ochiq ta'lim tizimiga o'tishning asosiy shartidir. Ochiqlik zamonaviy kasb-hunar ta'limi tizimining jamiyat bilan keng aloqada bo'lishini, mijozlar (ish beruvchilar)ning kadrlar tayyorlash jarayonida ustuvorligini e'tirof etish orqali ta'limni bozor munosabatlariga organik ravishda jalb etishni taqazo etadi.

Ta'limning ustuvor vazifasi yosh avlod ongida obyektiv haqiqatni to'liq va chuqur aks ettiradigan dunyoning ilmiy, tabiiy, ijtimoiy, shaxsiy, tasvirini aks ettirishdan iboratdir. Bugungi dunyo - bu, birinchi navbatda, shaxslararo munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishdir. Bu muloqotning va odamlar o'rtasidagi aloqalarning yangi shakllarini hamda boshqa xalqlarga nisbatan tolerant munosabatini tarbiyalashdir.

Ta'lim orqali doimiy rivojlanayotgan jamiyat inson oldiga yangi XXI asr an'analari va qarama-qarshiliklari bilan bog'liq yangi talablarni qo'yadi.

Ularning asosiylari quyidagilardir:

- o'rganish qobiliyati, ya'ni. odamning o'z bilim darajasini doimiy oshirib borishi, yangi faoliyat turlarini, shu jumladan yangi kasblarni o'zlashtirish qobiliyati;
- intellektual - jismoniy rivojlanish, bu orqali inson ya'ni yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va sog'likni saqlashda muvaffaqiyati ta'minlanadi;
- kreativlik, bu nafaqat o'quv jarayonida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatda ham ijodiy fikrlash va harakat qilish qobiliyatidir;
- ma'naviyat, vatanparvarlik, insonparvarlik va tolerantlik.



### Savol va topshiriqlar

1. Ta'lim jamiyatda ahamiyatini tasniflang.
2. Zamonaviy ta'limning vazifasi nimalarda aks etadi?
3. Ta'limga jarayon sifatida yondashuv nimadan iborat?
4. Ta'limga natija sifatida yondashuv maznini yoriting.



5. Ta'limga tizim sifatida yondashuvni hamda O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini tasniflang.
6. O'zbekiston Respublikasi ta'limga oid huquqiy me'yoriy asoslarni tasniflang.
7. Ta'lim turlari
8. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimining tarkibiy qismlarini tasniflang
9. Professional ta'lim darajalarini aytib bering.
10. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning jamiyat hayotidagi ahamiyatini yoriting.
11. Ta'lim olish shakllarining har birini afzallik va kamchiliklariga ko'ra tasniflang.



## Testlar

### I. Moslikni aniqlang.

1. Tarbiya —

2. Ta'lim —

A. aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

B. ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

### II. Ketma-ketlikni to'ldiring.

Bugungi kunda ta'lim jamiyatda quyidagi ahamiyatga ega:

1) ta'lim tufayli insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari ancha kengaydi.

2) .....

3) ta'lim insonning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shadi, uning kasbiy tayyorgarligini amalga oshirishga imkon beradi.

4) ta'lim odamlarga muloqot qilishda yordam beradi, ta'lim sababli ular o'rtasida ma'naviy va professional va boshqa umumiy manfaatlar paydo bo'ladi.

5) .....

### **III. Moslikni aniqlang.**

1. Ta'lim jarayon sifatida —

2. Ta'lim natija sifatida —

3. Ta'lim tizim sifatida—

A. shaxsni ta'lim muassasasida yoki mustaqil ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni, kognitiv va amaliy faoliyat tajribasini, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi, o'qituvchi va talabalar orasidagi munosabatlarni ularning o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi.

B. bu maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya, madaniy va ma'rifiy muassasalar, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalardir. U yerda o'quv-tarbiya jarayoni standartlar, o'quv rejalari va dasturlariga muvofiq maxsus tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilar tomonidan amalga oshiradi.

C. o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat va munosabatlarni rivojlantirishdagi yutuqlari darajasini belgilaydi. Ta'limning mohiyati natijadan iborat bo'ladi.

### **IV. Ta'lim turlarini belgilang.**

A. maktabgacha ta'lim va tarbiya;

B. xususiy bog'chalar

C. umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;

D. professional ta'lim;

E. oliy ta'lim;

F. nodavlat umumta'lim maktablari

G. o'quv kurslari

H. oliy ta'limdan keyingi ta'lim;

I. kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

J. maktabdan tashqari ta'lim.

### **V. To'g'ri javobni belgilang.**

**Professional ta'lim darajalarini belgilang.**

1. boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.

2. boshlang'ich professional ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.

3. oliy ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.

4. boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim.

#### **VI. Moslikni aniqlang.**

1. davlat ta'lim muassasasi —

2. davlat ta'lim standartlari —

3. davlat ta'lim talablari —

A. ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar;

B. davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

C. davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa;

#### **VIII To'g'ri javobni aniqlang**

<b>Zamonaviy ta'limining vazifasi – nima ekanligini aytib bering?</b>
Zamonaviy ta'limining vazifasi – ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qilish, davlatning madaniy va kadrlar salohiyatini rivojlantirishdan iborat*
Kurslarni chuqurroq o'rganish
Zamonaviy ta'lim muammolarini o'rganish

Mustaqil ta'lim uchun adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/docs/-5013007> O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020-yil 7-avgust
2. <https://lex.uz/docs/3153714> O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining qarori "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"

## **PEDAGOGIKANING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI**

### **Reja:**

1. Pedagogikaning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti.
2. Pedagogika – tarbiya haqidagi fan.
3. Asosiy pedagogik tushunchalar.
4. Pedagogika fanining tuzilishi va uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
5. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.
6. Pedagogikaning va asosiy tushunchalari (kategoriyalari).
7. Milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda pedagogikaning tutgan o'rni.

**Tayanch tushunchalar:** ma'naviyat, aqliy, axloqiy, amaliy, jismoniy sifatlar, tarbiya, ta'lim, ezgu niyat, ezgu so'z, ezgu ish, predmet, obyekt, etnografiya.

Pedagogika nima? U nima bilan shug'ullanadi? Nimalarni tadqiq qiladi, degan savollar pedagogika fanini o'rganishga kirishgan odamning aqlini band etadi. Pedagogikaga oid darsliklarda, qomuslarda pedagogikaning bahs tushunchasi turlicha, ayrim hollarda bir-biridan farqlanadigan darajada talqin qilinadi. Masalan, pedagogika – tarbiya haqidagi fan; pedagogika – o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan; pedagogika – umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan va hokazo.

Har bir mustaqil fan o'zining predmeti (mavzusi) va metodologik asoslariga egadir. Jumladan, pedagogika ham fan sifatida shakllanib, o'zining predmetiga

ega bo'ldi. Boshqa fanlar kabi pedagogika ham fan sifatida paydo bo'lar ekan, u avvalo jamiyatning talab va ehtiyojlari asosida paydo bo'ldi. Shu sababli tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim, chunki tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, uning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Mutafakkir A.Avloniy ta'kidlaganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot: yo najot, yo halokat: yo saodat, yo falokat masalasidir". Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda pedagogik faoliyat ham mavjud bo'lgan.

Insonni dunyoga kelishi, faqat tug'ilishidan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug'ilgandan keyin o'z zamonasining taraqqiyoti darajasiga ko'tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o'z o'rnini belgilab olishi, tarixiy jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi, ya'ni tarbiya olishi kerak. Bu jarayonda katta avlod o'zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodlarga bera boshlaydi, ya'ni yangi tug'ilgan odam bolasining rivojlanishi, shakllanishi va voyaga etishi jarayoniga rahbarlik qilingan, boshqarilgan. Bu tarbiya deb atalmish ijtimoiy hodisa orqali amalga oshirilgan. Jamiyat rivojlangani sari yetuk, barkamol shaxslarni etishtirish ehtiyoji hamortib borgan hamda o'zgarib, yangilanib, jamiyatga xizmat qilgan. Insoniyat jamiyatning turli bosqichlarida ta'lim-tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodlarni o'qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirish va hayotga tadbiq qilish jarayonida pedagogika fani paydo bo'la boshladi. Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsadi va vazifalari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim va tarbiyaning usullari, tashkil etish shakllari, umuman uning qonuniyatlari haqida bilim, ma'lumot beradigan fanga aylandi.

Pedagogika atamasi ham qadimiy bo'lib, "bola yetaklovchi" degan ma'noni bildiruvchi grekcha "paydogogos" so'zidan kelib chiqqan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi Yunonistonda o'z xo'jayinining bolalarini sayr qildirgan, ehtiyot qilgan tarbiyachini, ya'ni qullarni "pedagog" (bola yetaklovchi) deb atashgan. Keyinchalik esa, maxsus o'qitilgan va pedagoglikni o'ziga kasb qilib olgan kishilarni pedagog deb atay boshlashgan.

Inson yaratilishi, paydo bo'lishi zahotiy oq ilm va tarbiyaviy sifatlar uning yashashi, hayot kechirishi uchun eng zaruriy shart va vositalar ekanligini anglab boradi. Shuning uchun insoniyat jamiyatning ilk ko'rinishlaridanoq tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislariga ehtiyoj tug'ildi, desak biz tarbiyani faqat bir tomonini, ya'ni boshqalarni yana ham xususiy lashtirib, agar yoshlarni tarbiyalash, desak tarbiya tushunchasiga juda ham tor qaralgan bo'ladi. Chunki tarbiya eng avvalo har bir insonni o'ziga qaratilgandir. Har bir kishi doimo ham aqliy, tarbiyaviy, jismonan takomillashib, shakllanib boradi. Ayrim kishilar bu fikrga qo'shilmasliklari mumkin. Chunki bunda jamiyatdagi o'rta, katta avlodning tarbiyasida kamchiliklar, yetishmovchiliklar bor ekan-da, degan xulosa chiqarmasligi kerak. Chunki olamning moddiy-ma'naviy tuzilishi, qurilishi, uning rivoji, insonning moddiy-ma'naviy yashash sharoiti, imkoniyatlari, uning aqliy, axloqiy, jismoniy holati bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun tabiatning inson yashashi, mavjudligi, baxtiyorligini ta'minlash imkoniyatlari, uning aqliy-axloqiy, jismoniy rivoji, o'sishiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir<sup>12</sup>.

Tabiatdagi, jamiyatdagi muammolar insoniyatni ma'naviy-aqliy rivojlanishiga yo'naltirib unga o'zining yangi-yangi xazinalarini ochib beraveradi.

Pedagogika fanining predmeti, o'qitishning ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo'lganligi uchun uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Ta'limning, o'qitishning vazifasi fuqarolar, yoshlarning eng asosiy Konstitusiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada baxtiyor faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-

---

<sup>12</sup>Hasanboev J., To'raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b.

ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

### **Pedagogika – tarbiya haqidagi fan**

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ladi. Ba'zi falsafiy fikrlar quldorlik jamiyatidayoq rivojlana boshlagan edi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat-ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. „Alpomish“, „To'maris“ kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiati, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali „Kalila va Dimna“, Nizomulmulukning „Siyosatnoma“, Nosir Xisravning „Saodatnoma“, „Ro'shnoyinoma“, Yusuf xos Hojibning „Qutadg'u bilik“, Mahmud Koshg'ariyning „Devon-u lug'atit turk“, Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir.

Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Suqrot, Aflotun, Demokrit kabi buyuk faylasuflar tomonidan murakkab falsafa tizimi yaratilgan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning „Buyuk didaktika“ asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi. O'n sakkizinchi asrga kelib O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XIX asr boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usuldagi maktablar tuzish, darsliklar yaratish, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Pedagogika fanining mazmunini boyitib va rivojlantirib boradigan qator manbalar mavjud darslik Ayniqsa, maqollar, ertaklar, dostonlar, ashulalar, udumlar va topishmoqlarda tarbiya haqidagi xalq donishmandligi qamrab olingan.

Allomalarning pedagogika nazariyasiga oid fikrlaridan fanda unumli foydalanilmoqda. Shu bilan birga, pedagogika fani yangi g'oyalar evaziga boyimoqda.

Asosiy pedagogik tushunchalar. Pedagogikada „tarbiya“ so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi, tarbiya keng sotsial ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya muassasalarini, o'quv-tarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda „tarbiya“ so'zi aniq, tor yo'nalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi.

O'qitish - o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.




Ma'lumot – bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko'zda tutiladi.

Inson kamoloti - bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.

Insonning shakllanishi - bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.

Pedagogikada yana bir qancha tushunchalar mavjudki, ular haqida boshqa boblarni o'rganish jarayonida fikr yuritiladi.



Pedagogika fanining tuzilishi va uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Fan va texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, turli yo'nalishlarda bilim hajmining o'sib borishi fanning tabaqalanib, turli tarmoqlarga bo'linishiga sabab bo'lmoqda.

Yaqin o'tmishda falsafadan ajralib chiqqan pedagogika fanida ham ko'pgina tarmoqlarga bo'linish jarayoni ko'zga yaqqol tashlanadi. Ayrim tarmoqlar esa mustaqil fan sifatida shakllanadi. Masalan, maktab pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Ayrimlari esa fan sifatida endi shakllanib kelmoqda. Kattalar

pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi shular jumlasidandir. Hozirgi zamon pedagogikasi ko'p tarmoqli fan bo'lib, avvalo tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bog'lanadi. Pedagogikaning ko'zi ojiz, aqli zaif, qulog'i kar – jismoniy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarni tarbiyalash va ularni hayotga tayyorlash bilan shug'ullanadigan yana bir tarmog'i – maxsus pedagogika (surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika) defektologiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogika fani tarmoqlariga predmetlarni o'qitishning qonuniyatlarini o'rganuvchi fan - metodika ham kiradi. Shu bilan birga, pedagogika fani boshqa fanlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi. Pedagogikaning tarbiya sohasidagi obyekti o'sib kelayotgan yosh avlod bo'lganligi uchun pedagogika insonni o'rganuvchi fanlar bilan bog'liqdir.

Inson biologik evolyutsiyaning mahsuli sifatida biologiya fanlarining o'rganadigan obyekti hisoblanadi. Shuning uchun bu fanlar pedagoglar o'rganishi lozim bo'lgan fanlar qatorida o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika fanining metodologik asosini falsafa tashkil etadi. Chunki tarbiyaning maqsadi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; jamoa va shaxs muammolari va shu kabilar ikki fanni birlashtiradi. Iqtisodiy va, xususan, uning bir bo'lagi bo'lgan xalq ta'limi iqtisodi pedagogika bilan bog'lanib ketadi. Chunki iqtisodchilarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi umumiy ta'limning yuqori darajada rivojlanganligiga bog'liq ekan.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga ko'ra, pedagogikaning psixologiya fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan.

Keyingi vaqtlarda pedagogikaning kibernetika (muhim dinamik tizimlarni boshqarishni o'rganadigan fan) bilan bog'lanishi ko'zga tashlanmoqda. Bu holni

kibernetikaning umumiy g'oyalaridan ta'limda foydalanish tajribalarini dasturlashtirilgan ta'lim misolida ko'rish mumkin.

Pedagogika fani taraqqiyoti pedagogika fanlari tizimini vujudga keltirdi. Bular:

Umumiy pedagogika, Maxsus pedagogika, Metodika, Pedagogika tarixi, Oliy ta'lim pedagogikasi, Qiyosiy pedagogika, Ijtimoiy pedagogika, Harbiy pedagogika.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi kabilar alohida o'rin tutadi.

Pedagogika boshqa oraliq fanlar ma'lumotlaridan tayyor holda foydalanmaydi. Bu ma'lumotlar pedagogik nuqtayi nazardan tanlovdan o'tgandan keyin maqsadga muvofiqlashtirilgan holda amalda joriy etiladi.

***Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.*** Pedagogika o'z tadqiqot obyektiga va tadqiqot metodlariga ega. Ilmiy tadqiqot barcha fanlar kabi pedagogika fanini ham takomillashib borishiga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to'g'ri hal etish yo'llarini aniqlashga yordam beradi.

Hodisa uning taraqqiyoti davomida boshqa hodisalar bilan bog'liq holda o'rganiladi. Miqdor o'zgarishi sifat o'zgarishiga o'tish daqiqalarida kuzatiladi.

***Adabiyotlar bilan ishlash metodi.*** Pedagogik muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. O'rganiladigan hujjatlar va manbalarga xalq maorifiga aloqador hujjatlar kiradi. Shu bilan birga, pedagogika faniga oid bo'lgan tarixiy-pedagogik adabiyotlar, arxiv hujjatlari, pedagogik matbuot materiallari, darsliklar, o'quv-metodik ishlanmalar ham kiradi. Adabiyotlarni o'rganish metodi muammolarning qay tomonlari yaxshi ochilganligini, qaysi masalalar hal etilmagani kabilarni bilish imkoniyatini beradi.

Adabiy manbalar bilan ishlash quyidagi metodlardan foydalanishni nazarda tutadi: bibliografiya tuzish, annotatsiya, konspektlashtirish. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda yuqoridagi usullardan biri tanlab olinadi.

***Bibliografiya*** — bu hal etilishi lozim bo'lgan muammoni tadqiq etish jarayonida zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati. Adabiy manbalar bilan ishlash aniq

ma'lumotlarni bibliografiya tuzish yo'li bilan rasmiylashtirishni talab etadi. Bunda ma'lumotlar muallifning ism-sharifi, asarning nomi, nashriyoti nomi (maqolalar uchun jurnal va gazetalarning nomi), manzili va nashr etilgan yili ko'rsatiladi.

***Ilg'or tajribalarni o'rganish metodi.*** Pedagogikaning ko'pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida o'rttirilgan tajribalarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilg'or o'qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o'qituvchilarning faoliyatlari ham o'rganib boriladi. Chunki tajribalarni o'rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi.

Pedagogik tajribalarni o'rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar tarqatish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

***Kuzatish*** — o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish obyektiga oid bo'lgan aniq faktik material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi.

***Suhbat*** (fakt) dalillar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qo'llaniladi.

***Anketalar tarqatish.*** Bu ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketalar tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqot uchun muhim bo'lmagan materiallar o'quvchilarning yozma va bir qancha fanlar bo'yicha mustaqil ishlarni bajargan daftarlarini tekshirish, o'rganib chiqish yoli bilan turlarga ajratilishi mumkin.

***Maktab hujjatlarini o'rganish*** — o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, metodistning to'plagan ma'lumotlari, sinf jurnallari, kundaliklar, yig'ilish va majlislar bayonnomalari tadqiqoti uchun olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaning ahvoli, darajasi haqida obyektiv axborot manbayi hisoblanadi.

Pedagogik hodisalarni tadqiq qilish jarayonida ***eksperiment*** (sinov) muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus tashkil etilgan eksperiment qo'llanilayotgan yoki

qo‘llanishi mumkin bo‘lgan u yoki bu metod va usullar samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

**Matematik modellash**. Bu metod ommaviy materiallarni tahlil qilishda (masalan, anketalar tarqatish yo‘li bilan to‘plangan materiallarni yoki ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun) qo‘llaniladi. U eksperiment natijalarining aniq baholanishini, xulosalarning ishonchli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Tadqiqot natijalari va ularni amalda tatbiq etish. Pedagogikada bu jarayon turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Chunonchi, tadqiqotchilarning seminarlarda, ilmiy konferensiyalarda tadqiqot natijalari bo‘yicha ma‘ruzalar bilan chiqishi, ilmiy maqolalar, kitoblar nashr etilishi, o‘qituvchiga mo‘ljallangan metodik tavsiyalar bo‘lishi mumkin. Pedagogikada hali hal etilmagan muammolar juda ko‘p. Bular ilmiy tadqiqot olib borish yo‘li bilan hal etiladi.



### Savol va topshiriqlar

1. Pedagogikaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Pedagogikaning obyekti va predmetini tushuntirib bering.
3. Pedagogikaning kategoriyalariga nimalar kiradi?
4. Jamiyat ma‘naviyatining shakllanishida pedagogikaning roli.
5. Pedagogikaning predmetini tushuntiring.



### Testlar

#### I. Fikrni to‘ldiring

Pedagogika – ..... haqidagi fan.

#### II. Moslikni aniqlang.

- |                      |                                     |
|----------------------|-------------------------------------|
| 1. Nizomulmulk       | A. „Siyosatnoma“,                   |
| 2. Nosir Xisrav      | B. “Mahbub ul-qulub”                |
| 3. Yusuf xos Hojib   | C. „Saodatnoma“,<br>„Ro‘shnoyinoma“ |
| 4. Mahmud Koshg‘ariy | D. „Qutadg‘u bilik“                 |
| 5. Ahmad Yugnakiy    | E. „Devon-u lug‘atit turk“          |
| 6. Alisher Navoiy    | F. Kaykovus                         |

### III. Fikrni to'ldiring.

Pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar \_\_\_\_\_ning \_\_\_\_\_asaridir.

### IV. Moslikni aniqlang.

- |                                       |   |
|---------------------------------------|---|
| 1. Tarbiya                            | A. o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning ma'lumot olishi, o'quv ko'nikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.      |
| 2. O'qitish                           | B. bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko'zda tutiladi. |
| 3. Ma'lumot                           | C. bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.   |
| 4. Inson kamoloti -                   | D. - bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi  |
| 5. Insonning shakllanishi hisoblanadi | E. tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon   |

### V. Mos javobni aniqlang.

**Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlarini belgilang.**

- a) Adabiyotlar bilan ishlash metodi
- b) Kuzatish
- c) O'qitish
- d) Suhbat

- e) Tarbiya metodlari
- f) Anketa
- g) Maktab hujjatlarini o'rganish
- h) Matematik modellashtirish
- i) O'yin
- j) Ko'rgazmalilik

## **PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI**

### **Reja:**

1. Pedagogika fani ijtimoiy gumanitar fan.
2. Pedagogika fanining tarixiy tadrijiy rivoji.

**Tayanch tushunchalar:** tarix, ta'lim, o'qitish, davr, ta'lim, tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat, maktab, nazariya, xalq, millat, qadriyat

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim–tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika sohasidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi.

Pedagogika tarixi qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o'rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning xayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqlir.

Binobarin mustiqillik tufayli ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadriyatlarining qayti tiklanishi va rivojlanishiga shart-sharoitlar vujudga keldi.

O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondoshish, o'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini xalq xayotiga tatbiq etish kabi ulug' ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda o'zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan

ta'lim – tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiy qilib kelagnligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan ilmiy – nazariy, falsafiy – tarbiyaviy haqiqatdir.

Axloqan pok va yetuk insonlarni tarbiyalash masalasini muvafaqiyatli hal etishda xalqimizning tarixiy an'analari, ma'naviy boyliklari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan ilmiy me'roslari va tarixiy – tarbiyaviy tajribalarini o'rganib chiqish, ularning yutuqlarini hayotga, ta'lim – tarbiya ishlariga tadbiq etishning ahamiyati kattadir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning qo'yidagi so'zlari alohida e'tiborga loyiqdir: “Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning mamlakatimizdek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga dunyoga yetkaza bilishimiz kerak”<sup>13</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida ham, “qadriyatlarimizni, ma'naviy-axloqiy, falsafiy hamda pedagogik merosimizni, xalq ta'limining shakllanish va rivojlanish tarixini asl manbalardan o'rganish, pedagogika nazariyasi va tarixi ko'lamini ob'ektiv ma'lumotlar asosida boyitish, pedagogik tafakkurimizni rivojlantirish” zarurligi ta'kidlanganligi boy tariximizni yanada chuqur o'rganish kerakligi ta'kidlanganligini ko'ramiz.

O'zbek xalqi tarixan ta'lim tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham nekbin pelagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan.

---

<sup>13</sup> Мирзиёев Ш.М. Ислом цивилизацияси маркази. 15.06.21



Biroq islomgacha davr tarbiyashunosligi, fan va madaniyati tarixini yoritish imkoni chegaralangan. CHunki, dastlab Iskandar boshchiligidagi Yunon – Makedon qo'shinlari, so'ngra ibn Muslim Qutayba rahbarligida arab istilochilari olib borgan janglar, talonchiliklar, vayronagarchiliklar tufayli o'sha davrga tegishli deyarli barcha asarlar, manbalar yoqib yuborilgan. Lekin islom va islomdan keyingi mavjud pedagogik qarashlarni, milliy ta'lim – tarbiyaga oid an'analarni, qadriyatlarni, xalq pelagogikasini ilmiy o'rganish, puxta tahlil qilish va hayotga tatbiq etish bugungi kunnig muhim va dolzarb muammosidir.

Istiqolga erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Ovrupa pedagogikasini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa SHarq pedagogikasini o'rganishga e'tiborni qaratmoq lozim. CHunki ilmu fan avval SHarqda taraqqiy etgan, hur fikrlilik bizdan boshlangan. “SHarq Yevropaning muallimidir” deganda haq edi Olmon olimi Xerler. Haqiqatan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz.

Yuqoridagi fikrlarning o'zi madaniyat va ma'rifat SHarqdan Yevropaga tarqalgan deyishga asos bo'la oladi. CHunki, savodxonlik maktablarining, qadimiy yozuvlarning vujudga kelishi eng qadimga manbalarda “Avesto”, Sug'd, Baqtriya, Urxun – Yenisey, Xorazm va boshqa yozuvlar Turon zaminida kelganligi, shu muqaddas zaminda yashayotgan xalqlarning eng qadimgi ajdodlari savodxon kishilar ekanligidan dalolat beradi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi

Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi - bularning barchasi yangidan-yangi avlodni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozim”, - deydi. Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish lozim. CHunki biror millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatlaridan ajratib olib yarata olmaydi. Har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos

tomonlar bo'lsa ham, u umuminsoniy qadriyatlarning bir qismidir. SHu bilan birga unutmashimiz kerakki, biz qurayotgan yangi jamiyat "binosi" uchun birinchi galda milliy qadriyatlar ustun bo'lmog'i lozim. Biz, eng avvalo, milliy o'zligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizni kashf etmog'imiz lozim. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta, atroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifadir.

VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan beqiyos rivojlana bordi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqish keskin orta boshladi. O'sha tarixiy davrda al – Xorazmiy, Abu nasr Forobiy, Al – Farg'oniy, al – Beruniy, Abu Ali ibn Sino, az – Zamaxshariy singari qomusiy olimlar dunyoga keldi. Ular bilan yonma-yon dunyoviy ilmlar tug'ildi. O'sha ulug' mutafakkirlar inson ma'naviy va tafakkur dunyosini boyitishda, insoniyat ongini, madaniy – ma'rifiy qarashlarni o'stirishda o'z davrida va keyinchalik ham asosiy roly o'ynadilar, inson kamolotiga doir beqiyos ta'limotni yaratdilar. XV – XVI asrlarga kelib qadimiy Turkiston jahonga Qozizoda Rumi, Ulug'bek, Ali Qushchi, Haydar Xorazmiy, Hofiz Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muxammad Bobur, Abulg'oziy Bahodirxon singari allomalarni voyaga yetkazdi. Bu davrda Markaziy Osiyo shaharlarida qator madaniy va ilmiy markazlar vujudga keldi. Demak, Markaziy Osiyo xalqlari, xususan o'zbek xalqi va uning madaniy – ma'rifiy taraqqiyoti asrlar davomida misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Qolaversa, uning axloq-odobga oid qarashlari pedagogika fanlari bo'yicha ta'limoti butun jahonga o'rnak bo'larli ma'no va mazmun kasb etgan.

Oktyabr to'ntarishidan keyin, ya'ni 1917 yildan boshlab Turkiston mintaqasida "yashin tezligida" SHo'ro hokimiyati o'rnatila boshladi. Bu tuzum kommunistik firqa mafkurasini targ'ib va tashviq qildi.

SHo'ro hokimiyatining dastlabki yillarida Turkistonda yangi maktablar ochish va ularni mustahkamlash vazifalari ko'ndalang qilib qo'yildi. Unda yoshlar ongiga yangi jamiyat g'oyalarini singdirish, shu ishlarni amalga oshiradigan pedagog xodimlar tayyorlashga e'tibor berildi. SHu ishlarni amalga oshirishda

Russiya Xalq ta'limi yo'nalishi va tizimi rahbarlik qilgan. Tarixdan ma'lumki, qaysi davlt yoki mamlakat hukumron bo'lsa, u tobe mamlakat va xalqga o'z mafkurasini, ma'naviyatini, axloq-odob aqidalarini singdirishga harakat qilgan.

1924 yil oktyabrda Turkiston parchalanishi oqibatida milliy madaniyat yo'li asta-sekin to'sila boshlandi. Asrlar osha amalda qo'llanib kelingan, qomusiy ilmlar bitilgan yozuv man etildi. Avval lotin grafikasi, keyin rus grafikasi asosiga qurilgan yozuvga o'tildi. Bu tadbir Markaziy Osiyo xalqlarini o'z madaniyat tarixini o'rganish imkoniyatidan mahrum etdi.

Maktablarda dunyo fanini rivojlantirishga munosib hissa qushgan o'zbek fani va madaniyatining asoschilari, musulmon olamining ulug' zotlari emas, balki o'zbek xalqi kamolotiga aloqasi bo'lmagan shaxslar faoliyati o'rgatildi. Ahmad Yassaviy, Bedil singari so'z ustalari va tafakkur gulshani bog'bonlari xalq ta'limi tizimidan chiqarildi.

Musulmon dunyosining muqaddas kitobi Qur'oni Karim, Muhammad alayhissalom hadislarini taq'ib ostiga olindi, yo'qotildi. Natijada o'zbek xalqi milliy ahloq-odobi va tarbiya an'analaridan mahrum bo'la boshladi. Bu yo'qotish o'zbek fani, madaniyati va pedagogika fanlari rivojlanishiga salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

1991 yilga kelib O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishgach, o'zining yangi milliy Qomusi asosida hamma sohada bo'lganidek, o'zbek milliy fani va madaniyati, "Pedagogika tarixi"ga ham yangicha yondoshish imkoniyati tug'ildi.

O'tmishda progressiv pedagoglar va atoqli mutafakkirlar pedagogikaga doir muhim fikrlarni aytib qoldirganlar, bularni o'rganish pedagogika tafakkurining o'sishiga, pedagoglik madaniyatining ortishiga imkon beradi.

Pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyoti qonunlariga suyangan holda turli pedagogik nazariyalarni, ta'lim-tarbiyaning mazmuni va metodlarini o'rgatadi. O'tmishning pedagogik sistemalarida bo'lgan ilg'or va progressiv fikrlarning hammasidan ijodiy foydalanadi.

Demak, pedagogika tarixi ijtimoiy fandır. U tarixiy pedagogika xodisalariga davr talabi asosida yondoshadi, tarbiya nazariyasi va amaliyotini turli bosqichlarda xilma-xil bo'lganligini ochib beradi, ilg'or qarashlarning taraqqiyot yo'lini ko'rsatib beradi.

Biz pedagogika fani tarixini o'rganish va tahlil qilishda: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo'lyozma yodgorliklari, sharq mutafakkirlarining ilmiy – ma'naviy me'rosi, xalq og'zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, dasturlar, o'quv qullanmalari va darsliklar, xalq maorifi masalalariga oid materiallar, matbuot materiallari, prezident SH.M.Mirziyoevning ta'lim-tarbiyaga, oid asarlariga asoslanamiz.

Pedagogika fani tarixi metodologiyasi esa milliy va umumbashariy qadriyatlar, xalq pedagogikasi, Markaziy Osiyo va SHarq mutafakkirlarining ilmiy va ma'naviy merosi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning ta'lim – tarbiyaga oid asarlari va milliy istiqlol g'oyasi haqidagi nazariyalari hisoblanadi.

Pedagogika fani tarixi mutaxassislarning pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay, balki, shu bilan birga, unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi. SHuningdek, o'tmishning ta'lim – tarbiya sohasidagi eng yaxshi tajribalarini o'rganadi, bu esa uning kundalik pedagogik faoliyatida yordam beradi, uni bevosita amaliy faoliyatga tayyorlaydi.

Bugun pedagogika fanining tarixiy tadrijiy rivoji quyidagi davrlashtirish asosida o'rganilmoqda.

1. ЭНГ ҚАДИМГИ ДАВРДАН VII АСРГАЧА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ВА ПЕДАГОГИК ФИКРЛАР
2. VII АСРДАН XIV АСРГАЧА БЎЛГАН ДАВРДА МАКТАБ, ТАРБИЯ ВА ПЕДАГОГИК ФИКР ТАРАҚҚИЁТИ
3. ШАРҚ УЙҒОНИШ ДАВРИ ВА УНДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ МАСАЛАЛАРИ
4. ШАРҚ ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМОТИДА ТАЪЛИМИЙ-АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАР
5. XIV-XVI АСРЛАРДА ТАРБИЯ, МАКТАБ ВА ПЕДАГОГИК ФИКРЛАР
6. XVII-XVIII АСРЛАРДА ВА XIX АСРНИНГ БИРИНЧИ ЯРИМИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ВА ПЕДАГОГИК ФИКРЛАР
7. XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ ВА XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ВА ПЕДАГОГИК ФИКРЛАР
8. 1917-1990 ЙИЛЛАРДА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ, МАОРИФ ВА ПЕДАГОГИК ФИКРЛАР
9. МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ПЕДАГОГИКАСИ



#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Pedagogika fanining jamiyatda ahamiyatini tasniflang.
2. Pedagogika fani ijtimoiy gumanitar fan maznini yoritng.
3. Pedagogika fanining tarixiy tadrijiy rivoji tizimini tasniflang.
4. O‘zbeiston Respublikasida pedagogika fani rivojiga hissa qo‘shgan olimlar ishlarini tasniflang.
5. Pedagogika fanining davrlashtirishini yoritng.

## TARBIYA NAZARIYASI.

### Reja:

1. Inson kamolotida tarbiyaning o‘rni
2. Tarbiyaning maqsadi va tarbiya turlari.
3. Tarbiya metodlari.
4. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish.
5. Tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuv

**Tayanch tushunchalar:** inson, tarbiya, metod, ta’lim, faoliyat, o‘qitish, jarayon, innovatsiya, yoshlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”<sup>14</sup>, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”<sup>15</sup> gi Farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy, axloqiy va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, ularni o‘qitish va tarbiyalash tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>16</sup>, 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”<sup>17</sup>, 2022 yil 21 iyundagi PQ-289 – son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar

---

<sup>14</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги ПФ-5712-сон “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони.

<sup>15</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.

<sup>16</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 14 августдаги ПҚ-3907-сон “Ёшларни маънавий, ахлоқий ва жисмонан баркамол қилиб тарбиялаш, уларни ўқитиш ва тарбиялаш тизimini сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори.

<sup>17</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги ПҚ-4884-сон “Таълим-тарбия тизimini янада такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.

tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi <sup>18</sup> Qarorlari, “Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontsepsiyasi”<sup>19</sup>da tarbiyani amalga oshirishning maqsad va vazifalari belgilanib, mazkur vazifalarni amalga oshirish oila va uzluksiz ta'lim tizimining vazifalari etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda 1059-son qarori “Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontsepsiyasi” hamda 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son farmonlarida shaxs kamoloti va tarbiya masalalarining maqsad va vazifalari belgilanib, uni amalga oshirishda oila va uzluksiz ta'lim munosabatlarini muvofiqlashtirish belgilab qo'yilgan. Kontsepsiyada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan aholi, ayniqsa, yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali tashkil etish kerakligi qayd etilib, ma'naviy-axloqiy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillari asosida yosh avlodda Vatanga sadoqat, ishbilarmonlik, irodaviylik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibat, ma'suliyat, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini quyidagi bosqichlar asosida shakllantirish kerakligi belgilangan:

***birinchi bosqich*** – oilalarda (ikki bosqichda: 1-bosqich – homila davri, 2-bosqich *bola tug'ilgandan 3 yoshgacha bo'lgan davr*);

***ikkinchi bosqich*** – maktabgacha ta'lim 3-6 (7) yoshgacha bo'lgan davr;

***uchinchi bosqich*** – ikki bosqichli umumiy o'rta ta'lim: 1-bosqich 7 (6) yoshdan boshlang'ich sinf, 2-bosqich 11-17 (18) yosh.

---

<sup>18</sup> 2022 yil 21 iyundagi PQ-289 – son “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori

<sup>19</sup> “Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi 2019 yil 31 dekabrda qabul qilingan (Qaror №1059 sonli qaror)

*to'rtinchi bosqich* – ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari tizimida (ikki davr asosida: birinchi davr – o'rta maxsus kasb hunar va oliy ta'lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko'rsatayotgan va band bo'lmagan yoshlar – 17-30 yosh, ikkinchi davr – o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalarining o'quvchi-talabalari 15-22 (24 yosh)).

Yangilanayotgan O'zbekistonda tarbiya jarayoniga yangicha, tizimli yondashuvni amalga oshirishda ta'lim - tarbiya muassasalari, oila va mahalla hamkorligida ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirish, ular orasida milliy, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ilmiy-metodik uzviylikni sifat jihatdan yuqori darajaga ko'tarish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

Shubhasiz, tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida



orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi. Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi. O'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar bilan o'tkazayotgani va nimalar bilan mashg'ul bo'layotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'channing salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi.

Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Demak, bola ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan hamohang o'zgarib boraverar ekan.

Masalan, bog'cha yoshida bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lsa, maktab o'quvchisi uchun o'qib, mehnat qilish asosiy faoliyat bo'lib qoladi. Demak, bola hayotida faoliyat turlarining o'zaro munosabati ham o'zgaradi va buning ta'sirida bola kamoloti ham yangi, yuqoriroq bosqichga ko'tariladi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa biryoqlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni tahlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

Pedagogika kursining muhim metodologik muammolaridan biri bu – shaxs tarbiyasi va uning rivojlanishi muammosi hisoblanadi.

O'sib va rivojlanib boruvchi inson tarbiya obyekti hisoblanadi. Butun hayoti davomida insonning rivojlanish jarayoni davom etaveradi. Bu jarayonda u turli o'zgarishlarni, jismoniy, ruhiy, miqdor va sifat o'zgarishlarni o'z boshidan kechirib boradi. Insonda bo'ladigan jismoniy o'zgarishlarga – bo'yining o'sishi, vaznining og'irlashib borishi, suyak va mushak tizimlarining, ichki a'zolari va asab tizimining o'zgarib borishi kiradi. Ruhiy o'zgarishlar esa uning aqliy rivojiga aloqador bo'ladi va insonda ruhiy sifatlarning shakllanib borishi, unda hayot uchun zarur bo'lgan sotsial sifatlarning tarkib topishi hisoblanadi.

Odam bolasining rivojlanishi - bu muhim jarayon sanaladi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy tomondan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Odamning munosabatlari doirasiga kishilar bilan aloqasigina emas, balki tabiatga, hayotga bo'lgan munosabatlari ham kiradi. Mana shu xil ko'p qirrali aloqalar va munosabatlar zaminida har bir shaxs o'z qobiliyati va qiziqishini, o'z bilimi va uquvini namoyon qiladi, o'z ishiga, vazifasiga, burchiga, xalqiga, Vataniga, o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydi. Tabiiyki, shaxsdagi bu fazilatlar faqat tarbiyaning mahsulidir.

Shaxsning kamol topishida va uning xulqiga ijtimoiy va biologik omillarning ta'sir kuchi hamisha bir xil bo'lavermaydi. Sababi odamning xulqiga, munosabatiga va aloqalariga yoshi, bilimi, hayotiy tajribasi, odatlari va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Pedagogikada „shaxs“ tushunchasi „inson“ tushunchasidan farqli o'laroq, insonning ijtimoiy xususiyatlarini anglatadi. Yangi jamiyat boshqa odamlar bilan muomalada bo'lishi, munosabat o'rnatishi natijasida shakllanib boradigan sifatlarni bildiradi. Inson ruhiy xususiyatlarining rivojlanishi (aql, idrok, diqqat, harakat va h. k.), hayotda o'z o'rnini topa olishi, uning Vatan, xalqning ravnaqi yo'lida og'ishmay, e'tiqod bilan xizmat qilishi, iymonli bo'lishi insonni shaxs darajasiga ko'taradi. Bunday sifatlarning ro'yobga chiqishi tarbiyaga bog'liq bo'ladi.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga qanday omillar ta'sir etadi? Bola tarbiyasiga, uning shakllanishiga biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi. Bu muammo pedagogikada avvaldan munozaraga sabab bo'lib kelayotgan masala hisoblanadi.

Ko'p asrlik shu munozara zaminida bir-biriga qarama-qarshi ikki nuqtayi nazar vujudga keldi. Ulardan bir toifasi odam bolasi-ning shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy - biologik omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlarigina rivojlanadi. Bu nuqtayi nazar tarafdorlari tarbiyaning rolini cheklab qo'yadilar. Bu nuqtayi nazar fanda *biologik yo'nalish* deb nomlanadi. Ularning vakillari Aristotel, Platonlarning fikrlaricha, taqdir, tole har kimning hayotidagi o'rnini, mavqeyini avvaldan belgilab bergan.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalarining fikricha, odam bolasi ona pushtidaligidayoq bo'lajak shaxsiga xos barcha xususiyatlarga ega bo'ladi, rivojlanish esa ana shu xususiyatlarning miqdoriy ko'payib borishidan iboratdir. Preformistlar ham naslning shaxs rivojlanishidagi roliga favqulodda yuksak baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini mutlaqo inkor etadilar. Bu nazariyaning yana bir yo'nalishi XX asrda keng tarqalgan *bixeviorizm oqimi* bo'ldi.

Bixeviorizm oqimiga amerikalik pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, shu jumladan, ong va aqliy qobiliyat ham nasldan naslga o'tadi. Bu bilan E.Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini inkor etadi, uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan ojiz deb biladi.

Xuddi shunday nuqtayi nazarni yana bir amerikalik pragmatik pedagoglar D. Dyui va A. Komboslar yoqlab chiqadilar. Ular tarbiyaning shaxsga bo'ladigan faol ta'sirini inkor etib, rivojlanishni faqat miqdoriy o'zgarishdan iborat deb ko'rsatadilar. Odam qanday sifatlar bilan tug'ilgan bo'lsa, tarbiya jarayonida bilim olish, ko'nikma va malaka hosil etishi natijasida xuddi ana shu sifat va

xususiyatlar rivojlanib boradi, degan fikrni ilgari suradilar. Ammo psixologiya va pedagogika fanlarining keyingi yillardagi inson tarbiyasiga, kamolotiga oid ilmiy ma'lumotlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishiga, kamolotga yetuviga murakkab jarayon deb hisoblashga imkon beradi. Uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit hamda maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan tarbiya alohida rol o'ynaydi. Bu ilmiy ma'lumotlar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb qarashga imkon yaratadi. Shunga ko'ra, unda tabiiy kuch va imkoniyatlar bor, ular shaxsning rivojlanishi uchun ma'lum ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, deb ta'kidlanadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar. Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: „Munosib inson“ bo'lish uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo'ldir...“ deydi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosda yoritib berishga harakat qilgan. U, ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: „Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli bo'ladi“ degan fikrni ilgari suradi.

Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarning birortasini ham inkor etmagan holda ularni alohida-alohida ko'rib chiqaylik.

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar. Kichik avlod esa o'z faoliyati davomida duch kelgan yangi-yangi

muammolarning yechimini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarni yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi. Formatsiyalarning o'zgarishi natijasida ish va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishiga o'z ta'sirini o'tkazdi.

Jamiyat taraqqiyoti, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida keyingi avlodga meros qoldiriladigan tajribalar hajmi ham o'sib boraveradi.

Agar ibtidoiy jamoa tuzumi boshlarida bolalar kattalarning mehnati jarayonida bevosita ishtirok etish bilan malaka, ko'nikma va bilimlarni egallab borgan bo'lsalar, keyinchalik ibtidoiy formatsiyalarning tabaqalanishi natijasida mehnat turlari ham o'zgarib bordi. Ayrim bolalarni (qabila boshliqlarining, diniy marosimlarni boshqaradigan shaxslarning bolalarini) diniy marosimlarni ado etishga o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Shunday qilib, ibtidoiy jamoa tuzumidayoq bolalarni tabaqalashtirish an'anasi paydo bo'ldi.

Quldorlik davriga kelib, bu an'ana ko'zga yaqqol tashlandi. Masalan, qullarning bolalari og'ir ishlarni bajarishga o'rgatildi. Quldorlarning bolalari esa qullar ustidan hukmronlik qilishga tayyorlandi. Shu bois ularga saboq berish zaruriyati tug'ildi. Bu esa o'qitishga maxsus, shu sohani biladigan odamlarni jalb etishni taqozo qiladi. Bu hol maktab va o'qituvchilarga bo'lgan zaruratni keltirib chiqardi. Ijtimoiy formatsiyalarning keyingi ravnaqi maktablarni rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyoti talabiga javob beradigan yangidan-yangi o'quv yurtlarining barpo etilishiga olib keldi.

***Tarbiyaning maqsadi.*** Tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi xususida fikr yuritganda, uning aniq maqsadga yo'naltirilgan hodisa ekanligi ta'kidlanadi. Inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu omillar ichida tarbiya muhim va yetakchi o'rinda turar ekan. Haqli savol tug'iladi: tarbiyaning maqsadi nima? Uning maqsadini kim va nima belgilab beradi?

Tarbiyaviy ishning samaradorligi mana shu savollarga to'g'ri javob topishga bog'liq. Ya'ni, birinchi navbatda, tarbiya bilan shug'ullanadigan har bir tarbiyachi, avvalo, o'z faoliyatini va unda ko'zda tutilgan maqsadni aniq tasavvur eta olishi, bu maqsadning muhimligini tushunishi lozim. Demak, qanday odamni tarbiya qilish darkor, tarbiya natijasida inson qanday bo'lishi kerak, degan savollarni avvaldan tasavvur etish zarur ekan. Bu maqsad jamiyatning barkamol inson shaxsini tarbiyalashdek masalasini ko'ndalang qo'yadi.

Tarbiyaning vazifalari keng va ko'p qirralidir. Ta'limning asosiy vazifasi o'qituvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish bo'lsa, tarbiya yosh avlodda jamiyatimizda qabul qilingan odob-axloq qoidalariga mos keladigan e'tiqodni, axloqiy malaka va ko'nikmalarni, ehtiyoj va intilishlarni tarkib toptirishdan iborat. Tarbiyashunos olim Abdulla Avloniy o'zining „Turkiy guliston yoxud axloq“ asarida inson kamolotida tarbiyaning ovrnini alohida ta'kidlab, shunday degan edi: „Janobi Haq insonlarning asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomoni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo'ladir. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqdan saqlanib, go'zal xulqlarga odatlanib katta bo'lsa, baxtiyor bir inson bo'lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o'ssa, nasihatni qulog'iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan nodon, johil, bir rasvoyi odam bo'lib chiqadi“.

Axloqimiz binosining go'zal va chiroyli bo'lishida tarbiyaning ta'siri kattadir. Yuqorida biz, tarbiyadan maqsad - barkamol insonni tarbiyalash, degan edik. Xo'sh, barkamol inson deganda kimlarni tushunmoq kerak?

Sharqona tarbiya ming yillar mobaynida islomiy axloq qoidalari asosida tarkib topib borgan tarixdan ma'lum. Qur'oni Karim oyatlari, Payg'ambar alayhissalom hadislari, ulamo va hukamolarimizning kitoblari tarbiyamizning manbayi bo'lib xizmat qilgan. Islomiy tarbiya musulmonlar hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan.

Islomiy tarbiya bolani yetti jihatdan tarbiyalashni maslahat beradi. Bular: sogʻliq va badan tarbiyasi, aqliy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, vijdoniy-nafsoniy tarbiya, diniy-ruhiy tarbiyadir.

Rasululloh sallallohu alayhi vasallam „Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, tarbiyasini, odobini ham yaxshilanglar!“ deganlar. Shu bilan birga, „Hech bir ota oʻz farzandiga xulq-odobdan yaxshiroq meros qoldirolmaydi“ deb, tarbiyada ota-onaning rolini belgilab oʻtganlar.

Islomiy (sharqona) tarbiya barcha moʻmin-u musulmonlarni nihoyatda xush xulqli, shirin soʻzli, oliyanob boʻlishga daʼvat etadi.

Bir rivoyatda yaxshi tarbiya koʻrganing oʻnta nishonasi sanab oʻtiladi:

1. Xalq toʻgʻri deb topgan narsaga notoʻgʻri deb qaramaslik.
2. Oʻz nafsigina insof berishni soʻrash.
3. Boshqalardan ayb qidirmaslik.
4. Birovda yomonlik sodir boʻlsa, uni yaxshilikka yoʻyish.
5. Agar gunohkor uzr soʻrasa, uning uzrini qabul qilish.
6. Muhojirlar hojatini chiqarish.
7. El gʻamini yeyish.
8. Oʻz aybini tan olish.
9. El bilan ochiq yuzli boʻlish.
10. Odamlar bilan shirin muomalada boʻlish.

Turli tarixiy davrlarda tarbiyaning maqsadi ham, xususiyati ham oʻzgarib boradi. Buni ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm va kapitalizm formatsiyalari misolida ham koʻrish mumkin. Ibtidoiy jamoa tuzumida tarbiyaning maqsadi oddiy boʻlib, shunchaki insonning hayot kechirishini taʼminlashga xizmat qilgan.

Quldorlik tuzumida quldorlar va qullarning paydo boʻlishi tarbiyaning xususiyati va maqsadini ham oʻzgartirdi. Quldorlarning bolalari hukmron boʻlishga intildilar, bosqinchilik urushlari olib borish uchun harbiy sanʼatni oʻrganib



bordilar. Qullarning bolalari oddiy qora ishni bajarish, mehnat jarayonida ishtirok etishga o'rgatildi.

Feodalizm tuzumiga kelib tarbiya keskin tabaqalana boshladi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivoj topa borishi ta'lim mazmunini o'zgartirib yubordi, ta'lim sekin-asta ilmiy xarakter kasb eta boshladi, bu, o'z navbatida umumiy ta'lim kurtaklarining paydo bo'lishiga olib keldi. Endi feodal bolalariga ilmiy bilimlar berish, ularni maxsus maktablarda tarbiyalash zarurati tug'ildi.

Kapitalizmga kelib tarbiyaning tabaqalanish xususiyati yana kuchliroq sezila boshladi. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlarining rivojlanishi, ishlab chiqarish korxonalarida ishlash, dastgohlarni boshqarish, ish unumdorligini oshirish ishchilardan savodxonlikni, ilmi bo'lishni talab etdi. Bu davrga kelib ishchilarning bolalariga ham birmuncha ilm berish, o'qish davrida ularga shaxsiy mulkni muqaddas ekanligini uqtirib borish tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lib qoldi.

***Aqliy tarbiya.*** Inson hamisha odamlar qurshovida yashaydi, ijtimoiy muhit sharoitida uning aqliy rivojlanishi, fikrlash qobiliyati amalga osha boradi. Bunda insonning normal jismoniy rivojlanishi uchun sharoitlar bo'lishi kerak.

Insonning aqliy rivojlanishi sotsial muloqot va tarbiya ta'sirida intensiv rivojlanib boradi. Agar tarbiyachi o'z vaqti va o'rnida rejali ravishda uning bilish faoliyatiga ta'sir ko'rsata borsagina aqliy rivojlanish muvaffaqiyatli ko'chadi. Demak, aqliy tarbiya deganda tarbiyachining o'quvchilar aqliy kuchini va tafakkurini rivojlan-tirish, unda aqliy mehnat madaniyatini tarkib toptirishga qaratilgan maqsad yo'lidagi faoliyati tushuniladi.

Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiya tizimining bir qismi bo'lib, uning mazmuni barcha fanlar bo'yicha bilimlar sistemasini bilib olishni va shu asosda yoshlarda ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirish, tafakkur va nutq qobiliyatini o'stirishdan iboratdir.

Aqliy tarbiya barcha fanlardan umumiy ma'lumot berish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga maktab dasturlari asosida bilim berilib, ularga xotira, diqqat, fikrlash, tasavvur qilish kabi xislatlar taraqqiy ettiriladi.

Abu Nasr Forobiy inson aql-zakovati xususida fikr yuritib, bunday deydi: „Barcha masalani: muhokama va mulohazani tezda tushuna oladigan, uning ma'nosini anglaydigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin.

1. Xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birontasini ham esidan chiqarmay, yodda saqlab qoladigan bo'lsin.

1.Zehni shu daraja tez va o'tkir bo'lsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishini tezda bilib olsin.

2.So'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

3.Bilim va o'qishga muhabbati bo'lsin, o'rganmoqchi bo'lgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan o'zlashtira olsin“<sup>1</sup>.

Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama kamol topishining asosini tashkil etadi. U mehnat unumdorligini oshiradi va mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi.

**Axloqiy tarbiya.** Axloq –ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib-qoidalarining yig'indisi sifatida gavdalanadi. Xulosa qilib aytganda, insonning tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarga bo'lgan munosabatidan uning axloqi namoyon bo'ladi. Xalqimiz axloqiy fazilatlarni qadim zamonlardan beri boyitib kelgan. Axloq-odobga oid fikrlar „Avesto“ kitobida, qadimgi bitiklarda, pandnomalarda va boshqa yozma manbalarda o'z ifodasini topgan.

O'tmishdagi ulug'allomalarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham muhim tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgan emas.

Jumladan, qomusiy olim Abu Nasr Forobiy axloqiy fazilatlar haqida gapirar ekan, uning xislatlari haqida quyidagi fikrlarni bildiradi:.

1. Bunday odamning barcha a'zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi kerakki, u bu a'zolari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarni osonlik bilan amalga oshira olsin...

2. Ovqatlanishda, ichimlik iste'mol etishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan uzoq bo'lsin va ular keltiradigan „xursandchilik“lardan jirkanadigan bo'lsin.

3. Haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

4. G'ururi va vijdonini qadrlaydigan bo'lsin, uning ruhi o'z tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan bo'lsin.

5. Dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin.

6. O'z tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchi, adolatsizlikka, jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin, adolatli bo'lsin.

7. Adolatli bo'lsin, ammo qaysar bo'lmasin...“<sup>1</sup>

Inson shaxsining kamoloti uning butun umri davomida amalga oshib boraveradi. Bu fazilat insonning boshqalar bilan bo'lgan muomalasida, voqelikka, jamiyatga bo'lgan munosabatida va uning xatti-harakatlarida, fe'l-atvorida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya, umuman olganda, tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanuvchilarda axloqiy tasavvurlar tizimini shakllantirishni, axloqiy his-tuyg'ularni, voqea va hodisalarga to'g'ri munosabat bildira olish kabilarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Insonning axloqiy qiyofasi butun umri davomida shakllanib boradi. Inson onadan mehnatsevar ham, dangasa ham, johil ham bo'lib tug'ilmaydi. Bu va shunga o'xshash axloqiy sifatlar bolani o'rab olgan ijtimoiy muhitning, tarbiyaning ta'siri hisoblanadi.

---

<sup>1</sup>Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. 1993- y.)

Tarbiya jarayonini tashkil etishda axloq va oqillikka tayanilsa, axloq bolada yaxshi fazilatlarni kamol toptirsa, ikkinchisi o'zgarlar illatidan himoya qiladi. Demak, tarbiya ham axloqqa, ham insoniy munosabatlarga, asrlar osha xalq tajribasidan sinovdan o'tib, o'zining umrboqiyiligini isbotlagan qadriyatlarga, an'ana va urf-odatlariga bog'lansagina kuzatilgan natijaga olib keladi“.

**Jismoniy tarbiya.** Jismoniy tarbiya inson kamolotiga ta'sir etadigan eng qadimiy tarbiya vositalaridan hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari o'quvchilarning salomatligini mustahkamlash, ularni mehnatga, mustaqil mamlakatimizni himoya qilish va ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iborat.

Maktabda o'quvchilarga jismoniy tarbiya harakatli o'yinlar, gimnastika, sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositasida beriladi.

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslaridan ko'zda tutilgan maqsad, asosan, bolalarni o'z qaddi-qomatini to'g'ri tutishga, muhim harakatlarni (yurish, sakrash, yugurish) to'g'ri bajarishga odatlantirish va buyumlar bilan mashq bajarishga o'rgatishdan iborat. Eng muhimi, bolalarga salomatligi haqida o'zi g'amxo'rlik qilishi zarur ekanligi to'g'risidagi fikrni singdirishdir. Chunki inson salomatligi, jismoniy barkamolligi nafaqat uning shaxsiy ishi, balki bu davlat ahamiyatiga molik vazifa hamdir.

**Mehnat tarbiyasi.** Mehnat tarbiyasi oldida turgan asosiy vazifa o'quvchilarga mehnat ta'limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o'rgatib, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir. Bu vazifalarni ikki turkumga ajratish mumkin. Birinchidan, mehnatga bo'lgan munosabat jarayonidagi zarur bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Yoshlarda xalqi, vatani manfaati yo'lida mehnat qilish xohishini tarbiyalab, mehnatga hayotiy zarur faoliyat deb qarashlarini tarkib toptirishga erishiladi. Ikkinchidan, guruh vazifalari, mehnat faoliyatini bajarish jarayonida zarur bo'ladigan bilimlar o'zlashtiriladi, fan asoslari, politexnik ta'lim o'rganiladi.

Mehnat tarbiyasi tushunchasi umumiy bo'lib, bu tushuncha bir qancha xususiy tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bulardan birinchisi: politexnik ta'lim, bu ishlab chiqarishning barcha sohalariga taalluqli bo'lgan ilmiy asoslarni va prinsiplarni, mehnat ko'nikma va malakalari, oddiy mehnat qurollari bilan muomala qilish kabilarni o'zlashtirishni taqozo qiladi.

Ikkinchisi: bu umumiy mehnat. Umumiy mehnat o'quvchilarni mahsulot ishlab chiqariladigan faoliyatga jalb etilishini taqozo qiladi. Uchinchisi: ijtimoiy-foydali mehnat. Bu mehnat turi ko'pchilik foydasiga ishlashni nazarda tutadi (temir-tersak, makulatura yig'ish, sinf, maktabni ta'mirlashga yordam berish, maktab uchastkasida ishlash). To'rtinchisi: o'z-o'ziga xizmat qilish. U maishiy xizmat turiga kirib, sinf, maktab ozodaligini saqlash, o'zining ish joyini, kiyim-kechagi, o'quv qurollarini ozoda, tartibli saqlashni nazarda tutadi. Beshinchisi: uy mehnati, bu ham maishiy mehnat turiga kirib, uyda ozodalikka rioya qilishni, otanonaga uy ishlarida yordam berishni taqozo qiladi.

*Nafosat tarbiyasi.* Nafosat tarbiyasi san'atdagi, tabiatdagi, qurshab olgan hayot voqeligidagi go'zallik vositalari asosida tarbiyalash bo'lib, jahon pedagogikasida insonni garmonik tarbiyalash vositalaridan biri deb hisoblab kelingan.

Nafosat tarbiyasining asosiy vazifasi tabiatdagi, san'atdagi, hayotdagi go'zallikni qabul qila olish, tushunish qobiliyatini tarbiyalash, fahmlash, go'zallikka rioya qilishga odatlantirishdan iborat. Nafosat tarbiyasi davomida bola hayotdagi go'zallikni tushunadi, go'zallikni muhofaza qilishga, o'zi ham go'zallik yaratishga intiladi.

Umar Xayyom go'zallik, uning xosiyati xususida fikr yuritib, shunday deydi: „Go'zallik barcha tillarda vasf etiladi va har qanday aqlga xush keladi. Dunyoda yaxshi narsalar ko'p, ularni ko'rib bahramand bo'lish odamlarni shod etadi va tabiatlarini pokiza qiladi, ammo hech narsa go'zal yuzning o'rnini bosolmaydi,

chunki go‘zal yuz shunday quvonch baxsh etadiki, boshqa hech qanday quvonch unga teng kela olmaydi. Aytadilarki, go‘zal yuz dunyoda saodat sababchisidir”.<sup>20</sup>

Nafosat tarbiyasi o‘quvchilarda axloqiy qiyofa, ijobiy xulq-atvor normalarini tarkib toptirishga, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga ta’sir qiladi.

### **Tarbiya metodlari**

Maqsad, mazmun, shakl kategoriyalari tarbiya jarayonining mohiyati (u nimaga qaratilgan, nimani to‘ldiradi, nimaga yo‘naltirilgan, qanday shaklda tugallanadi)ni ochib beradi. Biroq, tarbiya mohiyatini yoritishda qanday qilib tarbiyalash savoli bilan aloqador yana bir muhim kategoriyabu tarbiya metodi tushunchasidir.

*Tarbiya metodi* (yunoncha «metodos» – yo‘l) tarbiya maqsadiga erishishning yo‘li. Maktab amaliyotiga tatbiq etilganda, metodlar – bu tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.

Tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi etmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o‘zining imkoniyatiga ko‘ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o‘zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi. Tarbiya metodlarini bunday xususiy takomillashtirish tarbiya usullari deb ataladi. Tarbiya usullari – umumiy metodning bir qismi, alohida harakati, yanada aniqlashuvi. Obrazli aytganda, usullar – bu qo‘yilgan maqsadga tezroq erishish uchun tarbiyachi o‘zining tarbiyalanuvchilari bilan yo‘l ochadigan o‘rganilmagan so‘qmoq. Agar uni boshqa tarbiyachilar ham foydalana boshlasa, u holda asta-sekin usullar keng ustunli yo‘llar – metodlarga aylanishi mumkin. Tarbiya metod va usullarini bilish, ularni to‘g‘ri qo‘llay olishni egallash – bu pedagogik mahorat darajasini belgilovchi muhim tavsiflardan biri. Tarbiya metod va usullarining aloqadorligi ana shunda.

---

<sup>20</sup> U.Xayyom. Navro‘znoma. Toshkent. 1990-y

Amaliyotda *tarbiya vositalari* tushunchasi ham ajratiladi. Usullar deganda ta'sir ko'rsatishlar birligi, vosita deganda, usullar yig'indisi tushuniladi. Vosita – bu usul ham emas, metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, biroq uni ko'rsatib berish, mehnatni baholash, ishdagi xatoni ko'rsatish – bu usullar. So'z (keng ma'noda) – tarbiya vositasi, biroq replika taqqoslash – usullar. Bu bilan bog'liqlikda ba'zan tarbiya metodlari qo'yilgan maqsadni muvafaqqiyatli amalga oshirish uchun foydalaniladigan usul va vositalar tizimi sifatida aniqlanadi. Xuddi shuningdek metodning tuzilishida usullar va vosita albatta mavjud bo'ladi.

Tarbiya metodlarining maqsadi va mazmuni.

Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.

1. *Tarbiyaning maqsad va vazifalari.* Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

2. *Tarbiya mazmuni.* Unutmaslik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

3. *Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.* U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi. Yosh bu oddiygina qancha yashaganligi son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va ahloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

4. *Jamoaning shakllanganlik darajasi.* O'zini-o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan qolmaydi. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi

tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvafaqqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. *Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari.* Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularni individual va shaxsiy tuzatish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini amalga oshirishiga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

6. *Tarbiyaviy shart-sharoitlar.* Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigienikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularni birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar nomini oldi.

7. *Tarbiya vositalari.* Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qullaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud darslikdir. Masalan, metodlarni samarali qo'llanilishi uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

8. *Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.* Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llashni egallagan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchida ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natijada turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda samarasi past bo'ladi.

9. *Tarbiya vaqti.* Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, «kuchli harakatlantiruvchi» metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning «ayaydigan» metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani «kuchli harakatlantiruvchi» va «ayaydigan» metodlarga bo'linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o'rgatish bilan bog'liq.



10. *Kutiladigan natija.* Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvafaqqiyatga erishishiga ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish kerak.

### ***Tarbiya metodlarining tasnifi***

Zamonaviy pedagogikada ba'zilar amaliy vazifalarni hal etishga, ba'zilar faqat nazariy vazifalarni o'zida aks ettiradigan o'nlab tarbiya tasniflari mavjud.

Metodlar o'ziga xos xarakteriga ko'ra ishontirish, mashq, rag'batlantirish va tanbeh berishga bo'linadi. Mazkur holatda metodning umumiy xarakterli belgisi uo'zida yo'nalganlikni, o'ziga xoslikni, qo'llanishga yaroqlilikni aks ettiradi. Bu tasnifga metodlarning ko'proq umumlashganligi bilan ajralib turuvchi tarbiyaning umumiy metodlari mustahkam tutashib ketadi. U o'zida ishontirish, faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning xulq-atvorini rag'batlantirish metodlarini qamrab oladi. I.S.Marenkoning tasnifida tarbiya metodlari guruhlar quyidagicha nomlanadi: tushuntirishli-reproduktiv, muammoli vaziyatli, o'rgatish va mashq metodlari, rag'batlantirish, to'sqinlik qiluvchi, boshqarish, o'zini-o'zi tarbiyalash.

Tarbiyalanuvchilarga ta'sir etishi natijalariga ko'ra metodlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, tasavvur, tushuncha, g'oyalarni shakllantirishga ta'sir etuvchi.
2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog'liq bo'ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

O'quvchilar u yoki bu tarbiyaviy ta'sirga turlicha munosabatda bo'ladi. Bu ularning alohida xususiyatlariga, tarbiyalanganlik darajasiga, tarbiya metodlarining qay darajada o'rinli va samarali tanlanganligiga hamda mohirona qo'llanganiga bog'liq. Tarbiya metodlarini to'g'ri tanlash tarbiya vazifalarini ijobiy hal qilishda o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash faolligini oshirishga

yordam beradi. Masalan, o'qituvchi birinchi sinf o'quvchilari bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni ular uchun yangi bo'lgan mehnat faoliyatini o'rgatishda o'quvchilarning xulq-atvor qoidalarini, ularda kun tartibi aniq bo'lishi muhimligini, ularga o'quvchilarning qat'iy tartibga amal qilishi zarurligini tushuntirish metodidan foydalanadi. Tushuntirish bilan bir qatorda sinfga to'g'ri kirib kelishga, ularni o'qituvchi va o'quvchilar bilan salomlashishga, tartib-intizomni saqlashga mashq qildirib boradi. Shuning bilan birgalikda birinchi sinf o'quvchilarini yuqoridagi jarayonlarga dars vaqtida odatlantirib boradi. Bu jarayonda ularning amalga oshirgan ijobiy ishlari, o'quv ishi natijalari rag'batlantirib borishni taqozo etadi. Ko'rinib turibdiki, o'qituvchi o'quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo'llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko'rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlarga ajratish mumkin. Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o'qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o'zlashtirib olish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o'quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me'yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me'yorlar shaxsning e'tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi. Ushbu guruhga ma'naviy, axloqiy, estetik, mafkuraviy, huquqiy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy va h.k. mazmundagi suhbatlar hamda namuna ko'rsatish metodlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qiladi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarni bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda

qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, intilish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajada ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

O'rgatish – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

O'rgatish o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi. Faoliyatda mashqlar mehnat, ijtimoiy faoliyat, jamoa faoliyati hamda o'zaro munosabat odatlarini tarbiyalashga qaratilganligidir. Mashq qilish o'rgatish bilan yaqin aloqada bo'ladi. Agar o'rgatib borish negizida bolaning faoliyat jarayonini egallashi yotsa, u holda mashq qilish faoliyati shaxs uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Mashqlantirish o'rgatib borishga suyangan holda ko'p bora takrorlashni, mustahkamlashni va takomillashtirib borishni nazorat qiladi, bular esa bora-bora ijtimoiy xulq-atvorning asosi bo'lib qoladi.

Tarbiyaviy amaliyotda ko'pincha maxsus pedagogik vaziyatlarni yuzaga keltirish zaruriyati tug'iladi, bunda mustaqil tanlash uchun imkon bo'ladi. Pedagogik vaziyatlarda o'quvchilar o'z fikri va xulq-atvorini qayta o'zgartirishi lozim bo'lgan sharoit yaratiladi.

Ikkinchi guruh metodlari orasida musobaqa o'quvchilar amaliy faoliyatlarini tashkil qilish metodlari samaradorligini oshirishning zarur va muhim sifati hisoblanadi. Musobaqa faoliyatining barcha sohalarida o'quvchilarning faolligi va

ijodkorligini rivojlantirishga, o'quvchilar jamoasi faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Musobaqa to'g'ri tashkil qilinganda jamoa hissi muvaffaqiyatli shakllanadi, intizom va o'quvchilarning uyushqoqligi mustahkamlanadi.

Musobaqaning alohida turi bo'yicha, shuningdek, tizimli tarzda ham uyushtiriladi: chunonchi, eng yaxshi sinf, eng yaxshi guruh, eng yaxshi jamoa, eng yaxshi maktab va h.k.

Tarbiya jarayonida o'quvchilarning o'zlari tashabbus va g'ayrat ko'rsatishi asosida musobaqani tashkil etishlariga, uning sharti va ko'rsatkichlarini ishlab chiqishlariga erishish muhimdir. Shuningdek, jamoaning umumiy muvaffaqiyati, qabul qilingan majburiyatning bajarilishi, musobaqa natijalarini stendlarda aks etishini ta'minlash to'g'risida g'amxo'rlik qilish zarur. Musobaqani rasmiy axborotlar uchun tashkil etish maqsadga muvofiq emas. Jamoatchilik fikri musobaqa faoliyatining muhim asosi bo'lib qoladi.

Birinchi va ikkinchi guruh metodlarini o'zaro bog'liq holda qo'llanishi orqali ong va xulq birligi yuzaga keladi, ammo bu o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki o'qituvchining tashkilotchilik mahorati hamda uning o'quvchi ongi, xulqiga ta'sir etadigan vositalar xususiyatlari, ahamiyatini ko'ra olishiga bog'liq. Bir so'z bilan aytganda bugungi o'quvchi tarbiya natijasida ertagni komil inson, ya'ni jamiyatning barkamol a'zosiga aylanadi. Buning uchun uning ongi va tafakkuri rivojlanib, ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirib borishi lozim.

Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

Inson ongi – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bularda tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir

ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

### ***Tarbiyada ibrat va numana ko'rsatishning tutgan o'rni***

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-ona, ustoz-murabbiylar, rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi. Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlarimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Ilgarigi zamonda shunday maqol bor edi: «Domlaning aytganini qil-u, qilganini qilma». Hozir bu maqol eskirdi: o'smir va o'spirinlar ko'pincha ustozlari va kattalarning tashqi yashash tarzidan o'rnak oladilar, ya'ni ular «domlaning qilganini... qilishadi». Bu o'rinda ularning quyidagi haqli e'tirozlarini inobatga olish zarur.: «Nima uchun chekmagin, ichmagin deyishadi-yu, o'zlari chekishadi, ichishadi?», «Nima uchun rost gapirgin deydilar-u, o'zlari yolg'on so'zlaydilar?», «Nima uchun to'g'ri, halol bo'lish kerak deydilar-u, o'zlari pora oladilar?». Agar o'qituvchi va boshqa ana shunday so'zda to'g'ri-yu, amalda noto'g'ri ish tutishsa, shogirdlari qanday qilib uni hurmatlaydi? Undan nimani o'rnak qilib oladilar? Shu ma'noda tarbiyachi har vaqt o'z so'ziga amal qilishi va so'zining ustidan chiqishi kerak. Ibratning aynan ana shu jihati komil inson tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, Yunonistonning mashhur mutafakkirlari – Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalaridan keng o'rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarni egallagan bo'lishi darkor. «Shuni bilginki, – deydi Arastu, – ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas, va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi

bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalay aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?».

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid «Rushnoinoma», «Qobusnoma» Farididdin Attorning «Pandnoma»si, O'bayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari Al-Kindiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o'rni beqiyosdir. Bu o'z navbatida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolotlaydi.

### ***Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari***

Rag'batlantirish metodlari – o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma-xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofatlash va boshqalar kiradi.

Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakkam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining

muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'zni, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

Jazo berish metodlari – bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham hilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatidan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish chog'ida salbiy xatti-harakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak.

Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtni, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunonchi, ko'rgazmali, o'quv qurollari badiiy-

ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slayd, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg'u, xulq-atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uyushtiriladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarga tayangan holda mavzu yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1. Tarbiya jarayonining asosini, ijtimoiy hayotining obyektiv talablarini, shaxsning ijtimoiy mohiyatini hamda tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etgani bois tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarni chuqur o'rganishni talab etadi.

2. Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq. Tarbiya tamoyillari yosh avlodni tarbiyalash maqsadidan kelib chiqqan va komil insonni tarbiyalashning mazmuni, metodlari va yo'nalishiga qo'yiladigan eng muhim talablarni belgilab beruvchi asosiy g'oya va qoidalar yig'indisidir.

3. Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'xshash jihatlariga ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlari ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish**



Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash shaxsda ijtimoiy faol, ma'naviy yetuklik tuyg'ularni shakllantirish bilan bir qatorda, bo'lajak o'qituvchi-pedagoglar zimmasiga yoshlarni Vatanga muhabbatli, e'tiqodli, mehr-muruvvatli, oqil, halol, pokiza, insonparvar, xalqparvar, ma'naviy-axloqiy kompetentli etib tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Mana shu fazilatlarni o'zida mujassam eta olgan yoshlargina yuksak axloqqa erishgan, ma'naviy yetuk, ijtimoiy faol shaxs bo'la oladilar. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik tushunchasining mazmun-mohiyati ko'p qirralidir. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorlik maxsus psixologik holat bo'lib, sub'ektda ma'lum bir harakatning tuzilishi va uni bajarish doimiy ravishda ongning diqqat markazida bo'lishi nazarda tutiladi. U pedagogik vazifani anglashga turli xil munosabatlarni, ehtimoliy xulq-atvor modellarini, faoliyatning maxsus usullarini aniqlashni, qiyinchiliklarga nisbatan ularning imkoniyatlarini baholash va ma'lum bir natijaga erishish zarurligini o'z ichiga oladi.

L.A.Baykova tarbiyaviy faoliyatni o'qituvchining o'quv faoliyati mobaynida o'quvchilarni tarbiyalashdagi ijobiy natijalarga erishishga qaratilgan ma'lum qobiliyatlarni o'z ichiga olgan komponent deb qaraydi<sup>21</sup>.

Undan farqli o'laroq, V.D.Shadrikov tarbiyaviy faoliyat tushunchasini uni tashkil etish mazmuni va funktsiyalaridan xabardor mutaxassis shaxsi bilan bog'lab, mazkur faoliyatni tashkil etishning mazmuni, o'ziga xos xususiyatlarini anglashiga ishora qiladi<sup>22</sup>.

***Demak, tarbiyaviy faoliyat tarbiya jarayonining maqsad va vazifalari, mazmuni, funktsiyalarini bilish, ijobiy natijalarni kafolatlashga qaratilgan pedagogik qobiliyat turidir.***

---

<sup>21</sup> Байкова Л.А. Методика воспитательной работы: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Академия, 2006. – С. 120.

<sup>22</sup> Шадриков В.Д. Психология деятельности и способности человека. – М.: Логос, 1996. – 320 с. <https://www.ds62spb.ru/images/innovacii/seminar-vosp-prof-zanyatie6-3>

Tarbiyaviy ishlarga tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik tizimidan kasbiy faoliyat tizimiga o'tish davridagi shaxsiy holatini aks ettiruvchi ajralmas xususiyatdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga tayyorlash va amalga oshirish davomida pedagogning insoniylik, tashabbuskorlik faolligi, o'quv jarayoni sub'ektlarining o'zaro munosabatlari tengligi va yana ko'p narsalar kabi xususiyatlari faoliyat ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayoni ulardan umumiy pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi kabi fanlar doirasida o'rganiladigan barkamol shaxs tarbiyasining mazmuni, mohiyati, xususiyatlari, qonuniyatlarini bilish va ularga amal qilishni talab etadi.

SHu munosabat bilan pedagogning bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda quyidagilarni bilishlarini nazarda tutadi: pedagogik jarayon mazmuni, uni amalga oshirish kompetentsiyalariga egalik; pedagogik jarayon improvizatsiyasini egallaganlik; pedagogik jarayonni tashkil etish qonun va qonuniyatlari, tamoyillari; jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish va o'quvchilarning zehn va qobiliyatlarini e'tiborga olish; ular bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatish zarurati; o'quvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari vakillari bilan samarali muloqot usullariga ega bo'lish; talabalarning jamoaviy faoliyatini tashkil etish qobiliyati va boshqalar.

Tarbiyaviy faoliyat samarali bo'lishi uchun mutaxassis quyidagi ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirishi maqsadga muvofiq:

**1. Prognostik ko'nikma.** Ushbu guruhga kundalik pedagogik faoliyatda aniq tarbiyaviy vazifalarini aniqlash va uni tashkil etish qobiliyati kiradi; tarbiya jarayonining qisqa, uzoq va o'rta muddatli maqsadlarini shakllantirish; tarbiya ishlarini joriy va uzoq muddatli rejalashtirishni amalga oshirish; tarbiyaviy faoliyatning maqbul usullarini bashorat qilish; talaba shaxsini va ta'limining individual dasturini amalga oshirish; tarbiya jarayonining mumkin bo'lgan

qiyinchiliklari va xatolarini oldindan aytib berish, u yoki bu holatni oldindan aytib berish; tarbiyaviy ishlar natijalarini, shaxs va jamoaning ta'lim darajasini oldindan aytib berish.

**2. Tashkiliy ko'nikmalar** tarbiyaviy faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilish qobiliyatini nazarda tutadi; vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyatini tashkil etish; umuman tarbiya jarayonini tashkil etish, ta'limning yangi texnologiyalarini egallash; tarbiyaviy faoliyat ishtirokchilarini jarayonda faol ishtirkolarini ta'minlash, ularning ijodkorligi va tashabbuskorligini rag'batlantirish; xulq-atvor, ijodiy yondashuvlarini qo'llab-quvvatlash.

**3. Kommunikativ ko'nikmalarga** muloqot qilish, tarbiya sub'ektlari bilan umumiy til topish qobiliyati kiradi; bo'lajak o'qituvchilarning tarbiya sub'ektlari, ularning ota-onalari, hamkasblari bilan pedagogik jihatdan mos munosabatlarni o'rnatish, maktabdan tashqari muassasalar bilan hamkorlik qilish; jamoaviy munosabatlarini, hamkorlik pozitsiyasini, haqiqiy muammolarni birgalikda hal qilishga tayyorligini rivojlantirish; muloqotning demokratik uslubini amalga oshirish; turli xil pedagogik texnikani qo'llash, jamoaning hissiy muhitini boshqarish; bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish; har qanday bolaning ijobiy idrokini rivojlantirish.

**4. Ijodiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati** pedagog faoliyatining ijodiy tabiati, talaba va o'qituvchining individual ijodiy rivojlanishida, faoliyat va ijodkorlikni algoritmlash usullarining kombinatsiyasida, u yoki bu vaziyatda jarayonni ijodkorlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, mavjud tajribalarni improvizatsiya qilish asosida o'zlashtirish qobiliyatida ifodalanadi. Tarbiyaviy faoliyatdagi ijodkorlik nafaqat talabaga yondashuvda, balki tashkil etiladigan tadbir mavzusi, mavjud materialini taqdim etish, tarbiya shakli, tarbiya usullari va vositalarini tanlashda ham ko'rinadi. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish va material mazmunini tanlashning ijodiy yechimi, noan'anaviy tadbirlarni tashkil etish tadbirning samaradorligini va bo'lajak o'qituvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan ijobiy sifat va fazilatlarni shakllantirishni ta'minlashi bilan bir qatorda ularda tarbiyaviy faoliyatni uyushtirish, amalga oshirishga bo'lgan

rag'batni uyg'otadi.

**5. Individual yondashuvni amalga oshirish qobiliyati.** Ushbu ko'nikmalar guruhi tarbiya sub'ektlarining individual xususiyatlarini tizimli o'rganishni o'z ichiga oladi; ijobiy individual xususiyatlarni rivojlantirish; tabaqalashtirilgan guruh va individual tarzda ishlash, o'zaro ta'sir o'tkazish texnikasi, usullarini tanlash va asoslash; ularning xatti-harakatlarini to'g'rilashda yordam berish; diagnostik vositalarni saqlash orqali erishilgan natijalarni tahlil qilish.

**6. Tadqiqot ko'nikmalari.** Bizning tadqiqotimizda bu ko'nikma tarbiyaviy faoliyat jarayonida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish asosida muhim natijalarni olishga qaratilgan ilmiy pedagogik jarayon deb qaraldi. Bu bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir masalalarni tadqiq etish, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan ishlash, kuzatuv o'tkazish, tahlil qilish, tajriba o'tkazish qobiliyatlarini nazarda tutadi.

### **Tarbiyaviy faoliyatda innovatsiyalar**

Mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga oid innovatsiyalarni joriy etishning yaxlit tizimini yaratish, yangilikka intiluvchan, innovatsion faoliyat bilan shug'ullana oladigan pedagog kadrlarni tayyorlash masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Yuksak texnologiyalar asosida dunyo miqyosida raqobatbardosh zamonaviy kadrlarni tayyorlash ishlarini samarali tashkil etish yo'lida aniq harakatlardan biri O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 7 aprelda qabul qilingan "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonun hisoblanadi<sup>23</sup>.

---

<sup>23</sup> Ўзбекистон Республикасининг "Инновацион фаолият тўғрисида"ги ЎРҚ-630 Қонуни // Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 7 апрелдаги қабул Қонуни. 2020 йил 24 июль. – Т., 2020.

Innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismini tashkil etadi. Unga singdirilgan tarbiya g'oyalari, axloqiy me'yorlarni egallash umumqabul qilingan qoidalar asosida bexato sodir bo'ladi.

Ta'limda pedagogik innovatsiyalarning muayyan usullari, vositalari, yo'l-yo'riqlarisiz tarbiya jarayonini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. SHu jarayonda yangi talablar bilan bog'liq holda modernizatsiyalashgan texnologiyalar yangilik hisoblanadi.

“Innovatsiya”, “innovatsion yondashuv”, “innovatsion faoliyat” kabi tushunchalarga turlicha yondashuvlar mavjud. Aslida “innovatsiya” atamasi lotincha “novatio” so'zidan olingan bo'lib, “yangilanish” (yoki “o'zgarish”), “in” qo'shimchasi lotinchadan “yo'nalishda” deb tarjima qilinadi, agar buni yaxlit “innovatio” ko'rinishida tarjima qilinsa – “o'zgarishlar yo'nalishida” deb izohlanadi.

“O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi” da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: “Innovatsiya inglizcha “innovationas” so'zidan olingan bo'lib, kiritilgan yangilik, ixtiro ma'nolarini anglatatib, 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy–texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi”<sup>24</sup> tushuniladi.

N.Muslimov: “Innovatsiyani jarayonga yangilik olib kiradi”<sup>25</sup> degan g'oyani ilgari suradi, G.M.Kodjaspirova, A.Yu.Kodjaspirovlar<sup>26</sup> innovatsiya

---

<sup>24</sup> Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Зебунисо-Кониғил. Бош тахрир хайъати аъзолари: М.Аминов ва б. – – IV жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2002. – 169-бет.

<sup>25</sup> Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. – Т., 2007. – 337 б.

<sup>26</sup> Коджаспирова Г.М., Коджаспиров А.Ю. Педагогический словарь: Для студентов высших и средних педагогических учебных заведений. – М.: Академия, 2010.

so'zlari bir-biriga sinonim "yangilik, yangi tartib-qoidalar, degan ma'noni anglatishini bildirganlar. Aslida yangilik bu – aynan vosita, metod, usul va uslubning yangiligi bo'lsa, innovatsiyalar esa jarayonga, uning tarkibiy qismlariga, muhitga yangiliklarni kiritish asosida tizimni bir holatdan ikkinchisiga o'tishini bildiradi.

"Innovatsiya" tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatiladi. Birinchi ma'noda innovatsiya – biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya'ni yangilik yaratish, tarqatish va qo'llashni o'z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida qaraladi. "Innovatsiya", ikkinchi ma'noda, biror bir jamoa faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya sub'ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yangi vosita, uslub, yondashuvlar tizimiga nisbatan ishlatiladi.

"Innovatsiya" maqsadga qaratilgan o'zgarish bo'lib, qo'llanilish sohasidagi tizimning sifatini ko'tarish, sermahsul natija olish, uni tubdan takomillashtirish"dir. SHu ma'noda, asosiy e'tibor nafaqat innovatsiyalarga, balki innovatsion faoliyatga qaratilishi, uni rivojlantirishga urg'u berilishi maqsadga muvofiqdir.

***Keltirilgan ta'riflarning har bir o'ziga xos mazmun kasb etishini qayd etgan holda, biz "innovatsiya" bu g'oya bo'lib, uning natijasi foydalanishga kiritilgan yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulot yoki jarayon, degan fikrdamiz.***

innovatsion yondashuv bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash natijali bo'lishida tarbiya jarayonini ilmiy asosida tashkil etish hamda munosabaldagi kreativ yondashuv tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

***Innovatsion faoliyat*** – bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimi sifatida ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina

emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir.

Bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuv bu – tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanilgshdir.

SHu bilan birga, tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy etishda uni tarbiya jarayonining barcha komponentlari: maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari hamda natijasiga tegishli ekanligi aniqlandi (jadvalga qarang).

### 1-jadval

#### Tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy etish

##### mazmuni

<b>Tarbiyaviy faoliyat maqsadi</b>	<b>Modernizatsiyalashgan ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi asoslar</b>
<b>Tarbiyaviy faoliyat mazmuni</b>	Pedagogika oliy ta'lim muassasalaridagi turli mutaxassisliklarning alohida ta'lim turida, xususan Umumiy pedagogika fanining tarbiya nazariyasi bo'limi boblarida mavzu materiallarining ayrim qismlarini o'zidan oldingisiga nisbatan – yangi dastur, dasturni takomillashtiruvchi, o'quv materialini to'ldiruvchi, paydo bo'lishiga ko'ra – me'yoriy hujjatlar o'zgarishi asosida rejali tarzda takomillashtirish va tubdan o'zgartirish.
<b>Tarbiyaviy faoliyat metodlari</b>	Oliy pedagogik ta'limning alohida tarbiya turida, ayrim fan, bo'lim, bob, mavzu, tarbiyaviy faoliyat shakli va turida ma'lum ma'lum uslubiyot elementlarini yangicha talqinda ishlab chiqish, o'zidan oldingisiga nisbatan – yangi, takomillashtiruvchi, o'rnini almashtiruvchi, to'ldiruvchi, paydo bo'lishiga ko'ra – rejali, oldindan o'ylangan, yangi talablar asosida takomillashtirish va tubdan

	o'zgartirish
<b>Tarbiyaviy faoliyat vositalari</b>	Miqyosiga ko'ra – ommaviy, yakka, kompleks, tizimli, uzluksiz ta'limning alohida tarbiyaviy faoliyat turi, ayrim tadbirlar va o'zidan oldingisiga nisbatan – eskisini almashtiruvchi, o'rnini almashtiruvchi yangi texnologiya, darajasiga ko'ra – modernizatsiyalashgan, ma'lum vosita elementlari yangicha talqinda ishlab chiqilgan, tubdan o'zgartirilgan, paydo bo'lishiga ko'ra – rejali, oldindan o'ylangan tarbiyaviy tadbirning ayrim qismida, tarbiyaviy faoliyatning shakli, turi va ayrim bosqichlarini shakllantirish
<b>Tarbiyaviy faoliyat natijasi</b>	O'qituvchi faoliyatida – novator o'qituvchi, talaba faoliyatida – mustaqil fikrlovchi, aniq maqsadga intiluvchi, ta'lim jarayonining faol sub'ekti.

Yuqoridagi pedagogik innovatsiyalarga doir tasniflardan ma'lum bo'ldiki, tarbiyaviy faoliyatdagi innovatsiyalar tarbiyaviy faoliyat maqsadi, tarbiyaviy faoliyat mazmuni, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish metodikasida sifat jihatidan o'zgarishlar yaratiladi. Buning natijasida:

***tarbiyaviy faoliyatning o'zgarishi:*** ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etish bilan birga, tarbiyaviy faoliyatning sifat jihatidan o'zgarishi;

***tarbiyaviy jarayonning o'zgarishi:*** tarbiyaviy tadbirlar, murabbiylik soatlarida, ijtimoiy foydali mehnatning turli sohalarida faol ishtirok etish, tashabbuskorlik, o'rtoqlariga o'rnak bo'lish;

***pedagog faoliyatining o'zgarishi:*** oliy o'quv yurti va undan tashqaridagi ommaviy-siyosiy, madaniy hamda shu kabi jamoatchilik ishlarida va ularni tashkil etishda jonbozlik ko'rsatish, faollik;

***talaba faoliyatining o'zgarishi:*** jamoat tashkilotlarining birida ishlash va ularning topshiriqlarini mas'uliyat his qilgan holda bajarish;

***pedagogik texnologiyaning o'zgarishi:*** pedagogik tadqiqot metodlarini



egallash, mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;

***tarbiya mazmunining yangilanishi:*** zamon bilan hamnafaslik;

***tarbiyaning shakl, metod va vositalarining o'zgarishi:*** no'an'anaviy metodlarning faol o'zlashtirilishi, tatbiq etilishi, yangiliklarni tarbiyaviy darslar, tadbirlarga tatbiq etish, ularni o'z sharoitiga moslashtira olish;

***tarbiya jarayonini boshqaruv o'zgarishi:*** munozara, muhokama, muammolarga tanqidiy yondashuvga asoslangan interfaol boshqaruv;

***tarbiya maqsadi va natijalarining o'zgarishlari:*** tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish, o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish yuzaga keladi.

Bo'lajak o'qituvchilar tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun o'zlari ushbu sohada kompetentli bo'lishlari talab etiladi.

***Mazkur talab innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning mazmuni va maqsadiga yangicha yondashishni bildiradi.***

*birinchidan,* Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida buyuk ma'naviyatimizni tiklash, sog'lom turmush tarzini barcha fuqarolar, eng avvalo, yoshlarga singdirish davlatimiz siyosatida ustuvor yo'nalish qilib belgilanishi, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalaridagi kabi uzluksiz ta'lim tizimining oliy ta'lim bosqichida pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarni zamon va jahon andozalari talablariga uyg'un ravishda tayyorlash, malakasini oshirish, ularda yuksak ma'naviy madaniyat, axloq va ma'rifatparvarlik fazilatlarini shakllantirishni taqozo etadi;

*ikkinchidan,* yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarini bolalikdan boshlab tarbiyalashga ijtimoiy zaruriyat mavjud;

*uchinchidan*, milliy ma'naviyatimizni tiklash borasida olib borilyotgan ishlar, xalq ta'limining tubdan isloh qilinayotgani jamiyatimizda har tomonlama barkamol, sog'lom avlod tarbiyasiga katta e'tibor qaratilishi tendentsiyasini kuchaytiradi;

*to'rtinchidan*, innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashga ijtimoiy zaruriyat majud.

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy faoliyatni ta'minlashga xizmat qiluvchi samarali usullar.

**“Fikrlarning uzluksiz estafetasi”** usuli ma'lum bir g'oya, fikrni mantiqiy davom ettirishni nazarda tutadi. Talaba tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish yuzasidan fikr bildirishi, fikrlarida oddiy xulosalardan tahliliy xulosalarga o'tish, asos keltirish talab etiladi. Bunda “Men tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga tayyorman...”, “Men tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etaman...”, “Men tarbiyaviy faoliyat takshilotchisi sifatida faoliyat olib borishga tayyorman...” kabi fikrlarni aytib, har bir fikriga asos keltirdilar.

**“Dunyoqarashlarni shakllantirish”** usuli. Talabalarning dunyoqarashlari, muloqot sifatining pasayishi va ijodiy vazifalarni bajarish davomida yuzaga kelgan to'siqlarni bartaraf etish o'zgarish imkonini beradi.

**“O'z-o'zini rag'batlantirish”** usuli “Fikrlarning uzluksiz estafetasi” usulining mantiqiy davomi sifatida xizmat qiladi. Bunda talabalar kichik guruhlarga bo'lingan holda, ikkinchi guruh talabalari uchun jamoa bo'lib savollar tayyorlashni hamda jamoa bo'lib javob berish nazarda tutiladi. Bu esa ularda jamoaviy muhokama qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda talabalar to'rt guruhga bo'linib, birinchi guruh “Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning samarali texnologiyalari”, ikkinchi guruh “Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar”, uchinchi guruh “Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar”, to'rtinchi guruh “Innovatsion

yondashuvlar asosida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish ” mazmunidagi fikrlarni himoya qiladilar.

**“Rollar taqsimoti”**. Bu usulda pedagogikada talaba shaxsiga muloqot makonini, talabalarning muloqoti va xulq-atvorini tartibga soluvchi qoidalarni yaratish imkonini beradi. Rollarni taqsimlashda talabalarning bilim-ko’nikmalari darajasi hisobga olinadi. Bunda rollar quyidagi shaklda taqsimlandi “Pedagog-uslubchi”, “Mahoratli pedagog”, “Kreativ pedagog”, “Tajribali pedagog”, “Yosh pedagog”.

**“O’qituvchining o’z ustida ishlashi”** usuli. Muayyan maqsad asosida belgilangan vazifalarni bajarish jarayonidagi aloqa qoidalari va shakllari o’zgarishini nazarda tutib, o’qituvchining orqa fonga o’tishi bilan izohlanadi. Bu usul vositasida talabalarning ichki sifatlari va qobiliyatlari bilan birga, ularga yuklatilgan vazifani mustaqil ravishda bajarish mas’uliyatini his qilish imkoniyati beriladi.

**“Rollar almashinuvi”**. Bunda hazil-mutoyiba, pedagogning shaxsiy namunasi, vaziyatning o’zgarishi pedagogik texnologiyasida alohida o’rin tutadi. Ulardan ta’lim jarayonida foydalanish ma’lum bir son bilan chegaralanmaydi. Har qanday vaziyat yangi usullarning paydo bo’lishiga yordam beradi va o’qituvchi faqat shu vaziyatga eng mos keladiganlarini tanlaydi va qo’llaydi. Usullardan foydalanish har bir talaba uchun qat’iy individual yondashuvni talab etadi.

Bo’lajak o’qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda tarbiya jarayonining butun tizimida talaba uchun ham, pedagog uchun ham alohida ahamiyatga ega. O’z vaqtida va to’g’ri tanlangan usul bo’lajak o’qituvchilarga tarbiya vositasi sifatida bilvosita ta’sir ko’rsatishga imkon beradi. Har bir pedagog bu masalani o’z amaliy tajribasi yordamida hal etadi, ta’lim jarayonining aniq sharoitlariga mos bo’lgan o’zgartirishlar yoki tuzatishlar kiritadi. Biz mazkur usullarni bo’lajak o’qituvchilar bilan birgalikda maqsadga erishishni talab qiladigan, yechilmagan yo’l sifatida taqdim etdik. Boshqa o’qituvchilar,

tadqiqotchilar tomonidan foydalanilganda, bu umumiy va taniqli usullarga qaytish imkonini beradi.

Bo'lajak o'qituvchilar bilan tashkil etiladigan tarbiyaviy faoliyatda pedagog va talaba munosabatlarida professional pozitsiyalar o'zgarishi va u o'zaro ta'sirning o'ziga xos shartlari bilan belgilanishi ham mumkin. Masalan:

1. **“Kuzatuvchi”** – bu talabalar jamoasining hayotini tashqi, xolis, bilvosita kuzatish.

2. **“Maslahatchi”** – talabalar jamoasining hayotini vaziyatli yoki tizimli kuzatish.

3. **“Mentor”** – talabalar hamjamiyati a'zolarining mahalliy taqsimlangan faoliyatiga, rasmiy qarorlar yoki qarorlar qabul qilish huquqisiz jalb qilish.

4. **“Murabbiy”** – talabalar jamoasining barcha a'zolari tomonidan qat'iy bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlarni qabul qilish huquqi.



#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Tarbiyaning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Komil inson deganda siz qanday fazilatlarga ega bo'lgan insonni tushunasiz?
3. Sharqona tarbiyaning manbalarini sanab bering. Sharq rivoyatlarida uchraydigan yaxshi tarbiya ko'rgan insonlarning xislatlarini aytib bering.
4. Tarbiyaning har bir shaklini tariflang uning maqsad vazifalarini izohlang.
5. Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?
6. Tarbiyaning qanday metodlari bor?
7. Rag'batlantirish metodi nima va uning turlari mavjud?
8. Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.
9. Tarbiya jarayonida nima uchun metodlar qo'llaniladi?

10. Shaxsga ta'sir etish orqali tarbiyalash metodlari va usullariga qaysilar kiradi?
11. Tarbiya usullari nima?
12. Tarbiya vositalariga nimalar kiradi?
13. Xalq pedagogikasida qo'llaniladigan tarbiyaning umumiy metodlari qaysilar?
14. Ijtimoiy ongning shakllantiruvchi metodlar qaysilar?
15. Mashq va o'rgatish metodlari qanday?
16. Jazolash metodlariga nimalar kiradi?
17. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish mazmunini yoritib bering.
18. Tarbiyaviy faoliyat samarali bo'lishi uchun mutaxassisdan qanday ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirish talab etiladi?
19. Innovatsiya nima? Tarbiyaviy faoliyatda innovatsiyalar haqida nimalarni bilasiz?
20. Tarbiyaviy faoliyatga innovatsiyalarni joriy etish mazmunini yoriting.
21. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda tarbiyaviy faoliyatni ta'minlashga xizmat qiluvchi qaysi samarali usullar bilan tanishsiz.
22. Bo'lajak o'qituvchilar bilan tashkil etiladigan tarbiyaviy faoliyatda pedagog va talaba munosabatlarida professional pozitsiyalar qay tarzda o'zgarishi va qanday mazmun kasb etishi mumkin?



## Testlar

### I. Tarbiya tushunchasiga ta'rif yozing.

---

---

---

---

### II. Aqliy tarbiya \_\_\_\_\_ jarayonida amalga oshiriladi.

### III. Moslikni aniqlang.

#### 1. Aqliy tarbiya

- A. umuman olganda, tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanuvchilarda axloqiy tasavvurlar tizimini shakllantirishni, axloqiy his-tuyg'ularni, voqea va hodisalarga to'g'ri munosabat bildirish olish kabilarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Иш,

- |                      |  |
|----------------------|--|
| 2. Axloqiy tarbiya   | B. inson kamolotiga ta'sir etadigan eng qadimiy tarbiya vositalaridan hisoblanadi.   |
| 3. Jismoniy tarbiya  | C. shaxsni har tomonlama kamol topishining asosini tashkil etadi. U mehnat unumdorligini oshiradi va mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptiradi.                                   |
| 4. Mehnat tarbiyasi  | D. asosiy vazifasi tabiatdagi, san'atdagi, hayotdagi go'zallikni qabul qila olish, tushunish qobiliyatini tarbiyalash, fahmlash, go'zallikka rioya qilishga odatlantirishdan iborat. |
| 5. Nafosat tarbiyasi | E. tushunchasi umumiy bo'lib, bu tushuncha bir qancha xususiy tushunchalarni o'z ichiga oladi.   |

#### **IV. Tartib asosida to'ldiring.**

1. Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq.
2. Tarbiyaning maqsad va vazifalari.
3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.
4. Jamoaning shakllanganlik darajasi.
5. Tarbiya vositalari.
6. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.
7. Tarbiya vaqti.

#### **V. Moslikni aniqlang**

1. Axloqiy me'yorlar, motivlarni hosil qilishga, ta'sir etuvchi metodlar.
2. Xulq-atvorning u yoki bu turini aniqlaydigan odatlarni hosil qilishga ta'sir etuvchi metodlar.
3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari
  - a. Suhbat .
  - b. Maqtash
  - c. Musobaqa
  - d. Tushuntirish
  - e. Nasixat qilish
  - f. Xayfsan
  - g. Mashq qildirish
  - h. O'rgatish
  - i. Numana ko'rsatish
  - j. Ibrat
  - k. Tanbeh berish

#### **DIDAKTIKA – TA'LIM NAZARIYASI.**

## **Reja:**

1. Bilish murakkab jarayon.
2. Ta'lim paradigmalari
3. Ta'lim qonuniyatlari
4. Ta'lim metodlarining tasnifi
5. Ta'lim olish shakllari
6. Ta'lim vositalari

**Tayanch tushunchalar:** didaktika, bilish, ta'lim, paradigma, qonuniyat, shakl, vosita, tajriba, o'qitish, pedagog, sezish, idrok, tasavvur, tafakkur.

Kishilik jamiyati to'plangan tajribani bilim va ko'nikmalarni yangi hayotga qadam qo'yayotgan avlodlar tomonidan o'zlashtirib olishi haqida hamisha g'amxo'rlik qiladi. Ta'lim va tarbiya yagona maqsadni ko'zlab olib boriladi, bu bizning ajdodlarimiz tomonidan ilgari o'rganilgan tajribani avlodlar tomonidan o'zlashtirishni ta'minlashga qaratilgan jarayondir.

Didaktika (qadimgi yunoncha “διδακτικός”—o'rgatuvchi, o'qitaman, o'rgataman) – ta'lim nazariyasi, pedagogikaning ta'lim muammolarini o'rganadigan bo'limidir.

Didaktika - pedagogikaning alohida bo'limi bo'lib, hozirgi davrda o'zida mustaqil fanning o'ziga xos xususiyatlari namoyon qilmoqda .

Ta'lim va o'qitish tarbiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nafaqat didaktikaning predmeti, balki tarbiyaning uzviy qismidir.

Didaktika pedagogikaning ta'lim jarayoni mazmuni qonuniyatlari va tamoyillari shakl metod va vositalarini tadqiq etuvchi bo'limidir.

Bu atama dastlab marta nemis pedagogi V.Ratke (1571-1635) asarlarida qo'llanilgan. Y.A.Konenskiyning “Buyuk didaktika”(1657) asarida Didaktikaning fundamental ilmiy asosini yaratdi. Didaktikani Y.A.Konenskiy “hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati” deb talqin qildi. I. F. Gerbart asarlarida o'qitishni yaxlit,

izchil va bir biriga zid bo'lmagan tarbiyalaovchi ta'lim deya ta'rif berdi. Didaktika bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish hamda dunyoqarashni shakllantirish qonuniyatlarini, ta'lim mazmuni, hajmi va tarkibini o'rganadi. Ta'lim nazariyasining asosiy mohiyati ta'limni tashkil etishdan iboratdir. Ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad kelajak avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.


Ta'lim-shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayoni uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlarga yo'nalishi va tarixan maydonga kelib, ijtimoiy namuna bo'lishga har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi. Ta'lim bugun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jihati sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim – bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, u kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi. Bilish murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Bilish shaxs uchun mavhum ham o'zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohiyatining ong yordamida anglash jarayonidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. Sezish ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta) ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his etadi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunini ongda idrok etilishiga olib keladi. Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilgarigi ko'rinishida emas, balki ancha boyigan ko'rinishda, ancha yuqori daraja-da qaytib



boradi. Biz bu holni sxema tarzida quyidagi holatda ko‘rishimiz mumkin (15-shakl).<sup>27</sup>

Bilish jarayonida bilim hosil bo‘ladi. Bilim-odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to‘plagan umumlashgan tajribasidir.



O‘qitish-bu insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisini o‘zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir. O‘qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta‘minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma‘lumotni olish imkoniga ega bo‘ladi.<sup>28</sup>

Ko‘nikmalar muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o‘zgargan vaqtda ham ma‘lum xatti-harakatlar qilish (hosil bo‘lgan tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Ko‘nikmalarni bilimlar bilan aralashtirib yuborish yaramaydi. Har qanday ko‘nikma asosida bilim yotadi. Bilimlar fikr-mulohazalarda, ko‘nikma esa hatti-harakatlarda ifodlanadi. Xatti-harakatlar aqliy yoki jismoniy bo‘lishi mumkin.

Malaka muayyan usul bilan bexato bajariladigan, o‘rganib qolingan avtomatlashgan ongli harakatdir.

Malaka bir xatti-harakatning o‘zini bir xil sharoitda ko‘p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Malaka qanchalik puxta bo‘lsa, odam ishni shunchalik tez yo‘lga qo‘yadi.

<sup>27</sup> Xasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika o‘quv qo‘lanma. T. Fan. 2006


<sup>28</sup> Xasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika o‘quv qo‘lanma. T. Fan. 2006

Malakalar turlicha bo‘ladi, chunonchi, o‘quv malakalari – o‘qish, sezish, og‘zaki hisoblash va boshqalar; mehnat malakalari ish qurollari bilan ishlash, materiallar hamda texnika bilan muomalada bo‘lish va hokazolar; harakat malakalari yurish, yugurish va boshqalar. Ko‘nikma kabi malaka ham egallangan bilimlar asosida hosil qilinadi

Malaka – muayyan mehnat faoliyatini bajarish uchun lozim bo‘lgan nazariy va amaliy umumta’lim, kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalar majmuasining mavjudligi. Malaka ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Malaka – bu shaxs harakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning malakalari shu bilan xarakterlanadiki, uning harakatlari oson va tez, go‘yo o‘z-o‘zidan bajarilayotgandek bo‘ladi.<sup>29</sup>

Didaktika quyidagi masalalar ustida bahs yuritadi: .




Didaktika – pedagogikaning o‘quv jarayonini tashkil etishning nazariy asoslarini (qonuniyatlari, tamoyillar, metodlari) o‘rganuvchi bo‘limi bo‘lib, shuningdek u va yangi tamoyillar, strategiyalar, metodikalar, texnologiyalar va ta’lim tizimlarini ishlab chiqadi va tadqiq etadi.

<sup>29</sup> Xasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika o‘quv qo‘lanma. T. Fan. 2006

Didaktika umumiy didaktika va xususiy (fanni o‘qitish metodikasi) bo‘linadi.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari o‘qitish, o‘rgatish, ta’limdir<sup>30</sup>.



O‘qitish – ta’lim jarayonini tashkil etishning asosiy usuli bo‘lib, tizimli ta’lim olishning eng ishonchli yo‘lidir. Ta’lim olishning har qanday turi o‘qitish va o‘rganish tizimiga asoslanadi:

O‘qitishning maqsadi – axborotni uzatish, uning o‘zlashtirilishini nazorat qilish va baholash jarayonida har bir o‘quvchining samarali o‘quv faoliyatini tashkil etishdir.

O‘qitishning samaradorligi talabalar bilan o‘zaro munosabatlarni, birgalikdagi faoliyat shu bilan birga talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil qilishni ham ham o‘z ichiga oladi.

### O‘QITISH JARAYONI

#### *O‘qituvchining faoliyati*

Ma’lumotlarni uzatish;

talabalarning o‘quv va bilish faoliyatini tashkil etish;

#### *O‘quvchining faoliyati*

Bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, mustahkamlash va qo‘llash;


mustaqil izlanishga, ta’lim muammolarini mustaqil hal qilish, ta’limdagi yutuqlari

<sup>30</sup>БордовскаяН., Реан А. Педагогика “Питер”,2000.


o'quv jarayonidagi qiyinchiliklarda asosida o'z-o'zini rag'batlantirish; talabalarga yordam berish;

o'quvchilarning qiziqishi, madaniy qadriyatlarni va ajdodlar tajribasini, mustaqilligi va ijodkorligini atrofda voqelik jarayonlari va hodisalarining rag'batlantirish; ijtimoiy ahamiyatini anglash

talabalarning ta'lim yutuqlarini baholash.



Ta'lim jarayonida o'qituvchining vazifalari



## **O‘quv faoliyati tarkibiy qismlari.**

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga egallangan bilimlarni o‘rgatadi, ko‘nikma va malakalar egallash faoliyatini tashkil etadi. Shu jarayonda o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantiradi, jamiyatda qabulqilingan ahloq normalariga rioya qilishni o‘rgatadi, o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi, qobiliyatlarini rivojlantiradi, mustaqil o‘rganishga yo‘naltiradi.

Paradigma (yunoncha«paradeigma» – misol, namuna) so‘zining o‘zi keng ma’noda turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o‘ziga xos tuzilishga ega nazariyadir,<sup>31</sup> Zamonaviy pedagogik fanlarda ta’limning maqsadiga, o‘quv tarbiya jarayonining vazifalariga, pedagog va o‘quvchilar orasidagi munosabatlarga ko‘ra pedagogik paradigmalari farqlanadi.

### **Ta’lim paradigmalari**

Bugungi kunda ta’lim paradigmalari belgilashga nisbatan uch xil yondashuv mavjud:

1. Madaniyatni inson hayotining mazmuni sifatida qaraladigan qadriyatli (aksiologik) yondashuv.
2. Moddiy va ma’naviy boyliklarini yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatning sinalgan usullari sifatida talqin etiladigan faoliyatli yondashuv.
3. Madaniyat va muayyan shahs timsolida namoyon bo‘ladigan shaxsiy yondashuv.

Madaniyatga nisbatan turli yondashuvlarning mavjudligi bir qator paradigmalarning yaratilishiga zamin yaratadi.

Har bir paradigma muayyan ta’limiy muammolarni hal etishga yo‘naltiriladi. Xususan:

- ijtimoiy institut sifatida o‘quv muassasalarining vazifalari;
- ta’limning samarali tizimi;
- o‘quv yurtlari oldida turgan eng muhim, ustuvor masala;

---

<sup>31</sup>Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, “Sano-stan-dart” nashri-yoti, 2017

- ta’limning ijtimoiy ahamiyatli maqsadlari;
- muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarning qimmatli hisoblanishini.

An’anaviy — konservativ paradigma (bilim paradigmasi).

Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma

Fenomenologik (gumanistik) paradigma

Ezoterik paradigma

Texnokratik paradigma.

Ayni vaqtda quyidagi paradigmlar mavjud:

1. Bilim olishning an’anaviy paradigmasi (modeli) (J. Majo, L. Kro, J. Kapel va boshqalar). Unga ko‘ra ta’limning asosiy maqsadi – bilim, qanchalik qiyin bo‘lmasin bilim olish. An’anaviy paradigma maktabning maqsadi yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko‘nikma va malakalar, ilg‘or g‘oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish muhim ekanligini yoritadi. Bilim olish paradigmasining asosiy maqsadi: ta’lim olish, taraqqiyot va madaniyatning eng muhim elementlarini avloddan-avlodga yetkazish.

2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma (P. Blum, R. Gane, B. Skinner va boshqalar). Ratsionalistik paradigma diqqat markazida ta’lim mazmuni emas, balki o‘quvchilar tomonidan turli bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi samarali usullari yotadi. Ta’limning ratsionalistik modeli asosini B. Skinnerning ijtimoiy injeneriya bixevioristik (inglizcha *behavior* – xulqi) konsepsiyasi tashkil qiladi.

Maktabning maqsadi – o‘quvchilarda g‘arb madaniyati ijtimoiy qoidalari, talablari va ko‘zlagan maqsadlariga mos keladigan moslashtiruvchi «xulqiy repertuar»ni shakllantirishdir. Shu bilan bir vaqtda, «xulqi» atamasi bilan «insonga xos hamma ta’sirlanishlar – uning fikrlari, sezgi va harakatlari» ifodalanadi (R.Tayler).

Bunda ta’limning asosiy metodlari, o‘rgatish, trening, test sinovlari, individual ta’lim, tuzatishlari bo‘lib qoladi. Buning oqibatida, ta’limninggina emas, balki dars berishning ham ijodiy xarakterini aniqlash muammosi muhokama qilinmaydi. P.Blum barcha o‘quvchilar faqat o‘zlashtiribgina qolmay, balki muvaffaqiyatli o‘qishlari mumkin deb hisoblaydi. O‘quvchining optimal qobiliyatlari ma’lum sharoitlarda, o‘quvchiga ta’lim berish natijasi uningsur’ati bilan aniqlanadi. Olimning fikricha, ta’lim oluvchilarning 95 foizi ta’lim muddatlariga bo‘lgan cheklashlar olib tashlanganda o‘quv kursining butun mazmunini o‘zlashtirib olishga qodirlar. Ana shu nuqtayi nazardan o‘quvchilar tomonidan bilimlarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishini ta’minlovchi metodika ishlab chiqiladi, uning mohiyati quyidagichadir:

1. Butun sinf yoki kurs uchun to‘la o‘zlashtirish etaloni, mezonini aniq belgilab olish asosida, o‘qituvchi ta’lim yakunida erishilishi kerak bo‘lgan aniq natijalarning ro‘yxati va unga muvofiq keluvchi testlarni tuzadi.

2. O‘quv birliklari, ya’ni, o‘quv materiallarining yaxlit bo‘limlari ko‘rsatiladi, ularni o‘zlashtirish natijalari aniqlanadi, yakuniy bahoga ta’sir ko‘rsatmaydigan navbatdagi testlar tuziladi. Bu testlarning vazifalari – tuzatish, korreksiyalashdan iborat.

3. To‘la o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan har bir o‘quv kurs materiallarini o‘zlashtirish darajasini baholash uchun test sinovlarini o‘tkazish. Bu o‘rinda har bir o‘quvchiga baho va ta’lim maqsadlarining ahamiyatini tushuntirish muhim. Predmetlarni bo‘sh va o‘rtacha o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning qobiliyatlarini jadal rivojlantirish P.Blum konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Turli mamlakatlarning (Avstriya, Belgiya, AQSH va boshqalar) ta’lim tizimlari

tajribasi ratsionalistik (bixevioristik) paradigm g'oyalari muvofiq ish ko'rilganda 70% o'quvchilar yuqori natijalarni qayd etganliklarini ko'rsatadi. Yuqorida qayd etilgan ta'lim yo'nalishlari o'zida insonparvarlik g'oyalari ifoda etmagan, ular bola dunyoqarashining rivojlanishi shaxsning rivojlanishida shaxslararo munosabatlarning muhim o'rin tutishini nazarda tutmaydi.

4. Gumanistik (fenomenologik) paradigmaga ko'ra (A.Maslou, A.Kombs, K.Rodgers, L.S.Vigotskiy va boshqalar) ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega. Ular bolani rivojlantirish maqsadida uni shaxslararo munosabatlar jarayoniga yo'naltiradi. Ta'limning fenomenologik (fenomen yunoncha «phainomenon»— hisoblangan, ya'ni, mashhur, alohida nodir odam) modeli o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning talab va qiziqishlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ko'zda tutadi. Uning vakillari o'quvchini nodir shaxs deb hisoblaydilar. Gumanistik paradigm doirasida faoliyatolib boruvchi har bir ta'lim tizimi ijodiy rivojlanadi va o'quvchilarda o'qituvchining erkinligi va ijodkorligini yoqlaydi. Gumanistik paradigmag'oyalari 1991-yildan keyin respublika uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etila boshlandi. Paradigmaning diqqat markazida o'quvchining barkamol rivojlanishi, uning intellektual ehtiyojlari, «erkin fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash» masalasining ijobiy hal etilishi yotadi. Ayni vaqtda, respublika ta'lim muassasalarida quyidagi g'oyalarga amal qilinmoqda: «Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

5. Ezoterik paradigma (yunoncha «esoterikos» ichki, sirli, yashirin, faqatgina biluvchilar uchun mo'ljallangan insonning dunyo bilan o'zaro aloqalari yuksak darajalarini aks ettiradi). Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlashdan iborat. Paradigma tarafdorlari haqiqatni bilib bo'lmazligi, unga faqatgina fahmlash asosida erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Pedagogik faoliyatning oliy maqsadi koinot bilan muloqot,



o'quvchining tabiiy kuchlarini ozod etish va rivojlantirishdan iborat. Shu bilan birga, o'qituvchining himoyalash vazifasi muhimdir, u o'quvchining mavjud imkoniyatlarini uni ma'naviy, jismoniy, psixik jihatdan rivojlantirishga yo'naltiradi. Ilmiy-texnik, texnokratik paradigmaning asosiy maqsadi amaliyotni takomillashtirish asosida ta'lim oluvchilarga «aniq» ilmiy bilimlarni berish va ularning o'zlashtirilishini ta'minlashdir. Bilim kuchdir, shu bois shaxs qimmatini uning o'rganish, bilim olish, imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Ta'lim qonuniyatlari. Falsafada hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi ularning rivojlanishini tavsiflovchi obyektiv mavjud, barqaror takrorlanuvchi, zaruriy va muhim bog'liqlik qonuniyat deyiladi.

Ta'lim shartlari va ta'lim natijalari o'rtasidagi barqaror aloqa didaktik qonuniyat deyiladi.


Ta'limning quyidagi qonuniyatlari mavjud: tarbiyalovchi tarbiya qonuni; har qanday ta'lim faqat o'qitayotgan, o'qiyotgan va o'rganayotgan obyektning ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'siri yordamida amalga oshiriladi; ta'lim faqatgina o'qituvchining faoliyatiga va o'y-fikrlariga muvofiq ravishda o'quvchilarning faol faoliyatlari davomida yuz beradi; o'quv jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchining maqsadlari muvofiq kelgan holda yuz beradi; alohida bir shaxsni u yoki bu faoliyatni o'rganishga yo'llash uni ushbu faoliyatga jalb etish orqali erishiladi; ta'limning maqsadi, bilim olishning mazmuni va ta'lim metodlari orasida doimiy bog'liqlik mavjud bo'ladi; ta'limning maqsadi ta'lim mazmunini va metodini belgilab beradi .

Ta'lim tamoyillari – o'qituvchining faoliyatini va o'quvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir. Ta'lim tamoyillari o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli formada, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim tamoyillari ta'lim berishning ma'lum obyektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Olimlarning ta'lim tamoyillarining soni va nomi to'g'risidagi fikrlari bir-biridan farq qilsa ham ammo, ularning mazmuni va o'qitish qonuniyatlarini

tushunish an'anasi asosan bir xildir. Falsafada biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy yo'nalishlar tamoyil deyiladi.

## TA'LIMNING QONUNIYATLARI




Ta'lim tamoyillari ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va ta'limni tashkil etish shakllarini belgilashda qo'llaniladigan qoidalardir.

O'qitish prinsiplari ijtimoiy ehtiyoj va bilish faoliyati qonuniyatlarini o'rganish darajasi bilan bog'liq ravishda mazmunan va amaliy qo'llanilishi bo'yicha doimo o'zgarib turadi.

O'qitish tamoyillarini birinchi bo'lib chex pedagogi Y.A.Komenskiy asoslab bergan. U quyidagi tamoyillarni tasniflagan: ko'rgazmalilik ("didaktikaning oltin qoidasi"), tabiat bilan uyg'unlik, ta'limning hayot bilan bog'liqligi, tushunarlilik, puxta va mustahkamlilik<sup>32</sup>.

<sup>32</sup>Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, "Sano-stan-dart" nashri-yoti, 2017

Ta'lim tamoyillari I.Pestalozzi, F.Disterweg, K.Ushinskiy va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Hozirgi vaqtda quyidagi ta'lim tamoyillari mavjud:




**Ilmiylik tamoyili** o'zida voqea-hodisalar, jarayonlarning sabab-oqibat munosabatlariga oid tahlillarni hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini ta'lim mazmunida aksettirishni ta'minlashi kerak.

Ta'limning ilmiyligi tamoyili o'quvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarni aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

Ta'lim muassasalarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan o'qituvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim, chunki o'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiy tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasidagi oliy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa talaba yoshlarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan.

**Ta'limni hayot bilan bog'liqlik** tamoyili ta'limning yetakchi qoidalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo, nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi-talaba o'rganayotgan o'quv materiallarning tub mohiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

**Ta'linda onglilik va faollik tamoyili** o'quvchilardagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: o'quv motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligiga bog'liq.



O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, o'quvchi talabani fikr yuritishi ham shunchalik aniq va ravshan bo'ladi va o'quv materiallarni ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi

jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil sur'atda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishga e'tibor bo'lmog'i lozim. Yoshlarni o'qish istagi ta'lim jarayonining zaruriy va mantiqiy qismidir. Shunday ekan, ta'limning samaradorligi o'qituvchining o'quvchilarni o'qishga izchil va muntazam qiziqtirib borishiga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi, ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim.

Ta'lim jarayoni, uning mazmuni unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim, shaxs shakllanishining asosiy manbaidir.

Umuman, bilimlar voqealikning haqiqat inkosidir. Ammo, voqelikning har qanday tarzda to'g'ri aks ettirilishi ilmiy bilim bo'la olmaydi. Masalan, maktab yoshiga yetmagan bola tevarak-atrofidagi dunyoni to'g'ri biladi, lekin undagi inkosi yetarlicha chuqurmas, shuning uchun uning bilimlarini ilmiy bilim deb bo'lmaydi.

Tevarak-atrofni o'rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning ichki muhim xossalarini va o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilimlarga ilmiy hisoblanadi. Bu bilimlar aqliy jihatdan o'sishga hal qiluvchi ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular hozirgi zamon fani, texnikasini ishlab chiqarishni, madaniyat va san'atni o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

O'qitib, tarbiya berish deganda bizda ta'lim va tarbiyaning bir-biridan ajralmasligini tushunamiz. Shunday ekan, maktab obro'si, o'qituvchi obro'si, avvalo, darsda shakllanadi. Til va adabiyot darsimi, matematika darsimi har doim ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ko'ra bilish, tarbiya usullaridan foydalanish lozim.

O'quvchi-talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi ham, irodasi va axloqiy sifatlari, iymon-e'tiqodi va qobiliyati ham o'sib rivojlanib boradi.

Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda o'qituvchi avvalo, ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqтира olishga bog'liqdir. Shu bilan birga, o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro'-e'tibori ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish zarur. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga mos kelishi, o'quvchi-talabaning yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi hamda ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Bilimlar turli yo'l vositalari orqali puxta o'zlashtirgandagina, u mustahkam esda qoladi, bu esa o'quv materiallarini ongli o'zlashtirishga, nazariya bilan amaliyotni bog'lashga, ko'rsatmalikka amal qilishga va bilimlarni takrorlash orqali mustahkamlashga bog'liqdir. Ta'limning bosh maqsadi esa bilimlarni tizimli va puxta o'zlashtirishdir.

**Insonparvarlik**- insonning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini, uning erkinligi, baxt-saodat, rivojlanish va qobiliyatlarini namoyon qilish huquqini tan oladigan qarashlar tizimi.

**Insonparvarlik tamoyili** – bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini, uning erkinligi, baxt-saodati, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, uning huquqlarini tan olinishi, bolaning rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratishi, uning ijodiy salohiyatini, moyilligini, qobiliyatlari rivojlantirish, bolaga hayotda o'z taqdirini o'zi belgilashga yordam berish, uni jamiyatga integratsiya qilish, o'zini ushbu jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida tan olinishini nazarda tutadi.

**O'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili** – o'quv material bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lish va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma malakalarini hisobga olgan holda yondoshuvni nazarda tutadi.

**Izchillik tamoyili** o'quv jarayonini ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshirishni ta'minlaydi. Ushbu tamoyil har bir keyingi element oldingi bilan mantiqiy bog'liqligini anglatadi.

Ta'lim jarayonining muayyan tizimga asoslanishini va o'quv materialini ma'lum ketma-ketlikda bayon qilinishi izchillik tamoyilida aks etadi. Tizimlilik ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish orasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi.

**Ta'limda ishtimoiylashuv tamoyili** quyidagi jarayonlarda namoyon bo'ladi.

- O'quv faoliyatida o'quvchining layoqat va qobiliyatlar rivojlanadi, mazkur jarayonda o'quvchi ularga tayanadi.
- O'quvchilarni muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- Hamma bolalarga birgalikda ta'lim olish imkoniyatlari yaratiladi

**Mustahkamlilik va tushunarlilik tamoyili.** Mustahkamlilik tamoyili o'quvchilar o'quv materialini xotiralarida uzoq muddatga eslab qolishlari va ulardan o'quv va amaliy maqsadlarda foydalanishlari belgilaydi. Chuqur va mustahkam bilim fundamental bilimdir.

**Tushunarlilik tamoyili** o'quv jarayonida o'quv materialini mazmunining o'quvchilarning yoshi, jismoniy va intellektual imkoniyatlariga muvofiqligini belgilovchi mezon sifatida aks ettadi.

**Ko'rsatmalilik tamoyili** o'qitish va tarbiyalash jarayonida vizual sezgilar, hislar, tasvirlar, shuningdek, boshqa barcha hissiy organlardan keng foydalanish bo'lib, natijada real voqelik bilan bevosita aloqadorlikka erishiladi.

## **TA'LIM METODLARI**

Ta'lim metodi tushunchasi anchagina murakkabdir. Shu bois pedagogikada uning tobora aniq talqini xususida munozara haligacha davom etmoqda. Biroq bu tushunchaga beriladigan didaktlarning turli ta'riflariga qaramay, ularning nuqtai nazarlarini yaqinlashtiradigan qandaydir umumiylikni ham ta'kidlash mumkin.

Ko'pchilik mualliflar ta'lim metodini o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli, deb hisoblashga moyildir.

Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan<sup>1</sup>

Ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik materialistik usullarini, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

Shu talab nuqtai nazaridan qaraganda, ta'lim metodi tarbiyalovchi xarakterda bo'lishi, ya'ni bilimlarni o'zlashtirishgagina emas, balki ta'limning tarbiyalovchilik imkoniyatlarini ishga solishga ham yordam berishi kerak.

2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshan va aniq asoslangan bo'lishi lozim. Ana shunda o'qituvchi, bu metod bilan ishlashda qanday vazifalarni qo'yib, hal qilish mumkinligini va qanday vazifalarni amalga oshirib bo'lmasligini ko'ra oladi. Metodning ilmiyligi o'quvchilarning ravshan va aniq fikr yuritishini: materiallarni o'zlashtirish jarayonidagi dalil-isbot va muhokamalarning maqsadi, vositalari, usullari, asosiy va ikkinchi darajali natijalarni ham bildiradi.

3. Ta'lim metodlarining tizimliliigi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi. O'quv materialini o'rganishning har qanday alohida olingan usuli,

---

<sup>1</sup> Избранные произведения мыслителя Ближнего Среднего Востока IX-IV веков. – М., 1961 г.

<sup>2</sup> Al-Forobiy. Математические трактаты. – Алматы: „Наука“, 1972, 327- бет.




garchi, shu darsda qo'llanish uchun juda qulay bo'lsa ham, o'qitishning boshqa metodlari bilan birga qo'llanilmaganda o'quvchilar aqlining o'sishiga uncha ta'sir ko'rsatmasligi mumkin.

4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab ularning tushunarli bolishidir. O'qitish yo'li o'quvchiga tushunarli va maqbul bo'lishi, o'quv materialini o'rganish usullari esa uning bilimlarni o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlariga muvofiq kelishi lozim.

5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish zarurligi ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan muhim talabdir. Ta'lim metodlarini ta'limni ongli va faol shaklda olib borish tamoyili nuqtai nazaridan asoslash zarurligi ham muhim talablardan biridir. Bolaning o'quv mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lishi, o'quv materiali mazmunining ongli ravishda tushunishi, undagi bilish faolligi va qiziqishining darajasi o'qituvchining tushuntirish metodlariga va bolalarning bilimlarni o'zlashtirish usullariga bog'liqdir.

6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri bilimlarning asosli va puxta bo'lishidir. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. O'qituvchining tushuntirish va o'quvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

E.I.Golant N. M. Verzininlar ta'lim metodlarini manbasiga ko'ra an'anaviy ta'lim metodlarini quyidagicha tasniflaganlar:




I.Y.Larner va M.N.Skatkinlar ta'lim metodlarini o'quvchilarning bilish faoliyati tavsiviga ko'ra quyidagicha tasniflaganlar<sup>33</sup>:

TA'LIM METODLARINING NOMLANISHI	O'QITUVCHI FAOLIYATI	O'QUVCHI FAOLIYATI
Axborot retseptiv	O'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan obyekt bilan o'quvchi xarakterini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish anglash va yodda saqlash
Reproduktiv	Bilimlarni o'zlashtirishga doir topshiriqlarni tuzish taqdim etish	Namuna bilimlarni egallash
Muammoli bayon	Muammoni qo'yish va uni hal	Topshiriqni idrok etish

<sup>33</sup>Xodjaev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, "Sano-stan-dart" nashriyoti, 2017

etish	etish usullarini ochib berish	va uni qismlarga ajratish topshiriq qismlarini mustaqil xal etish va o'z o'zini nazorat etish
Evristik	Muammo qo'yish uni xal etishga doir qadamlar ketma- ketligini rejalashtirish va o'quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bo'liqlikda muammoni xal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni xal etish
Taqdiiqotchilikka doir	Mustaqil xal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish



Interfaol metodlar va grafik organayzerlar<sup>34</sup>

O'rganilayotganlarini  
o'zlashtirishga da'vat  
qilish metodlari

Yangi materialni  
anglash metodlari


O'rganilganlarini  
fikrlashga imkon beruvchi  
metodlar

<sup>34</sup> Xodjaev B.X.Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, "Sano-standart" nashriyoti, 2017

Erkin yozish	B-B-B chizmasi	Eng asosiy tushunchalar
Klaster	O'qitish bo'yicha qo'llanma	E-chizma
Aqliy hujum		Kontseptual jadval
B-B-B chizmasi	Bir-biriga o'rgatish	Venn diagrammasi
Chalkashtirilgan		Nilufar guli chizmasi
	Bir-biridan so'rash	5 minutlik esse
Mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi	Ikki qismli kundaliklar	<u>"Baliq skeleti"</u>
		Toifalash jadvali

Og'zaki metod bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining jonli nutqi orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi. Mazkur metodlar o'quvchilarda nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishda keng qo'llanilib, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida og'zaki ma'lumot almashinuviga asoslanadi.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi quyidagi 5 turda qo'llaniladi



Hikoya qilish o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid narsa, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan

ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir (bayon qilish 1–4-sinflarda 10–12-daqiqa, 5–7-sinflarda 15–20-daqiqa, 8-9-sinflarda 30-40 daqiqa bo‘lishi mumkin). Hikoya qilish ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda keng qo‘llaniladi.

Hikoya qilish davomida o‘quvchilar passiv tinglovchi bo‘lib, qolmasliklariga, aksincha, ular faollikni oshirish, diqqatni mavzuga safarbar qilish, hodisa va voqealar ustida fikr yuritish, fikr almashish maqsadida savollar berib borish, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishga e‘tibor berish lozim. Ma‘ruzada o‘tilayotgan mavzuning haqiqiy mohiyatini ochib berish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va umumlashtirish yo‘li bilan, bir soatlik mashg‘ulot davomida bilimlarni izchillik bilan to‘liq bayon etadilar. Ma‘ruza asosan umumtalim maktablarining yuqori sinflarda qo‘llaniladi. Unda mavzu bayon qilinsa ham, boshqa o‘quv materialining unsurlari bilan bir qatorda og‘zaki bayon qilish metodining turlari-hikoya qilish, tushuntirishlardan ham foydalanish ham mumkin.

Suhbat metodi ko‘pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki bu metodda dars o‘tilsa, u asosan savol-javob yo‘sinida olib boriladi.

O‘qitish jarayonida o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan kirish, asosiy va yakunlovchi suhbatlar ham qo‘llaniladi, shuningdek, o‘quvchilar tomonidan yangi o‘tilgan mavzu qanchalik tushunganlarini tekshirish maqsadida ham suhbat o‘tkaziladi. Suhbat metodi bilan ish ko‘rganda, mashg‘ulotlarni tashkil qilish va uni olib borishda o‘qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak:

1. O‘qituvchining suhbat uchun tayyorlab kelgan savollari sinf o‘quvchilarining hammasiga taalluqli bo‘lib, so‘roq o‘rtaga tashlanishi kerak.
2. O‘quvchilardan biri javob berish uchun chaqiriladi.
3. Sinfning barcha o‘quvchilari javob berayotgan o‘quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to‘ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta‘minlash lozim

Darslik va kitob bilan ishlash materialni og‘zaki bayon qilish metodining asosiy turi bo‘lib, maktab amaliyotida muhim o‘rin tutadi. O‘quv adabiyotlari bilan ishlash murakkab psixologik jarayonni o‘z ichiga oladi. U ta‘lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan bayon qilingan bilimlarni, o‘quv materiallarni kitob

matnidan ko‘rib, ongli idrok qilish faoliyatini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Darslik va kitob bilan ishlash ikki yo‘nalishda olib boriladi.

Ko‘rgazmalilik ta‘lim metodi – o‘quvchilarga hayotiy va tabiat hodisalari, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlari, qurilmalar va mexanizmlarning ishlashini va analitik tahlil qilish hamda ular bilan bog‘liq turli muammolarni muhokama qilish uchun bir butunlik va tafsilotlarda ko‘rsatishga asoslangan o‘qitish metodi.



Ko‘rgazmalilik metodi o‘quvchilarining o‘quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishlarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Namoyish etish metodi o‘qituvchi tomonidan bayon qilinayotgan ilmiy-nazariy bilimlarni o‘quvchilar puxta o‘zlashtirishlari uchun ularning sezgi organlari eshitish, ko‘rish, hid va ta‘m bilish, teri sezgilarining bir obyektga alohida-alohida yoki bir necha sezgi a‘zolarini bir yo‘la safarbar etish yo‘li bilan olib boriladi.

Namoyish etish metodi mavzuning xususiyatiga ko‘ra ikki yo‘nalishda olib boriladi. Multimedia – rasm va matnli axborotni tovushli va xarakatdagi shakllardan iborat axborot bilan birlashtirish texnologiyasidir. Bular taqdimotlar, elektron darsliklar, filmlar va boshqalardir. Multimedia-elektron versiyalari asosida har bir fandan dars o‘tilganda pedagog ko‘proq quyidagilarga e‘tibor berishi lozim:

1. Multimedia materiallarini dars mazmuniga bevosita bog‘liq bo‘lishi
2. O‘qituvchi ma‘ruzasini mazmunan boyitishga xizmat qilishi
3. Multimediya mahsulotlari tayyorlashda o‘quvchilar vizual gigiyenasi talablariga javob berishi kerak

O'qitishning ko'rgazmali metodlari – o'qitishda ta'limning ko'rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishda foydalaniladi, o'quvchilarni darsga qiziqishini oshiradi, dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarda kuzatuvchanlikni, ko'rish orqali tafakkur qilishiga o'rgatadi, o'quvchilarni ko'rish orqali eslab qolishni va diqqatini rivojlantiradi.

Pedagogikada illyustratsiya usuli o'quvchilarga turli xil predmet, narsa va hodisalarni tabiiy shaklda ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, bolalarni bir xil narsa va hodisalarning tasvirlari bilan tanishtirish mumkin.


O'simliklar, hayvonlar, hodisalar va texnologiya yoki fan obyektlari va boshqalardan foydalanish mumkin. Tasviriy vositalaridan biri sifatida sinf doskasi yoki interfaol doskalar keng qo'llaniladi. Ular so'zlarni, turli xil vazifalarni yozish uchun xizmat qiladi, shu bilan birga faoliyat ketma-ketliklarini ham ko'rsatib berish mumkin. Shuningdek ta'lim jarayonida xaritalar, rasmlar, jadvallar, chizmalar, bannerlar va h.k.lar kabi ba'zi illyustrativ vositalar ham qo'llaniladi. Ko'rgazmali metodlarni qo'llashda quyidagi talablarga amal qilishingiz kerak:

- ko'rgazmalar o'quvchilarning yoshiga mos bo'lishi, qo'llashda me'yorlarga rioya qilinishi, darsning tegishli zarur o'rinlarida qo'llanilishi, har bir o'quvchi ko'rgazmali vositani ko'rishda vizual imkoniyatiga ega bo'lishi kerak;
- o'qituvchi ko'rgazmalarni ko'rsatish jarayonida eng muhim o'rinlariga urg'u berishi, o'quvchilar asosiy elementlar ustida mushohada yuritishlari kerak;
- ko'rgazmalar dars mazmuniga mos bo'lishi kerak, ko'rgazmalarning estetik tomoni muhim omil ekanligiga e'tibor berish kerak, tushuntirishlar puxta o'ylangan bo'lishi kerakki, o'quvchilarning o'zlari kerakli ma'lumotlarni topish va aniqlashda ishtirok etishi kerak.


Amaliy mashg'ulotlar metodi o'quvchilarga umumiy texnika-ijodiy ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy metod bo'lib xizmat qiladi.

**O'qitishning amaliy metodlari – bu quyidagi faoliyatlarni ketma-ketlikda bajarish jarayonida amalga oshiriladi:**





### O'qitishning amaliy metodlarining shakllari



Ta'limda muammoli yondashish o'quv dasturlarida ham, o'quvchilarning mustaqil ishi va boshqalarda ham o'zining ifodasini topshirishi lozim. M.N.Skatin muammoli ta'limning quyidagi uchta asosiy turini alohida ifodalagan:

1. Bilimlarni muammoli bayon qilish;
2. Bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga jalb etish;
3. Ta'limning tadqiqiy metodi.

Muammoli ta'limning uchta turini birlashtiradigan umumiylik muammoni hal qilish vositasida o'qitish bo'lib, ularning farqi o'qituvchilar mustaqil izlanish faoliyatining darajasidir.

Muammoli ta'lim deganda o'quv materialini o'quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rganish tushuniladi.

O'quvchi (talaba)ning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular talaba (o'quvchi)ni obyektiv ravishda izlanishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi.

O'quvchi-yoshlarning fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlarning shakllanishi ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnlilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi.

O'qitishning har qanday metodi bolaning ongida muammoli vaziyatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shunday hollardagina pedagogika va muammoli ta'lim haqida gap boradi.

Aslida har qanday ta'lim o'qituvchi uchun ham o'quvchi uchun ham va jamiyat uchun ham muammolidir. Muammoli-ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaqtning, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat.

Muammoli vaziyat o'quvchining ma'lum ruhiy (psixik) holatidir. Bunday holat ma'lum topshiriqni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash o'quvchilarda predmet to'g'risidagi, ishni bajarishning usuli yoki shartlari to'g'risidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg'otadi.

O'quvchilarda bilishga havas, izlash-qidirishga undaydigan, masalani hal qilish jarayoni bilan bog'liq intellektual hislar va ruhiy kechinmalar hosil qiladigan muammoli vaziyat yaratish mumkin. Shunda u o'quv materialini o'qish, yaxshi baholar olish va o'qituvchilarning talablarini bajarish zarur bo'lgani uchungina emas, balki izlash-qidirishga va qo'yilgan muammoni hal qilishga shaxsan qiziqqani va intilgani uchun ham o'zlashtiriladi.

Ilmiy kashfiyotlar tarixini va ular munosabati bilan olimlar hayotida sodir bo'lgan hodisalarni qiziqarli bayon qilish har narsani bilishga kuchli havas

uyg‘otish uchun katta ahamiyatga va muammoli vaziyatlarni yaratish uchun negiz bo‘la oladi.

Lekin o‘qituvchi shuni esda tutishi kerakki, o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirishlari uchun faqat muammoli vaziyatlarning o‘zi kifoya qilmaydi. Muammo va vazifalar qo‘yish bilan olishda faollikni va qiziqishni oshiradi, ammo muammoni hal qila bilish zarur. Faqat muammoni hal qilish bilan o‘quvchilar o‘zlarining ilmiy qoida va nazariyalarni o‘rganish usullarini yarata olmaydilar, balki insoniyat bosib o‘tgan va fanda aniq belgilab qo‘yilgan yo‘l bilan bora oladilar, xolos. Shuning uchun muammoli ta’lim o‘quv materialini o‘rganishning an’anaviy, tushuntirish-namoyish etish usullariga asoslangan.

Muammoli vaziyatlar yaratish o‘quvchilarning fikriy faoliyatini tashkil etish yo‘llaridan biri bo‘lib, boshqa o‘qitish metodlari bilan birgalikda o‘quv materialini ancha muvaffaqiyatli va maqsadga muvofiq holda o‘rganishga yordam beradi.

Ta’lim olish shakllari“Pedagogika nazariyasi va tarixi”<sup>35</sup> kitobida o‘quv ishlarini tashkil etishning quyidagi shakllari: dars, ekskursiya, o‘quv ustaxonalaridagi mashg‘ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta’limi shakllari, uy ishlari, sinfdan tashqari o‘quv ishlarining shakllari (predmet to‘garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlar) keltirilgan.

Ta’lim olish shakllari<sup>36</sup>

Ta’lim olish shakllari quyidagilardan iborat:

ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta’lim olish (kunduzgi);

ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta’lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy);

dual ta’lim;

oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish;

katta yoshdagilarni o‘qitish va ularga ta’lim berish;

inklyuziv ta’lim;

eksternat tartibidagi ta’lim;

---


<sup>35</sup>Р.А.Мавлонова., Н.Х.Вохидова., Н.Х.Рахманкулова. Педагогика назарияси ва тарихи. Дарслик.Тошкент. Фан ва технология. 2010й. 216б.

Ўзбекистон республикасининг таълим тўғрисидаги Қонуни Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 19 майда қабул қилинган Р.А.Мавлонова., Н.Х.Вохидова., Н.Х.Рахманкулова. Педагогика назарияси ва тарихи. Дарслик.Тошкент. Фан ва технология. 2010й. 216б.

<sup>36</sup>О‘zbekiston respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan

mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash.

Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. Masofaviy ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.



Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi.

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi.

Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir.

Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va yoki uning muqobilidir.

Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi.

Eksternat tartibidagi ta'lim olishni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.<sup>37</sup>

An'anaviy ta'lim o'zida XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida yashab ijod etgan buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670 y) tomonidan asoslangan sinf-dars tizimi mohiyatini aks ettiradi. Mazkur tizim mohiyati quyidagilardan iborat:

---

<sup>37</sup>O'zbekiston respublikasining ta'lim to'g'risidagi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan

a) o'quvchilar yoshlari va tayyorgarlik darajalariga ko'ra sinflar tarzida guruhlanadilar va umumiy ishini bajaradilar:

b) o'quv predmetining mazmuni bir qator baravar va izchil joylashtirilgan qismlarga ajratilib, ular birin-ketin ma'lum jadval bo'yicha keladilar.

Sinf-dars tizimi asosini tashkil etuvchi sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo'lgan muayyan o'quvchilar guruhini, dars esa bevosita o'qituvchining rahbarligi hamda nazorati ostida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonini anglatuvchi tushunchalardir.

Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli hisoblanadi. Sinf-dars tizimi quyidagi mazmunga egadir:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilim darajasiga ko'ra bir xil bo'lgan o'quvchilarning doimiy guruhiga ega bo'ladi;

2. Dars jarayoni asosan 45 daqiqa davom etib, qat'iy jadval asosida olib boriladi;

3. Dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyat birligida asoslangan bo'lib, bevosita o'qituvchi rahbarligida jamoa, guruhi va yakka tartibda olib boriladi;

4. Dars mashg'uloti o'tilayotgan va o'zlashtirilayotgan materialning mazmuniga qarab turli xil metodlar yordamida olib boriladi hamda umumiy ta'lim tizimining bir qismi sifatida, albatta, tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o'zlashtirish uchun zamin yaratishga xizmat qiladi.

Darsda o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslanadi. O'qituvchi darsda barcha o'quvchilar faoliyatini nazorat qiladi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro aloqalari va nazoratini qo'llab-quvvatlab turadi. O'qituvchining dars jarayonidagi faoliyati o'quvchilar tomonidan fan asoslarining o'zlashtirilishi ularda zarur ko'nikma va malakalarni hosil bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi;

2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi;

3. O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan, o'quvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash;

4. Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish;

5. O'qituvchining rahbarlik vazifasi bilan o'quvchilar faol bilish faoliyatini birga olib borish;

6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish;

7. O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish;

8. Darsda o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish;

9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish;

10. Darsda o'quvchilar erkinligini ta'minlashga erishish.

Bir soatlik darsga mo'ljallangan dastur o'quv materialini mazmunini bayon qilish, didaktik maqsad va talablarga muvofiq tashkil etilgan mashg'ulot turi dars turi deb yuritiladi. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malaka bilan qurollantirishda mashg'ulotning asosiy qismini isho'ol qilgan ta'lim shakli u yoki bu dars turini tashkil etadi.

Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab, qarama-qarshi jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usul va formalari vujudga keladi, buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil variantlari paydo bo'ladi.

Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.

3. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi.

4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.



## 5. Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars turining qismlari bo'lish mumkin. Misol uchun ta'lim muassasalarida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirilishi mumkin:

- a) yangi bilimlarni bayon qilish;
- b) yangi bilimlarni mustahkamlash;
- v) yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;
- g) yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar ana shunga bo'ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Muayyan dars turi bilan ish ko'rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars turi tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Darsning tarkibiy tuzilishi u yoki bu dars turining umumiy holati, uning qismlari mohiyatini anglatadi. Ma'ruza umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda yangi turdagi o'quv muassasalarida 45 daqiqalik bir akademik soatdan iborat bo'ladi. Umumiy qoidaga muvofiq ma'ruza bir dars davomida oxiriga yetkazilmay qolgan bo'lsa, u yangi mashg'ulotda davom ettiriladi. Har bir mavzu bo'yicha ma'ruza materiallari tushuntirib bo'lingach, o'quvchilar bilan savol-javob o'tkaziladi. Har bir mavzu yuzasidan foydalanish lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv rejasiga 7-sinfdan boshlab fakultativ mashg'ulotlar kiritiladi. Fakultativlar – o'quvchilarning qiziqish va xohishlariga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir.

Maktab ma'muriyati hamda pedagogik jamoa oldidagi har bir o'quvchining fakultativlardan birini tanlash imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash vazifasi qo'yiladi, bu keyinchalik uning uchun majburiy bo'lib qoladi. Fakultativ

mashg'ulotlar o'quvchilarning mustaqilligi hamda faoliyatini oshirishga, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi.

Fakultativ mashg'ulotlarda qo'yiladigan ma'ruzalar amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda o'quvchilar adabiyotlar bilan ishlash malakasini, mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmasini egallaydilar, murakkab bo'lmagan tajribalar va tadqiqotlar o'tkazish metodikasini o'zlashtiradilar, tajriba qurilmalari va texnikani ishlatish malakasini hosil qiladilar. Fakultativ mashg'ulotlar majburiy fanlar yuzasidan bo'lgan mashg'ulotlar bilan mustahkam aloqadorlikda tashkil etilishi kerak.

Keyingi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida xususan, ijtimoiy-gumanitar predmetlar yuzasidan seminar mashg'ulotlarini tashkil etish keng qo'llanmoqda. Seminarlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajak faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir.

Seminar mashg'uloti o'quvchilar tomonidan u yoki bu mavzu bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash hamda uni sinf o'quvchilari bilan muhokama qilish yo'li bilan olib boriladi.

Seminarlarga 2-3 hafta tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar adabiyotlarni o'rganadilar, material yig'adilar, turli kuzatishlar o'tkazadilar, o'z axborotlari yuzasidan tezislar tuzadilar.


Seminar mashg'uloti o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladi. U o'quvchilar ishini yo'naltirib turadi, mavzuga oid savollari yuzasidan tashkil etilgan muhokamani yakunlaydi. Zarur qo'shimcha mulohazalar bildiradi, materialni muayyan tizimga soladi. Ma'ruza qilgan, muhokamada qatnashgan o'quvchilar faoliyati baholanib boriladi.

Seminar mashg'uloti o'quvchilar e'tiborini darsga jalb etish, ularning qiziqishini orttirish, ularni mustaqil ishlashga, fikrlashga o'rgatish, darsni

faollashtirish hamda o'quvchilar aqliy qobiliyatlarini o'stirishda muhim o'rin tutadi (18-shakl).

**O'quv vositalari** – bu ta'lim jarayonida ma'lumotni yetkazib berish uchun hamda pedagog va o'quvchi o'rtasida ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlariga erishishda foydalaniladigan odamlar tomonidan tayyorlangan yoki tabiiy materiallar iborat obyektlardir.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da: “Vosita – biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa, qurol” deb ta'riflangan” Shuning uchun vositalar bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarni o'quvchilarni atrof tabiat haqidagi bilimlar bilan qurollantirish imkoniyatlarini kengaytiradi. O'quv vositalari – o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil qilish uchun foydalaniladigan obyektlar majmui.



**Darslik** – muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi. Darslikning xarakterli xususiyati - bu uning mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir. Darslikda material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi.

O'quv darsligi bir qator talablarga muvofiq yaratiladi. Ushbu talablar quyidagilardan iboratdir:

1. O'quv darsligida ilmiy bilimlar tizimi va hajmi o'quv dasturi talablariga hajmda tegishli sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.
2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari hamda g'oyaviy yo'nalishi tizimli va izchil bo'lishi, keltirilgan ma'lumot va dalillarning asosli, ishonchli bo'lishi, ular to'g'ri tahlil, aniq ta'rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi lozim.
3. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'liqligi ta'minlanishi lozim.
4. Darslik fanda isbot qilinmagan, ma'lum ta'rif va qoidalarga ega bo'lmagan, mavjud masalalardan holi bo'lishi kerak.
5. Bayon qilinayotgan materialning xususiyatiga bog'liq holda tegishli qoida va ta'riflar berilishi, dalillar keltirilishi va ba'zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa tasvirlar bilan boyitilishi talab etiladi.
6. Bayon qilinayotgan material o'quvchilarga tushunarli, pishiq-puxta va ixcham jummalardan iborat bo'lishi lozim.
7. Darslikning tashqi ko'rinishi, bezagi muayyan sinf o'quvchilarining estetik didlariga mos keladigan bo'lishi katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.
8. Darslik muayyan sinf o'quvchilari uchun joriy qilingan gigiyena qoidalariga muvofiq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.
9. Mavzulardagi fikrlar aniq va qisqa bo'lishi, ilmiylikka asoslangan bo'lishi kerak.

Darsliklar o'quv materialini to'laroq va chuqurroq egallab olishga yordam beruvchi o'quv qo'llanmalari bilan to'ldirilish lozim.

Yo'nalishi va hal qilinadigan vazifalarga ko'ra o'quv qo'llanmalarni quyidagicha bo'lish mumkin:

a) o'quv materialini chuqurlashtiruvchi va uni eslab qolinishiga yordam beruvchi qo'llanmalar – xrestomatiya, mashqlar to'plami, o'qish kitobi, kartalar:

b) o'rganiladigan masalalarni tasvirlovchi va bu bilan aniq tasavvur hosil bo'lishiga yordam beruvchi qo'llanmalar – rasmlar, ko'rgazmali qurollar siklli, plakatlar, diagrammalar, diapozitivlar, atlaslar.

v) ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beruvchi qo'llanmalar, topshiriqlar kartochkasi.

g) ma'noni tushunishni yengillashtiruvchi qo'llanmalar lug'atlar, ma'lumotnomalar.

d) ko'p maqsadga xizmat qiluvchi qo'llanmalar – kinofilmlar, ensiklopediyalar va boshqalar.

O'quv dasturi va darslikning uyg'unligidan kelib chiqib o'quv muassasalarida ta'lim va aniq darslar olib boriladi.

Ta'limning maqsadi mustaqil jamiyatimiz ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan "Barkamol avlod"ni tarbiyalashdir. Ta'limning vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Darsning maqsadi o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirish va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mavzuga zamin yaratishdan iborat.

Darsning mazmunini o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan tugal ma'noga ega matn tashkil etadi. Uni o'quvchilar ongiga sindirish jarayonida manba, xulosa va hikoyalardan foydalaniladi.

Dars o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat. Shu maqsad va mazmun o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos belgilanganligi, metod va tuzilishi bo'lgan, qat'iy dars jadvaliga muvofiq, o'qituvchi rahbarligi ostida, sinf o'quvchilarining hammasi bilan yoki har biri bilan individual ravishda o'tkaziladigan ilmiy muloqotning tashkiliy formasiga aylanadi.

**Ma'ruzalar to'plami** — muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli

tayanch atama va iboralar keltirilgan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

**Mashqlar (masalalar) to'plami** — muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek ta'riflash, ifodalash, shakllantirish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltirilgan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Lug'at**— aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr.

**Dayjest**— ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan nashr.<sup>38</sup>



### Savol va topshiriqlar:

1. Didaktikaning asosiy vazifasi nimadan iborat.
2. Y.A.Konenskiyning ta'lim rivojlanishiga qo'shgan xissasi
3. Ta'lim paradigmalari aytib bering va tasniflang.
4. Zamanaviy ta'lim jarayoni qaysi ta'lim paradigmaloriga asoslanadi?
5. Ta'lim qonuniyatlari deganda nimani tushunasiz?
6. Ta'limning ichki va tashqi qonuniyatlarini tasniflang.
7. Ta'lim qaysi tamoyiollar asosida tashkil etiladi.
8. Ta'limning ilmiylik tamoyilining mohiyatini tasniflang.
9. Ta'limning tarbiyaviy xarakterga egaligi tamoyili yoritng.

---

<sup>38</sup><https://lex.uz/docs/3970451>Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yangilab borish tartibi to'g'risida nizom

10. Ta'limni hayot bilan bog'liqlik tamoyili.
11. Ta'limning mustahkamlilik va tushunarlilik tamoyili.
12. Ishtimoiylashuv tamoyilining ahamiyatini ayting.
13. Ta'lim metodlarining tasniflang.
14. An'anaviy hamda interfaol ta'lim metodlari haqida fikr bildiring.
15. Og 'zaki ta'lim metodlarining turlarini ayting.
16. Ko'rgazmali ta'lim metodlarining ahamiyati.
17. Amaliy ta'lim metodlaridagi ish turlarini sanab bering.
18. Kitob bilan ishlash ish turlarini ayting.
19. Qanday ta'lim olish shakllarini bilasiz?
20. Dars maqsadlarini tasniflang.
21. Ta'lim jarayonida o'qituvchi qanday vazifalarini amalga oshiradi?
22. Ta'lim vositalari nima?



## Testlar

### I. Moslikni aniqlang

- |                                 |   |
|---------------------------------|---|
| 1. Paradigma                    | a) Ta'lim shartlari va ta'lim natijalari o'rtasidagi barqaror aloqa   |
| 2. Ta'lim qonuniyatlari         | b) o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli formada, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi |
| 3. Ta'lim metodlarining tasnifi | c) bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatlarining tashqi ifodasidir.   |
| 4. Ta'lim olish shakllari       | d) o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish usuli   |
| 5. Ta'lim vositalari            | e) turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariyadir   |
| 6. Ta'lim tamoyillari           | f) ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi   |

II. **Fikrni to'ldiring.** Didaktikani Y.A.Konenskiy didaktikani ".....narsaga o'rgatish ....." deb atadi.

### III. Moslikni aniqlang

- |          |   |
|----------|---|
| 1. Bilim | a) muayyan vaziyatdagina emas, balki dastlabki shart-sharoitlar o'zgargan vaqtda ham ma'lum xatti-harakatlar qilish (hosil bo'lgan tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi |
|----------|---|

2. Malaka                    b)            odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir.
3. Ko'nikma                c)            muayyan mehnat faoliyatini bajarish uchun lozim bo'lgan nazariy va amaliy umumta'lim, kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalar majmuasining mavjudligi

### III. Moslikni aniqlang

1. An'anaviy paradigma            a) Modelning mohiyati haqiqat abadiy va o'zgarmas, doimiy ekanligini ta'kidlashdan iborat
2. Ratsionalistik (bixevioristik) paradigma            b) yosh avlodga individual rivojlanishi hamda ijtimoiy tartibni saqlab qolishga yordam beruvchi madaniy meroslarning muhim elementlari – bilim, ko'nikma va malakalar, ilg'or g'oyalar va qadriyatlarni saqlab qolish hamda ularni yoshlarga yetkazish
3. Gumanistik (fenomenologik) paradigma            c) diqqat markazida ta'lim mazmuni emas, balki o'quvchilar tomonidan turli bilimlarning o'zlashtirilishini ta'minlovchi samarali usullari yotadi
4. Ezoterik paradigma            d) ta'lim oluvchi erkin shaxs, ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida o'ziga xos rivojlanish imkoniyatlariga ega.

### IV. Ta'limning qonuniyatlarini guruhlang

1. Ta'limning tashqi qonuniyatlari
2. Ta'limning ichki qonuniyatlari
  - a. ta'lim, tarbiya va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi
  - b. Ta'limot, ta'lim, o'qitish, mustaqil ta'limning birligi
  - c. jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari bilan belgilanadigan ta'limning maqsad, vazifa, mazmuniva metodlari
  - d. ta'limning mazmuni, vazifasi, shakli va metodlarining uzviyligi
  - e. nafaqat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari bilan balki ta'lim jarayoni imkoniyatlari, sharoitlari belgilanadigan ta'limning maqsad, vazifa, mazmuni va metodlari
  - f. ta'limning mazmuni, vazifasi, shakli va metodlarining uzviyligi
  - g. ta'lim natijalarini talabaning tevarak atrof bilan o'zaro ta'sirning o'ziga xos xususiyatlari
  - h. o'qitish samaradorligini ta'limni boshqarish va talabalarning faolligiga bog'liqligi va boshqalar.

### V. Moslikni aniqlang



- |  |    |  |
|--|----|--|
| 1. Ilmiylik tamoyili                           | a) | o'quvchilardagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi   |
| 2. Ta'limni hayot bilan bog'liqlik tamoyili    | b) | o'zida voqea-hodisalar, jarayonlarning sabab-oqibat munosabatlariga oid tahlillarni hamda zamonaviy fan-texnika yutuqlarini ta'lim mazmunida aksettirishni ta'minlashi kerak   |
| 3. Ko'rsatmalilik tamoyili                     | c) | bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini, uning erkinligi, baxt-saodati, hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, uning huquqlarini tan olinishi, bolaning rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratishi, uning ijodiy salohiyatini, moyilligini, qobiliyatlari rivojlantirish, bolaga hayotda o'z taqdirini o'zi belgilashga yordam berish, uni jamiyatga integratsiya qilish, o'zini ushbu jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida tan olinishini nazarda tutadi |
| 4. Ta'limda onglilik va faollik tamoyili       | a) | O'quv faoliyatida o'quvchining layoqat va qobiliyatlar rivojlanadi, mazkur jarayonda o'quvchi ularga tayanadi.   |
| 5. Insonparvarlik tamoyili                     | b) | Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi.  |
| 6. O'qitishda tizimlilik va izchillik tamoyili | c) | o'quv materiali bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lish va ilgari o'tilgan materiallarni to'ldirishga xizmat qilishini, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim va hosil bo'lgan ko'nikma malakalarini hisobga olgan holda yondoshuvni nazarda tutadi.  |
| 7. Ta'limda ishtimoiylashuv tamoyili           | d) | ta'limning yetakchi qoidalaridan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo, nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi   |
| 8. Mustahkamlilik va tushunarlilik tamoyili    | e) | o'quvchilar o'quv materialini xotiralarida uzoq muddatga eslab qolishlari va ulardan o'quv va amaliy maqsadlarda foydalanishlari belgilaydi. Chuqur va mustahkam bilim fundamental bilimdir  |

## VI. Ta'limning metodlarini guruhlang

1. OG'ZAKI
2. KO'RGAZMALI
3. AMALIY

#### 4. KITOB BILAN ISHLASH

#### 5. VIDEO METOD

- a. amaliy ish
- b. didaktik o'yin
- c. hikoya
- d. ko'rish
- e. laboratoriya ishi
- f. ma'ruza
- g. mashq
- h. munozara
- i. o'qish
- j. o'rganish
- k. reja tuzish
- l. suxbat
- m. tahlil qilish
- n. taqdim etish
- o. tezis tayyorlash
- p. tushuntirish

### VI. Moslikni aniqlang

1. Darslik            a) muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatilgan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.
2. **Ma'ruzalar to'plami**    b) muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob sanaladi
3. **Mashqlar (masalalar) to'plami**    c) aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr
4. **Daydjest**            f) aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi to'g'risida ma'lumot

## 5. **Lugʻat**

beruvchi yoki soʻzning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, taʼlim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr  
g ilmiy, ilmiy-uslubiy, oʻquv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid maʼlumotlar toʻplami sifatida foydalaniladigan nashr

## O‘QUV –TARBIYA VAZIYATLARINI LOYIHALASH

### Reja

1. Ta’limda loyihalashning ahamiyati.
2. Ta’lim mazmuni haqida tushuncha.
3. O‘quv tarbiyaviy jarayonini loyihalashtirishning tamoyillari.
4. O‘qitish jarayonini loyihalash va loyihalash bosqichlari.

**Tayanch tushunchalar:** jarayon, tarbiya, ta’lim, mazmun, o‘qitish, loyiha, kompetensiya, ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari, bosqich, malaka.

O‘quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ladi:

– namunaviy o‘quv rejasi va fanlar katalogini ilg‘or xorijiy ta’lim tajribasi asosida respublika iqtisodiyoti tarmoqlarida amalga oshirilayotgan islohotlar, kadrlar iste’molchilari talablari va milliy qadriyatlarni e’tiborga olgan holda ishlab chiqish hamda qo‘shimcha ravishda tanlov fanlar katalogini shakllantirish, mahalliy va xorijiy yangi avlod adabiyotlariga tayangan holda fanlar katalogi bo‘yicha namunaviy fan dasturlarini ishlab chiqish;

– fanlarning ishchi dasturini (sillabusni) ishlab chiqish;

–o‘quv rejasi va tanlov fanlari ro‘yxatiga mos ravishda guruh murabbiyi yordamida o‘quv-metodik bo‘lim (boshqarma) va fakultet dekani nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirish;

– ishchi o‘quv rejalarini tuzish;

– o‘quv jarayoni jadvalini tuzish;

– akademik guruhlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari jadvalini tuzish.<sup>39</sup>

Xo‘sh, loyiha nima? O‘quv loyihasi, o‘qitish jarayonini loyihalashtirish deganda nima nazarda tutiladi?

---

<sup>39</sup><https://lex.uz/ru/docs/-5193564> Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida Nizom

**Loyiha** (lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan g‘oya, ma’lumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yo‘llarini belgilab beruvchi g‘oyalar, fikrlar, obrazlardir.

**O‘quv loyihasi** – ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy muammolarni ta’lim oluvchilar tomonidan amalga tadbqiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik turidir.

O‘qitishni loyihalash esa ta’limning umumiy maqsadi, mazmuni o‘quv maqsadlari o‘qish, o‘qitish, o‘zlashtirishni baholash, tuzatishlar kiritishdir.

Demak, o‘qitish jarayonini loyihalash uchun ijtimoiy buyurtma sifatida ta’limning umumiy maqsadlari asosida, o‘quv maqsadlarini, buning uchun o‘qish va o‘qitishni, o‘zlashtirishni rejalashtirgan holda, o‘qish natijalarini kafolatlash tizimini ishlab chiqish lozim. Shunday qilib, pedagogik texnologiyada o‘quv mazmuni asosida o‘zlashtirish natijalarini kafolatlash uchun, o‘quv maqsadlari oydinlashtiriladi va o‘quv mashg‘ulotlari loyihalashtiriladi. Buni qayta takrorlanadigan, tiklanadigan tuzilma deb qaraydigan bo‘lsak, unda o‘quv jarayoni ma’lum modullar, birliklardan iborat bo‘ladi, ular umumiy holda ushbu modullar, birliklarning qo‘shilishi asosida yagona va yaxlit mazmunga keltiriladi. Bunga eng muhimi, takrorlanadigan, qaytariladigan va tuzatishlar kiritilgan, ilmiy asoslangan teskari aloqaning mavjudligidir.

Ma’lumki, o‘quv jarayoni 3 ta bir-biri bilan bog‘liq o‘qitishning tarkibiy qismlaridan tashkil topgan.

1. Motivlar (M).
2. O‘quvchining o‘qish faoliyati (O‘F).
3. O‘qituvchining boshqaruvchilik faoliyati (B).

Shunday qilib, o‘quv jarayonini quyidagi formula tarzida ifodalash mumkin.

$$\mathbf{O'J=M+O'F+B}$$

Mana shu formula asosida maqsad oydinlashtiriladi, texnologiyalar belgilanadi, faoliyat yo‘lga qo‘yiladi va amalga oshiriladi. Buni oldindan rejalashtirish yoki o‘quv jarayonini loyihalashtirish deb ataydilar. Pedagogik

texnologiyaning bu qismi amalga qo'llanilganda ta'limning tabiatga uyg'unlik qoidasiga asoslansa, ya'ni o'qituvchining tabiiy xususiyatlari – qiziqishi, istak, xohishi, ehtiyoji, qobiliyati, aqliy kuchlari hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirishda mazkur holat hisobga olinishi darkor.

M.Ochilov pedagogik texnologiya metodining muvaffaqiyati ta'limni rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o'quv-biluv jarayonini loyihalashtirish deb tasniflaydi. Unga ko'ra, o'quv mashg'ulotlari niloyihalashda o'qituvchi ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, dastur, darslik, ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi topshiriqlar mazmunini o'qituvchi-o'quvchining oldingi ish faoliyati mazmuni, kelajakdagi amalga oshiriladigan faoliyati inobatga olinadi. O'quv jarayonini loyihalashda o'quvchilarning belgilangan maqsad sari harakatlanishi uzluksiz nazorat qilishni e'tibordan chiqarmaslik kerak.

Shunday qilib, ta'lim jarayonining qurilmasi, uniloyihalashning:

a) ta'limmaqsadlari va natijalarni belgilashni;

b) natijalar asosida (diagnostikalash orqali) nazorat topshiriqlari va baholash mezonlarini ishlab chiqishni; hamda o'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (dars konspekti)ni ishlab chiqish bosqichlarini amalda qo'llashni nazarda tutadi.

Ta'limda loyihalash bu amaliyotga qaratilgan faoliyat bo'lib, uning maqsadi amalda mavjud bo'lmagan ta'lim tizimlari hamda pedagogik faoliyat turlarini ishlab chiqishdan iboratdir.


Loyihalash obykti - bu muhit yoki jarayon. Loyihalash predmeti – loyihada taqdim etilgan tasavvur qilingan mahsulot.

Ta'limni loyihalash predmeti:

- ta'lim dasturlari;
- ta'lim standartlari;
- ta'lim muassasalarining turlari;
- uslubiy markazlar va boshqalar.

Ta'limda loyihalash darajalari bu loyihaning bosqichlari va natijalari umumlashmasi bo'lib loyihalash doirasida qo'llaniladi

Ta'limda natijaga qo'yiladigan talablarga va mahsulot taqdim etish shakli loyihalash darajalari quyidagicha:



### **Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Davlat ta'lim standartlari<sup>40</sup>**

Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda, o'quvchilarning bilish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarning aniq belgilangan doirasi tushuniladi. Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

<sup>40</sup><https://lex.uz/acts/-316337> O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida

a) ijtimoiy ishlab chiqarishning eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzumning xususiyatlari;

b) davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurti oldiga qo'yadigan maqsad va vazifalari;

v) o'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlari va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar.

Maktablarda beriladigan ta'limning mazmuni tarixiy va sinfiy xususiyatga egadir. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hamma bosqichlarida maktablarda yoshlarga beriladigan ta'limning mazmuni, hajmi o'sha ijtimoiy tizimning iqtisodiy talab va ehtiyojlari, fan va texnika taraqqiyoti darajasi bilan belgilab kelingan. Ta'lim tizimi sifatida – davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib ular Doirasida insonni tarbiyalash jarayon amalga oshiriladi. Shu tariqa ta'lim doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlariga kelib, pedagogika tarixida «maktabda beriladigan ma'lumotning mazmunini bola xohishiga bo'ysundirish»ga qaratilgan nazariya keng yoyildi. Mazkur nazariyaning ko'zga ko'ringan vakili Amerikalik faylasuf – pedagog Jon Dyudir. Uning qarashicha, maktab azaldan mavjud bo'lgan tabiiy layoqatlarni, qiziqish va odatlarni Rivojlantirishga xizmat qilmog'i lozim. Shunday ekan, maktablarda hamma o'quvchilar uchun umumiy bo'lgan o'quv rejasi va dasturlarning bo'lishi ham shart emas, balki alohida-alohida shaxslar layoqatiga moslangan ma'lumotlar berilishi lozim.

1917-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston hududida VII-VIII asrlardan beri davom etib kelgan eski – «usuli qadmiya», XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida paydo bo'lgan «usuli savtiya» maktablari, xat-savod o'rgatadigan diniy maktablar bo'lgan. 1905-yildan so'ng, o'lkaning ba'zi shaharlarida «jadid» maktablari paydo bo'la boshladi.



Shunday qilib, maktablarning hammasi o'sha ijtimoiy tuzum-muhit talablaridan kelib chiqdi va Shu davr iqtisodiy, ma'naviy maqsadlari uchun xizmat qildi.

Hozirgi zamon maktablarida ta'limning mazmuni umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lgan iymonli, e'tiqodli, bilimli yoshlarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

***Davlat ta'lim standartlari*** – umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

### **O'quv rejalari va dasturlari. Darslik.**

Ta'lim mazmuni o'quv rejasi, dasturi va darsliklarda ifodalangan.

**O'quv rejasi** - o'quv yurtlarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda o'quv rejasi tegishli vazirliklar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Bir tipdagi o'quv yurtlari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir o'quv yurti o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, mamlakatdagi tayanch oliy o'quv yurtlari uchun o'ziga xos o'quv rejasiga ega bo'lishga ruxsat etilgan. O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham O'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv yurtlarining O'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda o'quv yurti o'quvchisi, talabasi yoki tinglovchisida shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan<sup>41</sup>.

---

<sup>41</sup> <https://uz.wikipedia.org/>

**O‘quv rejasi** – davlat hujjatidir. O‘quv rejalari xalq ta‘lim vazirligi tomonidan tuziladi va Tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. Maktabning o‘quv rejasi maktabda o‘rgatish uchun tanlangan o‘quv predmetlarini, ularning ta‘lim olish yo‘llari bo‘yicha taqsimlanishini, har bir predmetga ajratilgan soatlarning haftalarga bo‘linishini belgilaydi. O‘quv rejasi deb, o‘qitiladigan fanlar, o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining Tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjatiga aytiladi. O‘quv rejalari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. Shuningdek, o‘quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asosan tuziladi. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejining maqomi tenglashtirilgan. Ularning o‘quvchilari va bitiruvchilari oliy o‘quv yurtiga kirishda yoki tanlangan yo‘nalish bo‘yicha faoliyat ko‘rsatishda konstitutsiyaviy haq-huquqlarini amalga oshirishda teng huquqlidirlar.

Har bir o‘quv fani uchun o‘quv dasturi tuziladi. O‘quv dasturi o‘quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O‘quv dasturi har bir o‘quv fanining o‘qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. O‘quv dasturida o‘quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo‘yicha o‘quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko‘nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi.

Dasturning asosiy vazifasi – o‘quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo‘linish, ularni o‘rganish tartibi, soatlar turi ko‘rsatiladi. Ma‘lum mavzu yuzasidan o‘quvchi o‘zlashtirish lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta‘limning mazmunini o‘quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, u darslikka o‘tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo‘llanma hisoblanadi.

**Darslik** – muayyan fanga doir bilim asoslarini ma‘lum tartibda bayon etadigan va yuqori ma‘naviy-g‘oyaviy, ilmiy uslubiy saviyada yozilgan kitob; o‘quv adabiyotining asosiy va yetakchi turi. darsliklar 2 asosiy guruhga bo‘linadi:

o‘quvchilar uchun darsliklar va talabalar uchun darsliklar. O‘zbekistonda o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan darsliklardan umumiy o‘rta ta’lim maktabi, ixtisoslashtirilgan maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji, maxsus ta’lim maktablari va maxsus internat maktablarning o‘quvchilari; talabalar uchun nashr etilgan darsliklardan oliy o‘quv yurtlari talabalari mustaqil hamda o‘qituvchilar rahbarligida foydalanadilar<sup>42</sup>.

Darsliklar muayyan fanga oid asosiy fakt, ilmiy tushuncha, qonun va nazariyalar mazmunini tegishli o‘quv yurtining dasturi hajmida ta’lim vazifalari hamda o‘quvchi (talaba)larga mos tarzda ochib beradi. darsliklar ta’lim-tarbiya vazifalarining imkoni bor darajada hal etilishiga, ya’ni bilimning muntazam, mustahkam va ongli o‘zlashtirilishiga, o‘quvchi (talaba)larda fanning muayyan sohasiga qiziqish uyg‘otishga, ularda ilmiy tafakkurning tarkib to-pishiga yordam beradi. Darslikning tili ravon va tushunarli bo‘lishi, o‘quvchilar nutqining o‘shishiga yordam berishi lozim.

Darsliklar tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. Sharqda, xususan Furot va Dajla daryolari oralig‘ida yashagan qadimgi shumerlar davrida sopol taxtachalarga bitilgan matnlar mil. av. 2-ming yillikka oid bo‘lib, ular “qo‘llanma” va “daryoliklar” vazifasini o‘tagan. Keyinchalik boshqa sharq xalqlarida, ulardan keyin esa qadimgidunyoda papirus yoki pergamentga bitilgan qo‘lyozma o‘quv kitoblari vujudga kela boshlagan va ular ma’lum bir sohaga, kasbga o‘rgatish uchun asosiy manba vazifasini o‘tagan. Kitob nashr etish ishi yuzaga kelgach, darsliklar hammabop bo‘la boshladi. Pedagogika va psixologiya fanlarining taraqqiyoti bilan darsliklarning mazmuni va metodik tuzilishi tobora mukammallashib bordi.

O‘rta Osiyoni Rossiya bosib olgunga qadar bu yerda mavjud bo‘lgan maktab va madrasalardagi ta’lim-tarbiyaning asosiy mazmuni islom ta’limotini o‘rgatishdan iborat bo‘lgan va ularda arab, fors, eski turk tillarida yozilgan diniy kitoblar darslik vazifasini o‘tagan. Bu darsliklar Qur’on oyat va suralaridan,

---

<sup>42</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Darslik>

boshqa diniy kitoblarning turli qism va parchalaridan iborat bo'lgan. Maktabxonalarda "Haftiyak", "Chor kitob" va boshqa kitoblar o'qitilgan. Madrasalarda ham musulmon diniy qoidalari to'plami — "Avvali ilm" (fors tilida savol-javob tarzida tuzilgan), arab tili grammatikasiga oid "Bidon", "Qofiya" kabi qo'llanmalardan foydalanilgan. Ba'zi madrasalarda talabalar qadimgi kitoblarni mustaqil o'qib o'rganishi natijasida geografiya, astronomiya, tibbiyot va boshqa fanlarga oid ayrim ma'lumotlardan xabardor bo'la borganlar, mumtoz shoirlarning asarlari bilan tanishganlar.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin rus metodistlari ta'sirida mahalliy tillarda maktab darsliklari yaratila boshlandi. XIX asrning 70-yillaridan Toshkentda rus va rus-tuzem maktablari uchun ayrim darsliklar nashr etildi. 1875-yil A. A. Terentyevning "Russkaya azbuka dlya shkol sredney Azii" (O'rta Osiyo maktablari uchun rus alifbosi), 1885-yil V. P. Nalivkinning "Russkaya azbuka dlya shkol sredneysedlogo naseleniya Turkestanskogo kraya" (Turkiston o'lkasidagi o'troq aholiga mo'ljallangan rus-musulmon maktablari uchun alifbo) darsliklari paydo bo'ldi. 1887-yil V. P. Nalivkinning "Terma kitob" nomi bilan o'zbekcha-tojikcha xrestomatiyasi, 1896-yil uning "Turkiston viloyatining Toshkand shahridagi seminariya degan madrasada o'qiydurgan terma kitob" asari nashr qilindi. 1898-yildan S. M. Gramenitskiyning 3 qismdan iborat "Kniga dlya chteniya" (O'qish kitobi) kitobi qo'llanila boshlandi.

XX asrning boshlarida yangi usul maktablarining ayrim muallimlari ham o'z ish tajribalarini umumlashtirib, o'quv kitoblari tuza boshlashdi. Masalan, 1902-yil Toshkentda Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval" alifbesi, 1903-yil Aliasqar Kalininning "Muallimi soniy" xrestomiyasi, Rustambek Yusufbek o'g'lining "Ta'limi avval" va "Ta'limi soniy", Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim", Hamza va boshqalarning o'quv qo'llanmalari bosilib chiqdi. Lekin fizika, geometriya singari ko'pgina fanlardan o'zbek tilida darsliklar yo'q edi. Oktyabr to'ntarishidan keyin barcha fanlar yuzasidan darsliklar tuzish ishiga jadal kirishildi. Masalan, Shokirjon Rahimiyning 1919-yilda chiqarilgan "Sovg'a"

alifbesi, M.Qodirov va boshqalarning 1920-yilda katta yoshli kishilar uchun chiqarilgan “Kattalarga o‘qish” alifbesi, I.Husanxo‘jayev va F.Erg‘oziyevning maktab yoshidan o‘tgan o‘smirlar uchun chiqarilgan “O‘smir” alifbesi, ozarbayjon tilidan o‘zbekchaga tarjima qilingan “Handasa”, “Fizika” kitoblari, V. Flerovning 1918-yilda “Yasnoe utro” (Musaffo tong) nomi bilan chiqarilgan ikki o‘qish kitobi, Ye.D. Polivanov va L. I. Palmining “Mak” (“Lolaqizg‘aldoq”) nomli o‘qish kitobi, K. A. Voskresenskaya, N. P. Arxangelskiy, O. F. Topolskayalarning O‘rta Osiyodagi ruscha bo‘lmagan maktablar uchun “Mak” nomi bilan chiqarilgan birinchi ruscha alifbesi, shuningdek, mazkur mualliflarning O‘rta Osiyodagi 1-bosqich maktablar uchun chiqarilgan “Malenkiy turkestanets” (Yosh turkistonlik) o‘qish kitobi oktyabr to‘ntarishidan keyingi dastlabki davrlarda chiqarilgan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari jumlasidandir. O. Sharafiddinov yozgan “Alifbe” 1938-yildan 1970-yilgacha 1-sinf o‘quvchilarining asosiy o‘quv qo‘llanmasi bo‘lib keldi.

1970-1971 o‘quv yilidan mazkur muallifning Q. Abdullayeva bilan yozgan yangi “Alifbe” kitobi qo‘llanila boshladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan darsliklarni qayta ishlash borasida katta ishlar olib borildi. 1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil yanvarda qabul qilingan “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yetuk mutaxassislar tomonidan bir qator darsliklar mazmunan qayta ishlandi. Jumladan, tarix, adabiyot, geografiya, matematika fanlaridandan yangi mazmundagi darsliklar joriy etildi. Shu davrgacha umumiy o‘rta ta’lim tizimining o‘quv rejasida bo‘lmagan o‘quv fanlari (tabiiyot, odobnoma)dan orginal darsliklar yaratildi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda darsliklar nashr etish ishi keng yo‘lga qo‘yilgan. Darslik tayyorlashga ixtisoslashgan “O‘qituvchi”, “O‘zbekistan”,

“Mehnat”, Ibn Sino nomidagi nashriyotlar, “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi va boshqa nashriyotlar darsliklar nashr etadi. 2000-yil O‘zbekistonda 375 nomda 14 mln. 406,6 ming nusxada darslik nashr etildi.<sup>43</sup>

### **O‘qitish jarayonini loyihalash va loyihalash bosqichlari**

O‘quv mashg‘ulotini loyihalashtirishda o‘qituvchi, avvalo, o‘qitish jarayonini tahlil qilishi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, mustaqil o‘qish bilimlarni ijodiy tahlil qilishga o‘rgatishi, o‘zlashtirilgan bilimlarni ko‘nikmalarga aylantirish uchun o‘quv mavzulari bo‘yicha metodik tizimni yaratadi, o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar mazmunini ishlab chiqadi. Yaratilgan metodik tizim va ma’lumotlar mazmuni yordamida o‘quvchi tasavvur qilishi lozimlilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etadi va o‘quv mashg‘ulotlari uchun bilish faoliyatining tashkiliy shakllari (nazariy dars, amaliy mashg‘ulot)ni maqsadga mos tanlaydi va uni yechishga yo‘llaydi.

O‘qitish yoxud o‘rgatuvchi faoliyati, bilim oluvchilar faoliyatlarini boshqarish, ya’ni o‘quvchilarning o‘quv ishlarini uyushtirish, ularning bilish jarayonlariga rahbarlik qilish, nazorat uyushtirish, ma’naviy axloqiy sifatlarini tarkib toptirishni nazarda tutadi.

Metodlaridan foydalanib, o‘quv tarbiya ishlarini takomillashtirish, ijtimoiy buyurtmani hal etishga qaratilgan. Shunga ko‘ra bu jarayonda shaxsning qobiliyatlari, fazilatlarini, ma’naviy axloqiy sifatlarini, bilish qobiliyatlari rivojlanadi, bo‘lajak kasb egalarida tashabbuskorlik, ijodkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik rivojlanadi va o‘quv mehnati madaniyati tarbiyalanadi.

Mazkur jarayonning samarali bo‘lishi, ijtimoiy buyurtmaning aniq hal bo‘lishi va ko‘zlangan maqsadga erishish uchun, o‘qitish jarayonini loyihalash, ya’ni ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbir etish talab qilinadi. Zero, “Pedagogik texnologiya metodining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda ta’limning rejalashtirilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan o‘quv bilish jarayoni loyihalashtiriladi.

---

<sup>43</sup><https://uz.wikipedia.org/wiki/Darslik>

## **Dars loyihasi va uni amalga oshirish modeli<sup>44</sup>**

Hozirga qadar ko'pgina maktab va kollejlarda dars loyihasini tuzish, ta'lim maqsadini belgilash yoki ta'limni tashkil etish yo'llari kabi elementlar vaqt sinovidan o'tdi.

Dars loyihasining har bir elementida ma'lum bir malakalarni shakllantirish maqsadi bo'lib, ularni bir qancha ta'lim metodlari talablari va amaliy ishlar vositasida amalga oshiriladi. Dars loyihasida quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

1. Mo'ljalni belgilash – Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo'yiladigan savollar , qo'yiladigan muammolar va hokazo.

2. Maqsad – talabalar bugun nimani o'rganadi va natijada qanday ishni bajara oladi (malaka). Ular o'qituvchiga bugungi o'rganganlari asosida ma'lum bir faoliyat turini bajarib ko'rsata olishlari lozim. Bu vazifani qanday bajarishni o'qituvchi belgilaydi.

3. Kirish – o'qituvchi talabalar o'rganishi lozim bo'lgan materialni belgilaydi, konsepsiyani ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo'llarini ko'rsatadi.

4. Modellashtirish (namoyish qilish) – O'qituvchi o'rganilayotganlarni va natijada o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmani grafik shaklda ko'rsatadi yoki namoyish qiladi.

5. Amaliy boshqaruv – o'qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ularning malaka egallashlari uchun qadamma – qadam rahbarlik qiladi. Talabalarni eshitish, ko'rish sezgilarini ishga soladi va faoliyatga kirishishlari uchun imkoniyat yaratadi.

---

<sup>44</sup> <https://hozir.org/ozbekiston-respublikasi-oliy-va-orta-maxsus-talim-vazirligi-an-v23.html?page=12> Ta'lim jarayonini loyihalash ketma-ketligi, qonuniyatlari va tamoyillari

6. Tushunchalarni tekshirish – o‘qituvchi turli savollar yordamida talabalarning qanchalik tushunganlarini dars davomida tekshirib, olg‘a borish mumkinmi yoki yukligini aniqlaydi.

7. Mustaqil amaliyot – o‘qituvchi talabalarni o‘zlarini tekshirib ko‘rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o‘zlari o‘rganganlarini tekshirib ko‘radilar.

8. Darsni tugallash – darsni xulosalash oldida talabalar o‘z ishlarini, o‘rganganlarini o‘qituvchiga so‘zlab berish, namoyish qilish orqali ko‘rsatadilar.

**Darsda belgilangan vazifalar tahlili:** o‘qituvchi darsni taxminan rejalashtirar ekan rejadagi sifatlarni bolalarga o‘rgatish va ularda shu ko‘nikma va malakalarni qanday shakllantirish yo‘llarini izlashi lozim. Buning uchun o‘qituvchi o‘zini o‘quvchi o‘rnida tasavvur etib, bu ko‘nikma va malakalarni bir necha qismlarga bo‘ladi. Shundan keyingina o‘qituvchi har bir qismni ko‘rgazmali tashkil etadi va belgilangan ko‘nikmani o‘quvchi egallashini ta‘minlaydi. Ba‘zi o‘qituvchilar belgilangan ko‘nikmani talabaga o‘rgatish uchun boshidan oxirigacha ko‘rsatib, gapirib beradi. Bunda “tugal material” (ya‘ni izohlangan ko‘nikma) odatdagi kabi dars jihozi hisoblanadi. O‘qituvchi modelni tushuntirgach talaba mustaqil ish paytida unutib qo‘yishi o‘qituvchidan unutgan qismini qayta so‘rashi mumkin. Masalan, men 4-qismni unutdim, mumkin bo‘lsa menga yana bir ko‘rsating. Shundan keyin o‘qituvchi talabaga eslatish uchun individual yordam beradi.

Yoki talaba ko‘rsatilgan ko‘nikmani bajarayotganda o‘qituvchi yo‘l ko‘rsatib turadi. Siz 3-qismni to‘g‘ri bajardingiz. Siz 4-qismdasiz orqaga qaytib, ishni boshidan boshlab bajaring. Tekshirib ko‘ring, to‘g‘ri bajardingizmi? kabi. Talaba bajarishi kerak bo‘lgan ishni ko‘radi va nusxa ko‘chirgan kabi bajarib, unutganini eslaydi.

O‘qituvchi ishni yaxshi bajargan o‘quvchilarni rag‘batlantiradi.

Darsni optimal tashkil etishning birdan bir yo‘li talabalarning o‘z faoliyatini tanqidiy nazorat qilishi va xatolarini bartaraf eta bilishidir. Faqat shundagina



talabalar yanada ko'prok ko'nikmalarni egallaydilar. Ular ongli fikrlash va yanada yaxshirok tushunishga erishadilar.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni loyihalash metodi deganda nima tushiniladi?
2. Ta'lim jarayonida loyihalashning ahamiyati.
3. O'quv jarayonini loyihalashtirish deganda nimani tushunasiz?
4. O'quv loyihasi nima?
5. Ta'limni loyihalash predmeti o'z ichiga nimalarni oladi.
6. Ta'lim mazmuni nimalarda aks etadi?
7. O'qitish jarayonining tuzilishi, uni loyihalash va loyihalash bosqichlari.
8. O'quv maqsadlari, turlari va ularni loyihalash deganda nima tushiniladi?
9. O'quv maqsadlarini oydinlashtirish deganda nima tushiniladi?
10. O'qitish jarayonining umumlashgan pedagogik texnologiyalariga izoh bering.
11. O'qituvchi oldiga qo'yilgan vazifalar nimalardan iborat?
12. Darsni o'tkazish modelini izohlab bering?
13. O'quv rejasi (muayyan namuna asosida berilgan) ni tahlil qiling.
14. O'z darsliklaringizdan birini tahlil qiling.
15. Dars loyihasi va uni amalga oshirish modeli



### Testlar

I. O'qitishning tarkibiy qismlari yozing

1. \_\_\_\_\_

2. O'quvchining o'qish faoliyati. (O'F)

3. \_\_\_\_\_

## VII. Moslikni aniqlang

- |                                      |    |  |
|--------------------------------------|----|--|
| 1. Mo'ljalni belgilash               | a) | Talabalar diqqatini jalb qiluvchi faoliyatni aniqlash. Tarqatma materiallar, xattaxtada yozib qo'yiladigan savollar , qo'yiladigan muammolar va hokazo.    |
| 2. Maqsad                            | b) | talabalar bugun nimani o'rganadi va natijada qanday ishni bajara oladi (malaka).   |
| 3. Kirish                            | v) | 'qituvchi talabalar o'rganishi lozim bo'lgan materialni belgilaydi, konsepsiyani ishlab chiqadi va malakalarni qanday qulay egallash yo'llarini ko'rsatadi |
| 4. Modellashtirish (namoyish qilish) | g) | O'qituvchi o'rganilayotganlarni va natijada o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan ko'nikmani grafik shaklda ko'rsatadi yoki namoyish qiladi                  |
| 5. Amaliy boshqaruv                  | d) | o'qituvchi talabalar faoliyatini boshqaradi. Ular ning malaka egallashlari uchun qadamma – qadam rahbarlik qiladi.   |
| 6. Tushunchalarni tekshirish         | e) | o'qituvchi turli savollar yordamida talabalarning qanchalik tushunganlarini dars davomida tekshirib, olg'a borish mumkinmi yoki yukligini aniqlaydi        |
| 7. Mustaqil amaliyot                 | j) | o'qituvchi talabalarni o'zlarini tekshirib ko'rishlari uchun imkoniyat yaratadi. Talabalar mustaqil o'zlari o'rganganlarini tekshirib ko'radilar.          |
| 8. Darsni tugallash                  | z) | darsni xulosalash oldida talabalar o'z ishlarini, o'rganganlarini o'qituvchiga so'zlab berish, namoyish qilish orqali ko'rsatadilar.                       |

## **PEDAGOGIK NAZORAT VA TA'LIM SIFATINI BAHOLASH**

### **Reja:**

1. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholash turlari.
2. Kredit modul tizimi.
3. Xalqaro baholash tizimlari.


**Tayanch tushunchalar:** nazorat, pedagog, kredit, modul, baho, baholash, tarbiya, ta'lim, o'qitish, kompetensiya, ta'lim-tarbiya jarayoni, oliy ta'lim.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholashda bir necha xil baholash tizimlaridan foydalanilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini bilimini baholash haqida hukumat tomonidan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

2009-yil 11-iyun	“Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida”gi Nizom
2018-yil 9-avgust	“Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida”gi Nizom
2020-yil 31-dekabr	“Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida”gi Nizom

O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirining 2009-yil 11-iyundagi, 204-sonli buyrug'iga asosan Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida Nizom tasdiqlandi. Mazkur xujjatga ko'ra, talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar

hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat bo‘lgan.<sup>45</sup> Nizomda oliy ta‘lim muassasalarida o‘tkaziladigan nazorat turlari aniq tasniflangan.



**Joriy nazorat** — talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazoratishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin.

**Oraliq nazorat** — semester davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko‘p o‘tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**Yakuniy nazorat** — semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” (tibbiyot oliy ta‘lim muassasalari uchun “Yozma ish” yoki OTKS (obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o‘tkaziladi.

“Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizomda talabalar baholarining tasnifi yoritilgan.<sup>46</sup>

<sup>45</sup><https://www.lex.uz/docs/1497646>Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назоратқилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида НИЗОМ

<sup>46</sup><https://www.lex.uz/docs/1497646>Олий таълим муассасаларида талабалар билимини назоратқилиш ва баҳолашнинг рейтинг тизими тўғрисида НИЗОМ

- 5 (a'lo) baho talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda
- 4 (yaxshi) baho talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda
- 3(qoniqarli) baho talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda
- 2(qoniqarsiz) baho talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha baholanadi tasavvurga ega emas deb topilganda

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qaroriga

asosan taqdiqlangan "**Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida**"gi Nizomda kredit modul tizimidagi asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan:<sup>47</sup>

**GPA (Grade** ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari

---

<sup>47</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5193564> Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida NIZOM

<b>Point Average)</b>	o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:
<b>akademik mobillik</b>	oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;
<b>mobillik dasturi</b>	ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;
<b>kredit</b>	ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;
<b>oliy ta'lim muassasasi</b>	belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa;
<b>kreditlarni berish</b>	malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;
<b>kreditlarni ko'chirish</b>	talabalarining akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;
<b>kredit to'plash</b>	ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini

to'plash;

**talabaniing shaxsiy ta'lim trayektoriyasi** talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

**ta'lim dasturi** bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

**ta'lim dasturi katalogi** oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;


**ta'lim natijalari** talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

<b>o'qish yuklamasi</b>	talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;
<b>ro'yxatga olish xizmati</b>	ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;
<b>ta'lim elementlari</b>	ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;
<b>transkript</b>	ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.


**Akademik mobillik** – oliy ta'lim muassasalari talabalari va o'qituvchilarining o'qish yoki o'qitish maqsadida ma'lum muddatga o'z mamlakati ichidagi yoki undan tashqaridagi boshqa ta'lim yoki ilmiy muassasaga ko'chib o'tishidir.

Akademik mobilliklikka madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va akademik to'siqlar asosiy to'siqlardir.





Akademik mobillikni ta'minlash va talabning kreditlari oliy ta'lim muassasasi tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi: fanlar katalogi, belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.



Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va oliy ta'lim muassasasiga kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi. Talaba tomonidan oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha to'plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta'lim muassasasida belgilangan ta'lim olish natijalariga muvofiq o'zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

Talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.<sup>48</sup>

O'quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo'lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro'yxatdan o'tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi. O'quv yili davomiyligi o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq oliy ta'lim muassasasi kengashining qarori bilan o'zgacha tartibda belgilanishi mumkin.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25 — 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga, magistraturada — 30% — 40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi. Kreditning soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori oliy ta'lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi va oliy ta'lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

---

<sup>48</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-5193564> Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida NIZOM

Talaba bakalavriatda o‘qish muddati kamida 3 yil bo‘lganda 180 kredit, o‘qish muddati kamida 4 yil bo‘lganda 240 kredit to‘plashi zarur. Magistraturada o‘qish muddati kamida 1 yil bo‘lganda 60 kredit, o‘qish muddati kamida 2 yil bo‘lganda 120 kredit to‘plashi talab etiladi.

Kredit-modul tizimi talabalarni ro‘yxatga olish xizmatini tashkil etishni taqazo etadi. Ro‘yxatga olish xizmati talabaga tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha yuqori darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarga erishishga yordam beradi. Talabalarni ro‘yxatga olish xizmatini bir qator funksiyalarni bajaradi.

talabalarning fanlarga ro‘yxatdan o‘tishini nazorat qilish;

akademik guruhlarni shakllantirish;

oralik, yakuniy baholashlar va yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazilishini nazorat qilish;

ma‘lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish;

ta‘lim olayotgan talabalarning ma‘lumotlarini arxivga qadar saqlash;

transkript formalarini shakllantirish va talabalarning ma‘lumotlarini kiritish;

talabalar kontingenti bo‘yicha statistikasi yuritish.

#### Talabalarni ro‘yxatga olish xizmati funksiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son qarori talablari asosida ta‘lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga ko‘tarish, shuningdek uzluksiz ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va o‘quv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida

2017-yil 18-iyulda, O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil qilindi.

Davlat inspeksiyasi ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshiradigan, idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar davlat ta’lim muassasalari va nodavlat ta’lim tashkilotlarini (keyingi o‘rinlarda ta’lim tashkilotlari deb ataladi) attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazadigan maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Quyidagilar Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonlari, professor-o‘qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirish;

- idoraviy mansubligi va mulkchilik shaklidan qat’i nazar, ta’lim tashkilotlarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish;

- o‘quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O‘zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ta’lim tashkilotlari reytingini aniqlash;

- nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziyalar berish;

- xorijiy mamlakatlarda berilgan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olishni tashkil etish;

- respublika hududida xorijiy ta’lim muassasalarining ta’lim faoliyatini yuritish huquqiga ruxsatnomalar berish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish;

- ta’lim va fan sohasi tashkilotlari tomonidan beriladigan rasmiy hujjatlarga apostil qo‘yish;

- O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalari reytingini tuzish va rasman e’lon qilish;

- o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlash;

- dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va milliy oliy ta'lim muassasalarining ushbu reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish. Yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan kelib chiqib, Davlat inspeksiyasi bir qator funksiyalarni bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining funksiyalari:

➤ **Ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonlari, professor-o'qituvchilar tarkibi, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish sohasida:**

- o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va malaka talablariga muvofiqligini tizimli ravishda tahlil qilish;

- pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalarini berish uchun normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

- pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish jadvallarini tuzish va tasdiqlash;

- ta'lim sohasidagi boshqaruv organlari hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining pedagog kadrlarga mos ravishda lavozim va malaka toifalarini berishni tashkil qilish va o'tkazish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

- pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalarini berish davriyligi haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

- pedagog kadrlarga lavozim va malaka toifalari berishni tashkil etish;

- lavozim va malaka toifalariga ega bo'lgan pedagog kadrlarga belgilangan namunadagi malaka toifalariga oid sertifikatlar berish;

- pedagog kadrlarning nazorat sinovlari natijasi bo'yicha lavozim va malaka toifalariga oid sertifikatlar berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Davlat inspeksiyasining rasmiy veb-saytida e'lon qilib borish;

- kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda ish beruvchilarning ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash sifati bo'yicha takliflari asosida mutaxassislik malaka talablarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va malaka talablarini, shuningdek ular asosida ta'limning barcha turlari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlarini ekspertizadan o'tkazish;

- ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiya hamda kadrlar tayyorlash sifati monitoringini tashkil etish va amalga oshirish;

- uzluksiz ta'lim tizimida tashkil etiladigan fan olimpiadalari, bellashuvlar va turli ko'rik-tanlovlarni xolis va adolatli o'tkazilishini nazorat qilish, natijalarini tahlil etish;

- ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

➤ **Idoraviy mansubligi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim tashkilotlarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish sohasida:**

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi bilan birgalikda ta'lim sifatini nazorat

qilish va ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- ta'lim sifati nazorati hamda attestatsiya jarayonida qo'llaniladigan nazorat materiallarini ishlab chiqish, maxfiyligini saqlash bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun jalb etiladigan ekspertlarni tanlash, o'qitish va o'qitish yakunlari bo'yicha ushbu ekspertlarni saralab olish mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish;

- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish jadvallarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

- ta'lim tashkilotlarini attestatsiya va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

- ta'lim sifati monitoringi, attestatsiya o'tkazish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etilishini nazorat qilish;

- attestatsiya natijalariga ko'ra, ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish;

- davlat akkreditatsiyasidan o'tgan ta'lim tashkilotlarining reyestrini yuritish;

- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan o'tkazish jarayoni va natijalariga doir masalalar bo'yicha ekspert xulosalari, hisobotlar, tahliliy materiallar tayyorlash;

- idoraviy mansubligidan va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar ta'lim tashkilotlarini tashkil etish (qayta tashkil etish, tugatish) hamda ularning maqomini qayta ko'rib chiqish bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlash, tasarrufida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarga taqdimnomalar kiritish;

➤ **O'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarining O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va malaka talablariga muvofiqligini tahlil qilish, ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash sohasida:**

- o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar bilimlarini aniqlash maqsadida nazorat materiallarini ishlab chiqish;

- nazorat ishlarini o'tkazish, natijalarni tahlil qilish, ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash, shu jumladan ta'lim tashkilotlarida umumta'lim fanlari va kasbiy fanlar bo'yicha tanlab olish asosida bitiruvchilarning ta'lim tayyorgarligi darajasi va o'qitish sifati monitoringini o'tkazish orqali ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

- o'quvchilar, talabalar va tinglovchilar o'rtasida ta'lim sifatini oshirish, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va malaka talablarini bajarish darajasini o'rganishga qaratilgan intellektual ko'rik-tanlovlar, musobaqalarni tashkil etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini olib borish va nazorat qilish bo'yicha tashkiliy-huquqiy va metodik ko'rsatmalarni ishlab chiqishni tashkil etish;

- zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda ta'lim va kadrlar tayyorlash sifati monitoringini olib borish;

- ta'lim tashkilotlarida o'qitish va kadrlar tayyorlash sifatini o'rganish maqsadida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish;

- ta'lim sifatini baholash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash;



- ta'lim sifatini baholash natijalari asosida ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatining umumiy holati bo'yicha ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash;

➤ **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash komissiyasining ishchi organi sifatida nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziyalar berish sohasida:**

- talabgorlarning litsenziya berish to'g'risidagi arizalarini qabul qilish va ko'rib chiqishni tashkil etish;

- talabgorlarning arizalarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha ekspert xulosasini tayyorlash;

- talabgorlarning arizalarini ko'rib chiqish natijalari haqida talabgorlarga ma'lumot berish;

- ijobiy ekspert xulosalari asosida litsenziyalarni rasmiylashtirish va nodavlat ta'lim tashkilotlariga berish;

➤ **Xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olishni tashkil etish sohasida:**

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralarning vakillaridan iborat tarkibda tegishli ta'lim yo'nalish (mutaxassislik)lari bo'yicha xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash) bo'yicha ekspertizadan o'tkazuvchi ekspert komissiyasini (keyingi o'rinlarda Ekspert komissiyasi deb ataladi) shakllantirish va uning ishini tashkil etish;

- talabgorlardan xorijiy mamlakatlarda berilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun zarur bo'lgan ta'lim to'g'risidagi va boshqa hujjatlarni qabul qilib olish;

- ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish jarayoni uchun barcha zarur hujjatlar mavjudligini aniqlash va materiallarni Ekspert komissiyasiga yuborishni tashkil etish;

- Ekspert komissiyasi tomonidan tan olish uchun taqdim etilgan ta'lim to'g'risidagi hujjatni ekspertizadan o'tkazish natijasiga ko'ra xulosa tayyorlanishini tashkil etish;

- Ekspert komissiyasining xulosasi haqida talabgorga ma'lum qilish;

- xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar tan olinganda talabgorlarga guvohnomalar rasmiylashtirilishini tashkil etish;

➤ **Respublika hududida xorijiy ta'lim muassasalarining ta'lim faoliyatini yuritish huquqiga ruxsatnomalar berish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish sohasida:**

- respublika hududida xorijiy ta'lim muassasalarining ta'lim faoliyatini yuritish huquqiga ruxsatnomalar berish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qabul qilib olish;

- respublika hududida xorijiy ta'lim muassasalarining ta'lim faoliyatini yuritish huquqiga ruxsatnomalar berish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;

- pedagog kadrlar ta'minoti, moddiy-texnik baza, o'quv-laboratoriya jihozlari va boshqa texnik vositalarni ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarliligi yuzasidan ekspert xulosasini tayyorlash;

➤ **Ta'lim sohasi tashkilotlari tomonidan beriladigan rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish sohasida:**

- apostil qo'yish uchun murojaatlar va tegishli hujjatlarni qabul qilish hamda ro'yxatdan o'tkazish;
- apostil qo'yish to'g'risidagi murojaatni ko'rib chiqish;
- apostil qo'yish to'g'risidagi murojaatni ko'rib chiqish natijalari haqida ariza beruvchiga ma'lumot berish.

➤ **O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalari reytingini tuzish va rasman e'lon qilish sohasida:**

- ta'lim muassasalari reytingini aniqlashga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirish, ta'lim muassasalarida nazorat ishlari va ijtimoiy so'rovnomalar o'tkazish;
- tizimida ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan birgalikda reytingni aniqlashga oid ma'lumotlarni to'plash maqsadida ishchi guruhlar va komissiyalar tuzish;
- ta'lim muassasalarining faoliyati samaradorligini baholash mezonlari asosida ta'lim muassasalarining reytingini hisoblab chiqish;
- ta'lim muassasalari reytingiga oid ma'lumotlar asosida ta'lim muassasalari faoliyatidagi ijobiy o'zgarishlar haqida keng jamoatchilikni doimiy xabardor qilib borish;
- ta'lim muassasalarining reytingi natijalarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish va Davlat inspeksiyasining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida joylashtirish;
- ta'lim muassasalari reytingi natijalari asosida tahliliy materiallar tayyorlash va chop etish.

➤ **O'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini ta'minlash sohasida:**

- o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ishtirok etish va uning manfaatlarini ifodalash;

- o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarining muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi iqtidorli pedagog kadrlar xalqaro baholash dasturlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda faol ishtirok etishini tashkil etish yuzasidan zarur choralar ko'rish;

- o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tizimli monitoring olib borish hamda ilg'or tajribani dunyo miqyosida ommalashtirish ishlarini muvofiqlashtirish;

➤ **Dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va milliy oliy ta'lim muassasalarining ushbu reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish sohasida:**

- o'quvchilarning bilim darajasini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalari imzolanishiga ko'maklashish;

- milliy oliy ta'lim muassasalarida xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribani qo'llash orqali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- milliy oliy ta'lim muassasalarini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning reytingiga kirishiga ko'maklashish uchun dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari bilan birgalikda seminarlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etish;
- milliy reytingda yuqori o'rinlarni egallagan oliy ta'lim muassasalarining tajribasini ommalashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish va keng targ'ib qilish;
- reytinglar tuzish bo'yicha dunyoning yetakchi reyting tashkilotlari metodologiyasi va xalqaro tajribasi haqida tahliliy materiallar tayyorlash va chop etish.<sup>49</sup>

### **Xalqaro baholash tizimlari**

**PIRLS** – o'qish va matnni tushunish sifati bo'yicha xalqaro tadqiqot bo'lib, butun dunyo bo'ylab boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish darajasi va sifatini taqqoslash imkonini beradi, shuningdek, milliy ta'lim tizimlari orasidagi farqlarni aniqlaydi.

**PIRLS** bo'yicha tadqiqot davriy ravishda - har besh yilda bir marta amalga oshiriladi va hozirgi kunga qadar u to'rt marta: 2001 [1], 2006 [2], 2011 [3] va 2016 [4] da amalga oshirildi.

PIRLS loyihasi Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (International Association for the Evaluation of Educational Achievement, IEA) shafeligida yaratilgan. Xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish borasidagi barcha mas'uliyat Boston (Massachusetts, AQSH)dagi Chestnut Hill kolleji zimmasiga yuklangan. Xalqaro tadqiqotlar uchun topshiriqlarni tayyorlashni Gamburgdagi (Germaniya) ma'lumotlar markazi amalga oshiradi.

Ushbu tadqiqotda boshlang'ich maktabning to'rtinchi sinfini tugatgan o'quvchilarning bilimlari tekshiriladi, chunki maktabda o'qishning to'rtinchi yili

---

<sup>49</sup> <https://www.lex.uz/docs/-3273609>

bolalar rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi, bu vaqtda o'quvchilar o'qishni shu darajada o'zlashtirishlari kerakki, bu bilimlar ularning keyingi bilim olishlarida asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ishtirokchi mamlakatlarda bolalarni maktabga qabul qilish yoshi bir-biridan farq qiladi. Mazkur xolat tabiiy ravishda tadqiqotda ishtirok etayotgan to'rtinchi sinf o'quvchilari yoshida sezilarli farqlarga olib keladi.

Ko'pgina mamlakatlarda boshlang'ich maktab olti yoshda boshlanadi va o'quvchilar to'rtinchi sinfni taxminan o'n yarim yoshda tugatadilar. Biroq, Angliya, Yangi Zelandiya, Trinidad va Tobagoda bolalar besh yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi, shuning uchun bu mamlakatlarda beshinchi sinf o'quvchilari tadqiqotga jalb etiladi. Shvetsiya, Daniya va Sharqiy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida bolalar maktabga yetti yoshdan boradilar; Bu mamlakatlar ishtirokchilari tadqiqot doirasidagi yosh jixatdan(10,7 - 10,9 yosh) eng kattalaridir.

Barcha mamlakatlarda maktablarni tanlash mamlakatdagi barcha maktablar ro'yxatidan ehtimollik usuli bilan amalga oshiriladi.

PIRLS yoki TIMSS tadqiqoti kabi ta'lim sifati bo'yicha tadqiqotlarni monitoring qilishning asosiy talabi turli vaqt oralig'ida olingan natijalarni turli xil vositalardan foydalangan holda subyektlarning turli namunalari solishtirishni ta'minlashdan iborat. Ushbu talabni amalga oshirish uchun maxsus choralar ko'riladi. Masalan, taqqoslanadigan shkalalar tuzish va olingan natijalarni solishtirish uchun test va so'rovnomalarni yozishda oldingi yillarda qo'llanilgan topshiriqlar va savollardan foydalaniladi.


PIRLS tadqiqoti o'quvchilar tomonidan o'qishning sinfda va maktabdan tashqarida eng ko'p qo'llaniladigan ikki turini baholaydi:

- adabiy matnni o'qish tajribasini egallash maqsadida o'qish;
- ma'lumotni o'zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o'qish.

Tadqiqotning kontseptual qoidalariga muvofiq, badiiy va axborot (ilmiy-ommabop) matnlarni o'qishda o'qish qobiliyatlarining to'rtta guruhi baholanadi:

- matndan berilgan aniq ma'lumotlarni topish;
- xulosalash;
- axborotni talqin qilish va umumlashtirish;
- matn mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.

Yildan yilga PIRLS tizimida ishtirokchi mamlakatlar bilan birga ishtirokchi o'quvchilar soni ham ortib bormoqda. Quyida yillar kesimida PIRLS xalqaro tadqiqot dasturida ishtirok etgan davlatlar soni keltirilgan (1-rasm)



### **1-rasm. PIRLS xalqaro tadqiqot dasturida ishtirok etgan davlatlar soni**

Akademik yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi IEA tomonidan ta'sis etilgan TIMS (TIMSS - *Trends in Mathematics and Science Study*) tadqiqot dasturi, dunyoning turli mamlakatlaridagi boshlang'ich maktablarning 4-sinfi o'quvchilari hamda 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasi va sifatini taqqoslash hamda, milliy ta'lim tizimlari orasidagi farqlarni aniqlashga xizmat qiladi.

TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy maqsadi boshlang'ich va o'rta maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim sifatini taqqoslashdan iborat bo'lib, har to'rt yilda bir marta o'tkaziladi. Bunda 4- va 8-sinf o'quvchilarining nafaqat ta'limdagi yutuqlari, bilim va ko'nikmalarinigina emas, balki fanlarga munosabati, qiziqishlari va o'qishga bo'lgan motivatsiyasi ham baholanadi.

Tadqiqotni o'tkazish shunday rejalashtirilganki, ishtirokchi mamlakatlarda har 4 yilda, yani dastlab 4-sinf o'quvchilari 4 yildan so'ng 8-sinf o'quvchisi bo'lganlarida, ularning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim darajalarini kuzatish imkonini beradi. Shunday qilib, boshlang'ich va o'rta maktab o'quvchilarining ta'lim yutuqlari, shuningdek, boshlang'ich maktabdan asosiy maktabga o'tish davrida matematika va tabiatshunoslik ta'limidagi o'zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.<sup>50</sup>

Bundan tashqari, ishtirokchi mamlakatlarda maktab matematika darslari va tabiiy fanlar bo'yicha ta'lim mazmuni, o'quv jarayonining xususiyatlari, shuningdek, ta'lim muassasalari, o'qituvchilar, o'quvchilar va ularning oilalariga bog'liq omillar o'rganiladi. Buning uchun xalqaro testlardan tashqari tadqiqotda qatnashgan o'quvchilar, o'qituvchilar va maktab ma'muriyatlari o'rtasida so'rovnoma o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar test natijalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tadqiqotda ishtirok etayotgan mamlakatlarda matematika va tabiiy fanlar ta'limi holatini tushuntirish imkonini beradi.

TIMSS xalqaro dasturi doirasida tadqiqolarni tashkil etishdava ishlab chiqishda jahonning ko'plab tadqiqot markazlari va professional tashkilotlari ishtirok etadilar, jumladan: Ta'limda test xizmati (ETS — Educational Testing Service, USA), Kanada Statistika markazi (Statistics Canada), Xalqaro Baholash Assotsiatsiyasi kotibiyati. Ta'lim yutuqlari (IEA, Niderlandiya), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma'lumotlarni qayta ishlash markazi (Data Processing Center IEA, Germaniya) va boshqalar. Turli mamlakatlarning mutaxassislari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun dunyoning yetakchi ekspertlaridan iborat

---

<sup>50</sup> [http://centeroko.ru/download/Report\\_TIMSS2007\\_part1.zip](http://centeroko.ru/download/Report_TIMSS2007_part1.zip)



maslahat qo'mitalari tuzilgan bo'lib, barcha tadqiqotlar Boston (ISC – International Study Center, Boston College, USA) kollejidagi Xalqaro muvofiqlashtirish markazi tomonidan muvofiqlashtiriladi


TIMSS xalqaro tadqiqot dasturi vositalari to'plamiga quyidagilar kiradi:

- ✓ muvaffaqiyat testlari;
- ✓ anketalar (talabalar, o'qituvchilar, ta'lim muassasasi ma'muriyati, ta'lim sohasidagi mutaxassislar, tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun);
- ✓ uslubiy yordam (tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha milliy koordinatorlar uchun, namunalar olish, maktab koordinatorlari uchun, test o'tkazish bo'yicha yo'riqnomalar, bepul javoblar berilgan mavzularni tekshirish, ma'lumotlarni kiritish bo'yicha ko'rsatmalar va boshqalar);
- ✓ dasturiy ta'minot (sinflar va talabalarni tanlash, ma'lumotlarni kiritish uchun).

Xalqaro testlar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

- ✓ o'quv va bilish faoliyatning sinovdan o'tgan mazmuni va turlarini yetarli darajada yoritish;
- ✓ ko'pgina ishtirokchi mamlakatlarda xalqaro testlar mazmunining o'rganilayotgan materialga maksimal darajada mos kelishi;
- ✓ testlarni o'tkazish;
- ✓ sinovdan o'tkazilayotgan fan mazmunining matematika va tabiatshunoslik fanini rivojlantirish nuqtai nazaridan ahamiyati;
- ✓ yutuqlarini baholash uchun ishlab chiqilgan testlarning o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi;
- ✓ talablarning ommaviy tadqiqotlar uchun muvofiqligi.

Quyida yillar kesimida TIMSS xalqaro tadqiqot dasturida ishtirok etgan davlatlar soni keltirilgan (2-rasm)




**2-rasm. TIMSS xalqaro tadqiqot dasturida ishtirok etgan davlatlar soni**

O‘quvchilar bilimini xalqaro baholash PISA (*Programme for International Student Assessment, PISA*) dasturi butun dunyo bo‘ylab maktab o‘quvchilarining funksional savodxonligi va bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi testdir. Sinovlar har uch yilda bir marta o‘tkaziladi. Sinovda 15 yoshli o‘smirlar qamrab olinadi. PISA testlari 1997-yilda ishlab chiqilgan va dastlab 2000-yilda qo‘llanilgan.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti yetakchi xalqaro ilmiy tashkilotlar bilan konsorsium<sup>51</sup> da milliy markazlar ishtirokida tashkil etiladi. Konsorsium faoliyatiga Avstraliya Ta’lim Tadqiqotlari Kengashi (ACER) Niderlandiya Milliy pedagogik baholashlar Instituti (CITO), AQSH Ta’lim testxizmati (ETS), Yaponiyadagi Milliy Ta’lim Tadqiqotlari Instituti (NIER) va jahondagi boshqa nufuzli ta’lim tashkilotlarining faol ko‘magida raxbarlik qiladi. Quyida yillar kesimida PISA xalqaro tadqiqot dasturida ishtirok etgan davlatlar soni keltirilgan

<sup>51</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Konsorsium>

(3-rasm)



**3-rasm. PISA xalqaro tadqiqot dasturida ishtirok etgan davlatlar soni**

O'zbekistonning xalqaro baholash dasturlardagi ishtiroki. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etildi:

1). Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) - boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

2). Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash;

3). The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

4). The Teaching and Learning International Survey (TALIS) - rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish

Xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati nimada? Ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etish O'zbekistonga nima beradi?

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi

Tadqiqotlarda olingan [natijalar mamlakatdagi](#) ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi

Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarini o'tkazish [madaniyati rivojlanadi](#), ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi.



**Savol va topshiriqlar**

1. O‘quv faoliyati va uning elementlari nimalardan iborat.
2. Ta‘lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish nimaga bog‘liq.
3. O‘qish motivlari.
4. Ta‘lim faoliyatiga ko‘ra ta‘limning qanday metodlari mavjudarslik
5. O‘quv faoliyatini boshqarish.
6. Ko‘nikma va malakalar ta‘lim jarayonida qanday shakllantiradi.
7. PISA dasturining eng so‘nggi ma‘lumotlarini tahlil qiling.
8. TIMSS xalqaro dasturi doirasida tadqiqolarning ustunlik tomonlarini aytib bering.
9. **PIRLS** bo‘yicha tadqiqotlarining 2016 yilnatijalarini tahlil qiling.



## **Testlar**

- I. Xukumat tomonida qabul qilingan ta‘limga oid qonunlarni mohiyatini yoritib bering

2009- yil 11- iyun “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to‘g‘risida”gi Nizom

2018-yil 9-avgust “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom

2020- yil 31- dekabr “Oliy ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom

## **II. Moslikni aniqlang**

1. **Oraliq nazorat**
  - a) semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun "Yozma ish" yoki OTKS (obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi.
  
2. **Joriy nazorat**
  - b) semester davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.
  
3. **Yakuniy nazorat**
  - c) talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazoratishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

## VIII. Moslikni aniqlang

1. **GPA (Grade Point Average)** a) ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:
2. **akademik mobillik** b) oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;
3. **mobillik dasturi** c) ikki yoki undan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;
4. **kredit** d) ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;
5. **oliy ta'lim muassasasi** e) belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga

- olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa;
- 6. kreditlarni berish** f) malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;
- 7. kreditlarni ko'chirish** g) talabalarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish;
- 8. kredit to'plash** h) ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;
- 9. talabning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi** i) talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini



beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

**10. ta'lim dasturi**

j) bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

**11. ta'lim dasturi katalogi**

k) oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va

- resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;
- 12. ta'lim natijalari** l) talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;
- 13. o'qish yuklamasi** m) talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;
- 14. ro'yxatga olish xizmati** n) ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid

ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

**15. ta'lim elementlari**

- o) ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

**16. transkript**

- p) ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

## Glossariy.

<b>O'zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>	<b>Ingliz tili</b>	<b>Mazmuni</b>
<b>Akademik mobillik</b>	<b>Akademic heskaya mobil'no stb</b>	<b>Academic mobility</b>	oliy ta'lim muassasalari talabalari va o'qituvchilarining o'qish yoki o'qitish maqsadida ma'lum muddatga o'z mamlakati ichidagi yoki undan tashqaridagi boshqa ta'lim yoki ilmiy muassasaga ko'chib o'tishidir
<b>Axloq</b>	<b>Moralb</b>	<b>Moral</b>	shaxsning jamiyatga va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me'yorlar tizimi, ma'naviy xulq qoidalari, u ijtimoiy ong shakllaridan biridir
<b>Dars</b>	<b>Urok</b>	<b>Lesson</b>	o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli
<b>Darslik</b>	<b>Uchebnik</b>	<b>Textbook</b>	muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida ko'rsatilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilib beradigan kitob
<b>Davlat ta'lim standartla ri</b>	<b>Gosudars tvennye obrazovat elnye standarty</b>	<b>State educational standards</b>	umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi
<b>Daydjest</b>	<b>Daydjest</b>	<b>Daydjest</b>	ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar

mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltirilgan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan nashr

<b>Dual ta'lim</b>	<b>Dualnoe obuchenie</b>	<b>Dual training</b>	ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi
<b>Didaktika</b>	<b>Didaktika</b>	<b>Didactics</b>	ta'lim va o'qitish nazariyasi hamda o'qitish jarayonida tarbiyalash mazmunini ifodalovchi pedagogikaning tarkibiy qismi
<b>Eksperiment</b>	<b>Eksperiment</b>	<b>Experiment</b>	fan va bilish sohasida favqulodda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his-tuyg'ulari, xarakteri, qobiliyati, aqt-zakovatini o'rganishda qo'llaniladigan usul
<b>Esda olib qolish</b>	<b>Zapomnit Ъ</b>	<b>Remember</b>	bu aqliy jarayonga tegishli faoliyat bo'lib, u eng avval miya po'stida idrok qilinayotgan buyum, so'z, fikr, g'oya, ta'limot, qonun, qoida va shu kabilarning izlari hosil bo'lishidan va ayni vaqtda esda olib qolinadigan material bilan kishida mavjud bilim va tajriba o'rtasida bog'lanish vujudga kelishidan iborat bo'lgan jarayon
<b>Faoliyat</b>	<b>Deyatel'н</b>	<b>Activity</b>	1) Biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayon)

	<b>oсть</b>		2) Kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasidir
<b>Fikr</b>	<b>Ideya</b>	<b>Idea</b>	Tushuncha, bilim, ong, aql, maslak
<b>Fikrlash</b>	<b>Мышление</b>	<b>Mind</b>	bu har xil muammo va masalalarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat
<b>GPA (Grade Point Average)</b>	<b>GPA (Grade Point Average)</b>	<b>GPA (Grade Point Average)</b>	ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati
<b>Hikoya metodi</b>	<b>Метод рассказов</b>	<b>The method of the story</b>	o'qituvchi tomonidan yangi o'tilayotgan mavzuga oid narsa, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishidir
<b>Insonparvarlik</b>	<b>Гуманизм</b>	<b>Humanism</b>	insonning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini, uning erkinligi, baxt-saodat, rivojlanish va qobiliyatlarini namoyon qilish huquqini tan oladigan qarashlar tizimi
<b>Joriy nazorat</b>	<b>Текущий контроль</b>	<b>Current control</b>	talabanning fan mavzulari bo'yicha talabalarning bilim va amaliy ko'nikma darajasini seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazoratishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish shakli
<b>Ko'nikma</b>	<b>Умение</b>	<b>Ability</b>	muayyan vaziyatdagina emas, balki

dastlabki shart-sharoitlar o'zgargan vaqtda ham ma'lum xatti-harakatlar qilish (hosil bo'lgan tajriba asosida) qobiliyati bilan tavsiflanadi. Ko'nikmalar biror harakatni nazoratsiz, avtomatik tarzda bajarish qobiliyatlaridir

<b>Kommuni katsiya</b>	<b>Kommuni katsiya</b>	<b>Communic ation</b>	kishilarning o'zaro muloqotlarida axborotlar almashish tavsifi
<b>Kredit</b>	<b>Kredit</b>	<b>Credit</b>	ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi
<b>Kredit to'plash</b>	<b>Sbor kredita</b>	<b>Credit collection</b>	ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash
<b>Kreditlarn i berish</b>	<b>Выдача kreditov</b>	<b>Issuance of loans</b>	malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni
<b>Kreditlarn i ko'chirish</b>	<b>Перемещ enie kreditov</b>	<b>Moving credits</b>	talabalarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta'lim muassasasiga ko'chirish va tan olish
<b>Kredit- modul</b>	<b>Kreditno- modul'na</b>	<b>Credit- modular</b>	1 kredit o'rtacha 25 — 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng

<b>tizimi</b>	<b>ya</b>	<b>system</b>	
	<b>sistema</b>		
<b>Kreativlik</b>	<b>Kreativno</b>	<b>Creativity</b>	betakror qadriyatlar yaratuvchi, nostandart echimlar qabul qiluvchi individning botiniy qobiliyati.
	<b>stʻ</b>		
<b>Loyiha</b>	<b>Proekt</b>	<b>Project</b>	(lotincha projectus – oldinga tashlangan) – tasvir, asoslanma, aniq hisob kitob, chizmalar shaklida aks ettirilgan gʻoya, maʼlumotning mohiyatini ochib beruvchi, ularni amalga oshirishning aniq yoʻllarini belgilab beruvchi gʻoyalar, fikrlar, obrazlardir
<b>Lugʻat</b>	<b>Slovarʻ</b>	<b>Dictionary</b>	aniq bir tartibda joylashgan soʻzlar (yoki soʻz birikmasi va hokazo) toʻplami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimai toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi yoki soʻzning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, taʼlim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr.
<b>Maʼruzalar toʻplami</b>	<b>Sbornik lektsiy</b>	<b>Collection of lectures</b>	muayyan fanning oʻquv dasturi boʻyicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qoʻshimcha oʻquv adabiyotlari koʻrsatilgan, oʻzini oʻzi nazorat qilishga oid savollar turkumi,



mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

**Malaka**      **Kvalifikat**      **Qualificatio**  
**siya**                      **n**                      shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir..

**Mashqlar**      **Kompleks**      **A set of**  
**(masalalar**      **uprajneni**      **exercises**  
**) to'plami**      **y**                      **(tasks)**  
**(zadach)**                      muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek ta'riflash, ifodalash, shakllantirish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltirilgan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'lumotlar bilan to'ldirilgan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

**Masofaviy**      **Dstantsio**      **Distance**  
**ta'lim**                      **nnoe**                      **education**  
**obuchenie**                      o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga

<b>Muammol i ta'lim</b>	<b>Problemn oe obrazova nie</b>	<b>Problem education</b>	qaratilgan ta'lim turi. o'quv materialini o'quvchilar ongiga ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rganishdir.
<b>Muammol i o'qitish</b>	<b>Problemn oe obuchenie</b>	<b>Problem- based learning</b>	o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar
<b>Muammol i vaziyat</b>	<b>Problemn oe situatsiya</b>	<b>Problematic situation</b>	o'quv vaziyati bo'lib, u mashaqqat bilan hal qilinadigan masala tufayli yuzaga keladi
<b>Metod</b>	<b>Metod</b>	<b>Method</b>	1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.
<b>Metodika</b>	<b>Metodika</b>	<b>Methodolog y</b>	biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.
<b>O'qish yuklamasi</b>	<b>Uchebnaya nagruzka</b>	<b>Academic load</b>	talaba tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlari — ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;
<b>O'quv</b>	<b>Учебный</b>	<b>Educational</b>	ahamiyatga molik nazariy yoki amaliy

<b>loyihasi</b>	<b>y proekt</b>	<b>project</b>	muammolarni ta'lim oluvchilar tomonidan amalga tadbiq qilishning tadqiqotchilik, izlanuvchanlik, ijodkorlik turidir.
<b>O'quv rejasi</b>	<b>Uchebnyy plan</b>	<b>Curriculum</b>	o'quv yurtlarida o'qitiladigan fan, ularning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'qitilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat.
<b>O'quv vositalari</b>	<b>Sredstva obucheniya</b>	<b>Learning tools</b>	pedagog va o'quvchi o'rtasida ta'lim, tarbiya va rivojlantirish maqsadlariga erishishda foydalaniladigan odamlar tomonidan tayyorlangan yoki tabiiy materiallardan iborat obyektlardir.
<b>PISA dasturi</b>	<b>Programma PISA</b>	<b>PISA Program</b>	O'quvchilar bilimini xalqaro baholash ( <i>Programme for International Student Assessment, PISA</i> ) dasturi bo'lib, butun dunyo bo'ylab maktab o'quvchilarining funksional savodxonligi va bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi testdir
<b>Oraliq nazorat</b>	<b>Promejutnochnyy kontrol'ь</b>	<b>Intermediat e control</b>	semester davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli
<b>Paradigma</b>	<b>Paradigma</b>	<b>Paradigma</b>	(yunoncha «paradeigma» – misol, namuna) so'zining o'zi keng ma'noda turmush va fikrlashning biror sohasining fundamental

asoslarini aniqlab beruvchi o'ziga xos tuzilishga ega nazariya hisoblanadi

<b>PIRLS</b>	<b>PIRLS</b>	<b>PIRLS</b>	o'qish va matnni tushunish sifati bo'yicha xalqaro tadqiqot bo'lib, butun dunyo bo'ylab boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni tushunish darajasi va sifatini taqqoslash imkonini beradi, shuningdek, milliy ta'lim tizimlari orasidagi farqlarni aniqlaydi
<b>Pedagog</b>	<b>Pedagog</b>	<b>Teacher</b>	tarbiyachi, o'qituvchi, dars beruvchi
<b>Pedagogika</b>	<b>Pedagogika</b>	<b>Pedagogy</b>	yosh avlod ta'lim va tarbiyasi haqidagi fan
<b>Qiziqish</b>	<b>Interes</b>	<b>Interest</b>	<b>bu insonning bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarning hissiy namoyon bo'lishidir</b>
<b>Davlat ta'lim muassasasi</b>	<b>Gosudars tvennoe obrazovatel'noe uchrejdenie</b>	<b>State educational institution</b>	<b>davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta'lim standartlariga va davlat ta'lim talablariga muvofiq ta'lim beradigan muassasa</b>
<b>Ro'yxatga olish xizmati</b>	<b>Slujba registratsiia</b>	<b>Registration Service</b>	ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning

barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar

<b>Shakllantirish</b>	<b>Formirovaniye</b>	<b>Forming</b>	nasliy omillar, muhit, maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiya va shaxsiy faollik ta'sirida insondagi bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarni tarkib toptirish jarayoni
<b>Shaxs</b>	<b>Lichnostь</b>	<b>Personality</b>	kadrlar tayyorlash tizimining bosh subekti va obekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi. Shaxs deganda, muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi
<b>Ta'lim</b>	<b>Obrazovaniye</b>	<b>Education</b>	1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, sotsial etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash g'oyaviy-axloqiy qadr, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining

ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

<b>Ta'lim dasturi katalogi</b>	<b>Katalog obrazovatel'nykh program m</b>	<b>Catalog of educational programs</b>	oliy ta'lim muassasasi tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axboroti
<b>Ta'lim dasturi</b>	<b>Obrazovatel'naya program ma</b>	<b>Educational program</b>	bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui
<b>Ta'lim elementlari</b>	<b>Elementy obucheniya</b>	<b>Learning elements</b>	ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish

turi

<b>Ta'lim natijalari</b>	<b>Rezulytat ы obucheniya</b>	<b>Learning outcomes</b>	talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi
--------------------------	---------------------------------------	------------------------------	---

<b>Ta'lim qonuniyatlari</b>	<b>Законы воспитания</b>	<b>The laws of education</b>	hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi ularning rivojlanishini tavsiflovchi obyektiv mavjud, barqaror takrorlanuvchi, zaruriy va muhim bog'liqlik
-----------------------------	------------------------------	----------------------------------	--

<b>Ta'lim tamoyillari</b>	<b>Принципы воспитания</b>	<b>Principles of education</b>	o'qituvchining faoliyatini va o'quvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir
---------------------------	--------------------------------	--	---

<b>Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi</b>	<b>Личностная образовательная траектория школьника</b>	<b>Personal educational trajectory of a student</b>	talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin.
---	--	---	---

<b>Tarbiya</b>	<b>Vospitani</b>	<b>Education</b>	<p>1) shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir etish;</p> <p>2) pedagogik jarayonda ta'lim maqsadlarini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati</p>
----------------	------------------	------------------	---

<b>TIMSS - Trends in Mathematics and Science Study</b>	<b>TIMSS - Trends in Mathematics and Science Study</b>	<b>TIMSS - Trends in Mathematics and Science Study</b>	<p>dunyoning turli mamlakatlaridagi boshlang'ich maktablarning 4-sinfi o'quvchilari hamda 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilim darajasi va sifatini taqqoslash hamda, milliy ta'lim tizimlari orasidagi farqlarni aniqlaydigan tadqiqot dasturi</p>
--	--	--	---

<b>Transkript</b>	<b>Transkript</b>	<b>Transcript</b>	<p>ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.</p>
-------------------	-------------------	-------------------	--

<b>Tushuncha</b>	<b>Kontseptsiya</b>	<b>Concept</b>	<p>bu narsa va hodisalarning umumiy (xususiy) muhim belgi va xususiyatlarini ifodalovchi fikr (ba'zan fikrlar), tafakkur shakli</p>
------------------	---------------------	----------------	---



<b>Vosita</b>	<b>Sredstvo</b>	<b>Instrument</b>	biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun dastak bo'lib xizmat qiladigan narsa, qurol.
<b>Xarakter</b>	<b>Xarakter</b>	<b>Personality</b>	o'quvchi yoki talaba xulqi yoki axloqida namoyon bo'ladigan va unda odat tusiga kirib qolgan eng muhim ruhiy holatlar.
<b>Yakuniy nazorat</b>	<b>Итоговуы контроль</b>	<b>Final control</b>	semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli.
<b>Bibliografiya</b>	<b>Библиография</b>	<b>Bibliography</b>	bu hal etilishi lozim bo'lgan muammoni tadqiq etish jarayonida zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati.
<b>Davlat ta'lim standartlari</b>	<b>Государственные образовательные стандарты</b>	<b>State educational standards</b>	davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.
<b>Davlat ta'lim talablari</b>	<b>Государственные требования</b>	<b>State requirements for education</b>	ta'limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy

	<b>obrazova niyu</b>		sifatlariga qo'yiladigan majburiy talablar.
<b>Didaktika</b>	<b>Didaktika</b>	<b>Didactics</b>	pedagogikaning o'quv jarayonini tashkil etishning nazariy asoslarini (qonuniyatlari, tamoyillar, metodlari) o'rganuvchi bo'limi bo'lib, tamoyillar, strategiyalar, metodikalar, texnologiyalar va ta'lim tizimlarini ishlab chiqadi va tadqiq etadi.
<b>Inson kamoloti</b>	<b>Zrelost'ь cheloveka</b>	<b>Human maturity</b>	bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi.
<b>Insonning shakllanishi</b>	<b>Formirovaniye cheloveka</b>	<b>Human formation</b>	bu insonning hayot yo'li davomida rivojlanishining o'ziga xos shakli bo'lib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir natijasi hisoblanadi.
<b>Kuzatish</b>	<b>Nablyudeniye</b>	<b>Observation</b>	o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchini kuzatishni tashkil etishi.
<b>Ma'lumot</b>	<b>Informatsiya</b>	<b>Information</b>	bunda nafaqat o'qitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish

bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi ko‘zda tutiladi.

<b>Malaka</b>	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Qualification</b>	shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi.
<b>Mobillik dasturi</b>	<b>Programma mobilnosti</b>	<b>Mobility program</b>	ikki yoki undan ortiq oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida o‘zaro ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi.
<b>Mutaxassislilik</b>	<b>Spetsialnost</b>	<b>Specialization</b>	malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.
<b>Nafosat tarbiyasi</b>	<b>Vospitanie elegantnosti</b>	<b>Nurturing elegance</b>	san’atdagi, tabiatdagi, qurshab olgan hayot voqeligidagi go‘zallik vositalari asosida tarbiyalash jarayoni.
<b>O‘yin</b>	<b>Igra</b>	<b>Game</b>	tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri.

<b>Pedagogika</b>	<b>Pedagogika</b>	<b>Pedagogy</b>	tarbiya haqidagi fan.
<b>Ta'lim</b>	<b>Образование</b>	<b>Education</b>	bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni.
<b>Tarbiya metodi</b>	<b>Метод воспитания</b>	<b>Method of education</b>	(yunoncha «metodos» – yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li.
<b>O'qitish</b>	<b>Обучение</b>	<b>Training</b>	bu insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.
<b>O'qitishning maqsadi</b>	<b>Цель обучения</b>	<b>Purpose of training</b>	axborotni uzatish, uning o'zlashtirilishini nazorat qilish va baholash jarayonida har bir o'quvchining samarali o'quv faoliyatini tashkil etishdir.
<b>O'rgatish</b>	<b>Обучать</b>	<b>Teach</b>	bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

Иш,

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘PQ-637 son qonuni. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi rivojlanish davrida ta‘lim va tarbiya, ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. NUP-6108.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021 yil 30 sentyabrdagi 412-son buyrug‘i.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
6. 2022 yil 21 iyundagi PQ-289 – son “Pedagogik ta‘lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
7. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma‘naviyat, 2008. – 174 b.
8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 40 b
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami). – T.: 2017.
10. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406-son.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907 qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 21 apreldagi PQ-2909-son qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi Farmoyishi. // Xalqso‘zigazetasi. 2017 yil, 13-yanvar.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida”gi 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-sonli qarori.
15. Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari – 5111700. – T., 2018. – 34 b.
16. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
17. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – М.: «Просвещение» 1995. – 336 с.
18. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар. (Таълим муассасалари тарбиячи-ўқитувчилари ва гуруҳ раҳбарлари учун амалий тавсиялар)-Т.; Истеъдод, 2010 - 141 б.
19. Yo‘ldoshev J., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. Interfaol ta’lim sifat kafolati. – T., 2008. – 150 b.
20. Yarmatov R. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini tarbiyalash va rivojlantirish. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2019. – 128 b.

21. Dilafroz R. Farsakhanova. Students' Moral Education Technology // Eastern European Scientific Journal. (ISSN 2199-7977). Dusseldorf – Germany. Ausgabe 6-2018. P. 165-168.
22. Pedagogika: ensiklopediya / Tuzuvchilar: Jamoa. II jildarslik –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
23. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003.– Ч.1. – 288 с.
24. Слостёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Общая педагогика. В 2 ч.– М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч.2. – 256 с.
25. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. I jild (tuzuvchilar: K.Hoshimov, S.Ochil). – T.: O‘qituvchi, 1995. – 460 b.
26. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. II jild (tuzuvchilar: S.Ochil, K.Hoshimov). – T.: O‘qituvchi, 1999. – 478 b.
27. Hasanboev J., To‘raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b.
28. Hoshimov K. va boshq. Pedagogika tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 460 b.
29. Hoshimov K., S.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: 2010. – 320 b.
30. Holiqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: 2011, 424 b.
31. B.X.Xodjaev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, “Sano-standart” nashriyoti, 2017
32. Mavlonova R., Voxidova N., Rahmankulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi.. Toshkent, Fan va texnologiya, 2010
33. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T., 2015. – 208 b.
34. Б.С. АБДУЛЛАЕВА М.Б.УРАЗОВА Н.Х.ВОХИДОВА. Общая педагогика. Учебное пособие. Сано стандарт – Т., 2017.
35. Абдуллаева Б., Уразова М.Б. Вохидова Н., Общая педагогика. Учебник. Ташкент -2020.
36. Вохидова Н., Халикова З. Теория и практика общей педагогики. Ташкент



-2007

37. Pedagogik atamalar lug'ati / Jamoa. – T.: 2008. –136 b
38. Pedagogika entsiklopediya / Jamoa. – I j. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 320 b.
39. Pedagogika: Entsiklopediya/ Mas'ul muhar.: R.G'.Safarova, R.H.Jo'raev. – II jild. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2015. – 376 b.
40. Tarbiyaviy ishlar metodikasi: Fan dasturi / Tuzuvchi: N.X.Voxidova. – T., 2018. – 12 b.
41. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi / Tahrir hay'ati: T.Mirzaev va boshq. – I jild. – T.: “O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
42. O'zbek tilining izohli lug'ati. //Begmatov E., Madvaliev A. Va boshqalar.; – II jild. – T.: “O'zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 606 b

## MUNDARIJA

1.	<b>SO‘Z BOSHI</b>	<u>3</u>
2.	<b>ZAMONAVIY TA‘LIM-TARBIYA VA UNING MOHIYATI..</b>	<u>4-17</u>
3.	PEDAGOGIKANING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI.....	<u>18-28</u>
4.	PEDAGOGIKA FANINING RIVOJLANISH TARIXI TARBIYA NAZARIYASI.....	<u>29-55</u>
5.	DIDAKTIKA – TA‘LIM NAZARIYASI.....	56-99
6.	<b>O‘QUV –TARBIYA VAZIYATLARINI LOYIHALASH.....</b>	100-113
7.	PEDAGOGIK NAZORAT VA TA‘LIM SIFATINI BAHOLASH.....	<u>114-140</u>
8.	<b>GLOSSARIY .....</b>	<u>141-154</u>
9.	<b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<u>155</u>

### Table of contents

1.WORD HEAD.....	3
2.MODERN EDUCATION-UPBRINGING AND ITS ESSENCE.....	4-17
3.SUBJECT, GOALS AND OBJECTIVES OF PEDAGOGY.....	18-28
4. HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL SCIENCE THEORY OF UPBRINGING.....	29-55
5.DIDACTICS IS THE THEORY OF EDUCATION.....	56-99
6.DESIGN OF EDUCATIONAL SITUATIONS.....	100-113
7.PEDAGOGICAL CONTROL AND ASSESSMENT OF THE QUALITY OF EDUCATION.....	114-140
8.Glossariy.....	141-154

LIST OF LITERATURE.....	155
-------------------------	-----

## **Содержание**

1.Введение.....	3
2.СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ-ВОСПИТАНИЕ И ЕГО СУЩНОСТЬ.....	4-17
3.ПРЕДМЕТ, ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ПЕДАГОГИКИ.....	18-28
4.ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ ТЕОРИЯ ВОСПИТАНИЯ.....	29-55
5.ДИДАКТИКА - ЭТО ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ.....	56-99
6.ПРОЕКТИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СИТУАЦИЙ.....	100-113
7.КОНТРОЛЬ И ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ.....	114-140
8.Глоссарий .....	141-154
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	155